

R.S. SALOMOV
F.A. KERIMOV

**JISMONIY TARBIYADA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR**

TOSHKENT – 2009

Mualliflar:

Salomov Rahmatilla Salomovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Kerimov Fikrat Azizovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Usmonxo`jaev T.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Livitskiy A.N. – pedagogika fanlari nomzodi, professor

O`quv qo`llanma jismoniy tarbiya instituti va pedagogika universitetlarining magistrleri uchun mo`ljallangan.

Mazkur o`quv qo`llanma O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi “Fan va texnologiyalar markazi”ning innovatsion ishlari dasturi doirasida yaratilgan.

O`quv qo`llanma O`zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshidagi ilmiy-uslubiy kengash tomonidan nashr etishga tavsiya etilgan (2008 yil “_____” _____dagi ____-son bayonnoma).

KIRISH

O`quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish zarurligi

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ilg`or pedagogik texnologiyalarni o`rganib, ularni o`quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Keyingi o`n yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bag`ishlangan adabiyotlarda “Pedagogik texnologiya”, “Yangi pedagogik texnologiya”, “Ilg`or pedagogik texnologiya”, “Progressiv pedagogik texnologiya” kabi tushunchalar ko`p uchrab turgani bilan, ularning o`zbek tilidagi maromiga etgan ta'rifi hali tuzilmagan.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O`zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo`llashga intilmoqdalar.

Bu erda nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiya – ularning milliy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbqiq etish zarurati tug`ildi, degan savol paydo bo`lishi mumkin. Jamiyatimizga qanchadan qancha bilimli kadrlarni va yuqori malakali olimlarni etishtirib kelgan pedagogika uslublari mavjudki, ularning eskirib, talabga javob bermay qolgan va mafkuralashtirilgan joylarini o`zgartirib, milliy tus berib, foydalanaversa bo`lmaydimi?- degan mulohazalar ham yo`q emas.

Chunki:

Birinchidan – jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o`rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samardorligini oshirish maqsadida eng ilg`or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi;

Ikkinchidan – an'anaviy o`qitish tizimi yozma va og`zaki so`zlarga tayanib ish ko`rishi tufayli “Axborotli o`qitish” sifatida tavsiflanib, o`qituvchi faoliyati birgina o`quv jarayonining tavsiflanib, o`qituvchi faoliyati birgina o`quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi;

Uchinchidan – fan-texnika taraqqiyotining o`ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko`payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;

To`rtinchidan – kishilik jamiyati o`z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo`lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o`tib borayotganligi;

Beshinchidan – yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg`or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa majmu yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qildishidir.

Pedagogik texnologiya yuqorida sanab o`tilgan beshta sababiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbirdir.

Shu kundagi ijtimoiy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko`p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda ijtimoiy-gumanitar, umumkasbiy fanlar bilimlar doirasiga ham yangi texnologiyani joriy etishni taqozo etmoqda.

Ta'lim texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadqiqotlar olib borishni ko`zda tutadi. Bunda, eng avvalo quyidagilarni aniqlash lozim:

Ta'lim texnologiyalarini ilmiy ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;

Ta'lim majmu sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;

Ta'lim texnologiyasining funktsional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;

Ta'lim texnologiyalari Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlariga qay darajada to'g'ri kelishi va uni baholash mumkinligini ko'rsatib berish;

Pedagogik texnologiyaning majmular nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazoratda tutib turish yo'l-yo'riqini ishlab chiqish.

Shuni aytish joizki, ta'lim texnologiyalari, pedagogika ilmining tadqiqot ob'ekti sifatida aniq fanlarni o'qitish uslubi bo'libgina qolmay, ijtimoiy fanlarni o'qitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi lozim.

Jamiyatimiz jadallik bilan tarqqiy etib iqtisodiy va siyosiy mavqei kundan kunga ortib bormoqda. Ammo ijtimoiy sohada va ayniqsa, ta'lim va tarbiyada deppinish va umumiy taraqqiyotdan orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim va tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish joizki, kishilarning hayotga ongli munosabatini, dunyoqarashini belgilashga doimo yangicha yondashish zarurligini o'z vaqtida anglab etish darajasini ko'rsatib beruvchi muhim omil – ma'naviyatdir.

I-qism. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA KONTSEPTSIYASINING RIVOJLANISH TARIXI

O'zbekistonning mustaqil davlat bo'lib tashkil topishi, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy sohalarda tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasining isloh qilinishi pedagogika fanini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endilikda kishilik jamiyati tomonidan uzoq yillar davomida yaratilgan tarbiya tajribalarini o'rganish va tadqiq qilish ishlari keng yo'lga qo'yildi.

Sho'rolar tuzumi davrida barcha ijtimoiy fanlar kabi pedagogika ham kommunistik mafkura qobig'i bilan o'ralgan, uning rivojlanish me'yori cheklangan, ilg'or chet mamlakat g'oyalari esa burjua g'oyalari, deb tanqid qilinadi va rad etiladi. Holbuki har qanday g'oya ham o'zida ma'lum ijobiy jihatlarni mujassamlashtirishi mumkin, ularni amaliyotga joriy etish foydadan xoli emas edi. Jumladan, pedagogik texnologiya (PT) ham burjua didaktikasiga tegishli yo'nalish sifatida qarab kelindi va bu muammoni tadqiqot ob'ektiga aylantirishning iloji yo'q edi.

Bugun mamlakatimiz istiqloli sharofati tufayli barcha fan sohaslarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tadbiiq etish davri keldi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda "kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy yuzasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi".

Pedagogik texnologiya nazariyasining vujudga kelishi va rivojlanishi 30-yillarda "pedagogik texnika" tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'ldi va u o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi. Shuningdek, bu davrda PT deb o'quv va laboratoriya jihozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

40-50-yillarda o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Aniqsa, kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish uslubikasi PT ga tenglashtirildi.

60-yillarning o'rtalarida bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarda keng muhokamaga tortildi. 1961 yildan boshlab AQSh da "Pedagogik texnologiya", 1964 yildan Angliyada "Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim", Yaponiyada esa 1965 yildan "Pedagogik texnologiya" jurnallari chop etila boshlandi. 1971 yilda xuddi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

PT muammosining o'ta dolzarbligi hisobga olinib, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish maqsadida maxsus korxonalar tuzildi. Misol uchun, 1967 yilda Angliyada pedagogik texnologiya Milliy Kengashi tashkil etildi va 1970 yildan boshlab "Pedagogik texnologiya jurnali" chiqa boshladi. AQShning qator universitetlari va ilmiy markazlarida ham PT muammolariga jiddiy e'tibor berildi. 1971 yilda maxsus "Kommunikatsiya va texnologiya Assotsiatsiya"si faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirgi kunda bu tashkilotning barcha shtatlarda va Kanadada 50 dan ziyod filiallari ishlab turibdi.

Yaponiyada PT muammolari bilan to'rtta ilmiy jamiyat shug'ullanmoqda, faol harakatdagi pedagogik texnologiya Markaziy Kengashining 22 ta davlat universitetlarida markazlari mavjud. Har uch oyda yapon tilida chiqadigan "Pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlar" jurnallarida yirik olimlarning ilmiy ishlari o'z o'rnini topmoqda. Yaqinda Umumiyapon pedagogik texnologiya Markaziy Kengashi tuzilib, bu sohada xalqaro aloqalar o'rnatish ishlari bilan mashhur.

Didaktikaning bu yo'nalishiga e'tibor nihoyatda oshib borishini 70-yillarda o'tkazilgan qator xalqaro konferentsiyalar tasdiqlaydi. Shunday xalqaro konferentsiyalar 1966 yildan boshlab har yili bahorda Angliyada o'tkazilib kelinadi va anjuman materiallari "Pedagogik texnologiya jihatlari" nomida nashr qilinadi.

Yuqoridagilarning o`ziyoq PT pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasidagi alohida hodisa sifatida diqqat markazda turganligini. 60-yillardan boshlab chet ellarda yangi yo`nalish sifatida shakllanganligini ta'kidlab turibdi. Tahlillarning ko`rsatishicha, bu davrda PT ikki yo`nalishda mhokama qilindi va rivojlantirildi: birinchisi – o`quv jarayoniga texnik vositalarini qo`llash bilan bog`liq bo`lsa (shu jumladan dasturli ta'limning texnika vositalari), ikkinchisi – o`qitish texnologiyasi masalalarini, ya'ni o`quv materiallarni tahlil qilishdan tortib ta'lim jarayonini turlicha nashrli va texnik vositalardan jamuljam foydalangan holda tizimli tashkil etishga qadar bo`lgan keng doiradagi muammolarni qamrab oladi.

Shu erda birinchi konferentsiya materiallari (1966 yil) to`planning kirish maqolasida yozilgan juda muhim dalilni keltirish o`rinlidir: “ikki tushuncha – “pedagogika” va “texnologiya”larni qo`shish mantiqi tortishuvlarga sabab bo`ladi. Chunki “texnologiya” so`zi sinf xonasiga texnikani kiritish va “degumanizatsiya” (insonparvarlikdan voz kechish) g`oyasi bilan tavsiflanishi pedagogik kasb vakillarini cho`chitishi mumkin”. Albatta, bu fikr ma'lum darajada to`g`ri bo`lishi mumkin. Biroq texnokratik fikrlash (texnikaning inson va uning qadriyatlarini ustidan ustunligi) fanda qoralanadi yoki inson hech qachon “temir mashina” ga tobe bo`lmaydi, balki uni o`z aql-zakovati bilan yaratadi va boshqaradi. Bu muammoning psixologik jihatlari kam o`rganilgan soha.

70-yillarning boshiga kelib o`quv jihozlarining turli xillarini va o`qitishning predmetli vositalarini loyihalash va ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish zaruriy shartlardan biriga aylandi, ularsiz ilg`or uslubika va o`qitish shakllari samarasiz bo`lishi, ta'lim sifatiga erishib bo`lmazligi anglab etildi. Shu boisdan sotsialistik lagerdagi davlatlarda ham bu sohada ma'lum hajmdagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1965 yilda sobiq SSSR Pedaagogika Fanlari Akademiyasida “O`quv jihozlari va o`qitishning texnik vositalari” ilmiy tekshirish instituti tashkil etildi va hozir ham Rossiya ta'lim akademiyasi instituti sifatida faoliyat ko`rsatayapti. 1973 yilda Vengriyada “O`qish texnologiyasi Davlat Markazi” bevosita YuNESKO tashabbusi va dasturi asosida tashkil etildi va uning asosiy vazifasi o`qitish texnologiyasining yangi qirralarini kashf eti, mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo`yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish kabi masalalardan iborat bo`ldi.

YuNESKO insonparvar va taraqqiyparvar tashkilot sifatida xalqaro muammolarni o`rganish bilan muntazam shug`ullanib kelmoqda. 1971 yilda YuNESKO sobiq bosh direktori Rene Mais Frantsiya Bosh vaziri (ayni vaqtda Ta'lim vaziri) Edgardo Foraga murojaat qilib maxsus guruhga rahbarlik qilishni, tezkor o`zgarishlar ro`y berayotgan bir sharoitda jahon ta'limi oldiga qo`yilgan maqsadni va uni amalga oshirish uchun aqliy va moddiy vositalar miqdorini belgilab berishni iltimos qildi.

Shunday qilib, 1972 yilning kech kuzida Buyuk Britaniya va Frantsiya kitob do`konlarida “Yashash uchun o`qish. Dunyo tarbiyasi bugun va ertaga” kitobi paydo bo`ldi. Bu voqeaga roppa-rosa 30 yil vaqt o`tgan bo`lsada, ma'ruzaning asosiy g`oyalarini eslash foydadan xoli bo`lmaydi. Boz ustiga bu kitob boshqalari kabi mamlakatimiz keng auditoriyasiga kirib kelmadi, kutubxonalarimiz boyligiga aylanmagan.

Komissiya tomonidan jahon ta'limining joriy holati tahlil qilinib asosiy yo`nalishlari belgilandi. Komissiya milliy Kontseptsiya, shuningdek maorif va tarbiyani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun o`z tavsiyalarini ifoda etdi. Bu kontseptsiyaning bosh g`oyasi: inson butun hayoti davomida tiklanish holatida bo`ladi, demak u o`z potentsialini faqat uzluksiz ta'lim jarayonidagina amalga oshiradi – doimo yangiliklarni bilishga va mavjud tajribalarini faollashtirishga intiladi. Shu boisdan ma'lumotlilik faqat ma'lum hajmdagi bilimlarni uzatish bilan bog`liq holda emas, inson o`z hayoti davomida tiklanish jarayonining mantiqini aniqlaydigan omil sifatida tushunish kerak. Eng asosiysi, Edgardo For tomonidan “zamonaviy texnologiya ta'limni modernizatsiyalashda harakatlanuvchi kuch” ekanligi qayd etildi.

Bu davrda ta'lim tizimidagi o`zgarishlar turli mamlakatlarda turlicha kechdi: ba'zi birlari amaliyotdagi mavjud ta'limni takomillashtirishni afzal ko`rsalar, boshqalari o`z oldilariga hozirgi ta'lim tizimini yangisiga almashtirishni maqsad qilib qo`ydi. Nihoyat, uchinchilari esa

jamiyatni o'zgartirmasdan turib ta'lim tizimini isloh qilish mumkin emasligini, vaqtni boy bermasdan yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning yangi tizimini yaratishga kirishish kerakligini e'tirof etadilar.

Bugun O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topdi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. Shu sabab biz bu pedagogik fenomenning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonini o'rganishga tarixiy yondashmoqdamiz.

1977 yilda Budapeshtda o'tkazilgan o'qitish texnologiyasi bo'yicha Xalqaro semenarda ta'limni texnologiyalashtirish jarayoni bilan bog'liq omillar rus olimi S.G.Shapovalenko tomonidan quyidagicha belgilandi:

Texnikani bilish va mukammal egallash;

Audiovizual fondi bilan tanish bo'lish;

Texnik vositalardan foydalanish uslubikasini egallash.

Biroq bu fikrning bir yoqlamaligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Undan farqli o'laroq g'oyalar shu seminar ishtirokilar tomonidan atildi. Misol uchun, venger olimi L.Salai o'qitish texnologiyasi doirasini bir muncha kengaytirishga urinadi: rejalashtirish, maqsad tahlili, o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, maqsad va mazmunga mos keladigan uslublar, vositalar va materiallarni tanlash bevosita PTni loyihalashdagi o'qituvchi faoliyatiga xosligini ta'kidlaydi. Shunga yaqin fikrlar, ya'ni o'qitish texnologiyasi o'zida yordamchi vosita va yangi tizimni qamrab olgan holda o'quv jarayonini rivojlantirishga, uning tashkiliy shakllarini, uslublarini, mazmunini o'zgartirgan holda o'qituvchi va talabalarning pedagogik tafakkurlashiga ta'sir ko'rsatishi J.Tseller tomonidan ta'kidlandi. Bu ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, 70-yillar oxiriga kelib chet ellarda texnika rivoji va ta'limni kompyuterlash darajasiga bog'liq holda PTning ikkita jihatlari alohida ajratilib ko'rsatilgan va tadqiq qilingan: 1. O'quv jarayoniga texnik vositalarni joriy etish; 2. Amaliy masalalar echimini topishda bilimlar tizimidan foydalanish. Misol uchun, Yaponiyada bu davrda olib borilgan tadqiqotlar o'quv jarayonini texnologiyalashtirishning birinchi yo'nalishi, ya'ni ta'limning yangi texnik vositalarini yaratish va o'quv jarayoniga qo'llash bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Bunday holat boshqa qator davlatlar uchun ham xarakterli bo'lib, PTning ikkinchi yo'nalishi – nazariy-didaktik jihatlari 80-yillarning boshida AQSh va Angliyada tadqiqot ob'ektiga aylandi. Chunki "texnologiya" so'zi keng ma'noda nazariy bilimlarni amaliyot maqsadiga ko'chirish, bu ko'chirishning aniq yo'llarini ishlab chiqish zarurati e'tirof etildi.

Shunday qilib, 80-yillarda PTning mohiyatini oydinlashtirishga bo'lgan urinishlar yanada davom ettirildi. Bu soha Rossiyalik pedagog olimlarning diqqatini ham jalb eta boshladi. PTning rivojlanish tarixi T.A.Ilinaning ilmiy maqolalarida burjua didaktikasining yo'nalishi sifatida talqin etilsada, u birinchilar qatorida o'z hamkasblarini bu muammo bilan shug'ullanishga da'vat etadi va chet el maktablari va pedagogikasida bu sohadagi yangi va qiziqarli nashrlarning barchasini kuzatish foydali ekanligini alohida ta'kidlaydi. Shu boisdan 80-yillarning oxiri, 90-yillarda PTning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilish Rossiyada keng yo'lga qo'yildi. Akademik V.P.Bespalkoning 1989 yilda nashr etilgan "Slagaemo'e pedagogicheskoy texnologii" kitobi bu sohadagi yirik tadqiqotlarning natijasi hisoblanadi. O'zni kelganda ta'kidlash joizki, 80-yillardayoq Vladimir Pavlovich tomonidan PTning ilmiy maktabi yaratilgan edi va kitob muallifi ham shu dargohda tahsil olganligini alohida faxr bilan tilga oladi: Ustoz g'oyasi: "PT-amaliyotga joriy etiladigan ma'lum pedagogik tizim loyihasidir". Bugungi kunda ana shu kontseptsiya pedagogik hamjamiyat tomonidan tan olindi va olimlar tomonidan ta'limiy texnologiyalarni loyihalash va rivojlantirishda foydalanib kelinmoqda. Fikrimizning dalili sifatida "Pedagogik" jurnalida chop etilayotgan qator maqolalarni keltirish mumkin.

Xo'sh, PT mamlakatimiz ta'lim tizimida, qolaversa, pedagogik nashrlarda ilmiy tushuncha tarzda qachon paydo bo'ldi? Shubhasiz, yangi soha 1997 yilda Kadrlar tayyorlash

milliy dasturida dolzarb tadqiqot ob'ekti darajasiga ko'tarildi va ijtimoiy buyurtma sifatida yuzaga qalqib chiqdi. Shu bilan birgalikda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bu muammoga qo'l urildi, aniqrog'i 1993 ilda "Xalq ta'limi" jurnalida chop etilgan maqolada birinchi marta PT tushunchasi mohiyati, uning ta'rifi va ma'lum pedagogik tizim doirasidagi talqini yoritildi.

Bugun esa PT mavzusi bo'yicha mamlakatimizda nazariy va amaliy konferentsiyalarni uyushtirish, vaqtli matbuotlarda maqolalarning tez-tez ko'zga tashlanib turishi ijtimoiy voqelikka aylanib borayotganligi quvonchlidir. 1997 yil may oyida Samarqand Davlat universitetida o'tkazilgan "Oliy ta'limning hozirgi muammolari" Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubik konferentsiyaning yalpi yig'ilishida "Pedagogik texnologiya: kontseptual tahlil" mavzusida ma'ruza qilindi. Ma'ruzada ta'limni texnologiyalashtirish jarayoni ijtimoiy buyurtma sifatida mavjudligi e'tirof etildi, PT ta'rifi, mohiyati va tarixi hamda zamonaviy loyihasi uslubologik yondashuvlar asosida tahlil qilindi.

XXI asrga qadam qo'yish arafasida G.K.Selevko tomonidan PT ga oid yirik uslubik asar – o'quv qo'llanma yaratildi va unda pedagogik texnologiyalar tasnifi keltiriladi. Olim PT lari o'n ikki turga ajratadi:

Qo'llanish darajasi bo'yicha (umumpedagogik; xususiy predmetli; lokalli, modulli, tor pedagogik).

Falsafiy asos bo'yicha (materializm, idealizm, dialektik, metafizik, insonparvar, noinsonparvar, antroposofiya, teosofiya, pragmatizm, ekzistentsializm, stsionizm).

Ruhiiy rivojlantirishning etakchi omillari bo'yicha (biogenli, sotsiogenli, psixogenli, idealistik).

O'zlashtirish kontseptsiyasi bo'yicha (assotsativ-reflektorli, rivojlantiruvchi, bexavioristik, gentalitexnologiya, suggetiv, neytrolingvistik).

Shaxs tzumasiga yo'naltirilganlik bo'yicha (informatsion, operatsion, hayajonli-badii, hayajonli-ahloqiy, o'z-o'zini rivojlantiruvchi, evristik va amaliy).

Mazmuni va tuzilish xarakteri bo'yicha (ta'limiy va tarbiyaviy, dunyoviy va diniy, umumta'lim va kasbga yo'naltirilgan, gumanitar va texnokratik, turlicha sohaviy texnologiyalar, xususiy predmetli hamda monotexnologiyalar, politexnologiyalar).

Tashkiliy shakllar bo'yicha (sinf-dars, muqobilli, akademik, yakka tartibli, guruhli, jamoa bo'lib o'qish usullari, tabaqalashtirilgan ta'lim).

Bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turi bo'yicha (ma'ruzali klassik o'qitish; audiovizualli texnik vositalar yordamida o'qish; "mashatchi tizim"; kitob yordamida o'qitish; "kichik guruh" tizimi; kompyuterli o'qitish; "repetitor" tizimi; "dasturli ta'lim" – V.P.Bespalko).

Bolaga yondashish bo'yicha (avtoritar, didaktotsentrik, shaxsga yo'nalgan texnologiyalar, hamkorlik texnologiyasi, erkin tarbiyalash texnologiyasi, ezoterik texnologiyalar).

Ustuvor uslublar bo'yicha (reproduktiv, tushuntirish-ko'rsatish, rivojlantiruvchi ta'lim, muammoli ta'lim, ijodiy; dasturli ta'lim, dialogli, o'yinli ta'lim, o'z-o'zini o'qitish ta'limi, informatsion ta'lim).

Mavjud an'anaviy tizimlarni yangilash yo'nalishlari bo'yicha (munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida; bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosida; tashkillashtirish va boshqarish samaradorligi asosida; o'quv materiallarni uslubik va didaktik rekonstruktsiyalash asosida; tabiatan monandlik, muqobillik texnologiyalari; mualliflik maktabining yagona texnologiyasi).

Tahsil oluvchilar toifasi bo'yicha (ommaviy texnologiya, olg'a odimlovchi ta'lim, to'ldiruvchi; o'zlashtirmovchilar bilan ishlash texnologiyalari, iqtidorlilar bilan ishlash texnologiyalari).

Bu tasnifni keltirishda asosiy maqsad pedagoglarni o'tmishda qo'llanilgan, hozirgi kunda joriy etilayotgan va kelajak faoliyatda qo'llash mumkin bo'lgan texnologiyalar bilan to'liq tanishtirishdir. Ularning ko'pchiligi sizga mutlaqo notanish ekanligiga ham ishonamiz,

biroq bundan tashvishga tushishga hojat yo`q. Bu haqda G.K.Selevkoning kitobidan to`liq ma'lumotlarni olishingiz mumkin. Tasnifdan ko`rinib turibdiki, olimning o`zi ham har doim ilmiy jihatdan asoslangan va hammaga ham tushunarli bo`lgan texnologiyalarni keltirish lozimligi oldida hisob beravermaydi.

Shunday qilib, PT kontseptsiyasining rivojlanish tarixini kuzatish natijalari asosida bu sohada sermashaqqat izlanishlarni olib borayotgan tadqiqotchilarni faoliyat darajalariga bog`liq shartli uch guruhga ajratish mumkin:

Ba'zi "jonkuyar" olimlarning PT ni pedagogikadagi zamonaviy yo`nalishi, deb an'anaviy yondashishlari va o`z imkoniyatlari doirasida muammoga ilk bor qo`l urishlari. Ular "tasodifiy" guruh vakillaridir.

Ta'limning bugungi ahvoriga qayg`uradiganlar va uni inqirozdan qutqaruvchi kuch texnologiyalashtirish, deb qaraydigan "qisman ijodkor" guruhiga mansub tadqiqotchilar.

Bu guruh a'zolari texnologiyalashtirishni ob'ektiv jarayon, deb hisoblaydilar va yangi sifatiy muammolarni echish uchun ta'limni evolyutsion jarayonga ko`tarish shartlaridan biri ekanligini e'tirof etgan holda ijod qilmoqdalar. Ular "ilmiy" guruhni tashkil etadilar.

1.2. TA'LIM JARAYONIGA TEXNOLOGIK YONDASHUV TAMOYILLARI

Ta'limni "texnologik" yo`nalishda qurishning umumiy mezoni uning aniq va puxta o`ylangan maqsadga yo`naltirilganligidadir. Mazkur holatda asosiy (umumiy) hamda juz'iy maqsadlarni amalga oshirish uun muayyan qonuniyat, jarayon, tizim va unga mos amallar majmui mavjud bo`lishi taqozo etiladi. Pedagogik texnologiyaning vositaviy yo`naltirilganligi uning keng imkoniyatlarini ochib beradi. Bu o`rinda ta'limning tashkiliy jihatlari, avvaldan, go`yoki tashqaridan belgilangan maqsadlarga erishish usuli sifatida qaraladi. Mos ravishda amalga oshirilishi talab etiladigan jarayonlar mohiyatini tahlil etish, ularni saralash o`quv faoliyati mazmunini hisobga olmagan holda yo`lga qo`yiladi.

"Pedagogik texnologiya" doirasida aniqlanib olinuvchi maqsadlarning empirik tahliligina beriladi. Ta'lim maqsadlari borasida olib borilgan tahlil empirik tavsifda "texnologik" ishlanmalarning didaktik jihatdan to`laqonligi bo`lmasligini ko`rsatadi. Umumiy didaktik maqsadlarning "texnik" deduksiyasi "pedagogik texnologiya"ning didaktik imkoniyatlarini ko`rsatuvchi muhim jihat hisoblanadi.

Ta'lim maqsadlarining tahliliy bayonidan tashqari muayyan o`quv jarayoni uchun ta'lim uslublarini tanlashning muhim sharti sifatida talabalarning bilim darajalarini oldindan tashhishlash, ularning ko`nikma va malakalarini mavjud me'yoriy talablar bilan taqqoslash e'tirof etiladi.


Ta'lim jarayonining borishi talabalarning belgilangan maqsad yo`lida harakat qilishlarini uzluksiz nazorat qilishni ko`zda tutadi. Mazkur jarayon texnologik ta'lim tizimining yuqori darajali imkoniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik texnologiya ta'lim maqsadiga tashkiliy-uslubiy vositalar yordamida erishish mumkinligini ifodalaydi. Agar texnologik tizimlarda asosiy e'tibor bilimlarni uzatish va talabalar tomonidan o`zlashtirilgan bilimlar darajasini aniqlash maqsadida nazoratni yo`lga qo`yish borasidagi harakatlar tizimini ishlab chiqishga yo`naltirilgan bo`lsa, uslublar majmuasini tanlash asosan empirik asosda amalga oshiriladi.

Texnologik yondashuvning yana bir xususiyati bo`lgan davriy ketma-ketlik pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini yoritishga xizmat qiladi va rejalashtirilgan standart natijalarga erishish imkonini beradi.

Ta'limning to`laligicha standartlashtirishga yo`naltirilganligi texnologik yondashuvga xos bo`lib, u didaktikada ta'limning asosiy jihatlardan biri sifatida e'tirof etiluvchi va keyingi yillarda butun jahon pedagogikasining tadqiqot ob'ektiga aylangan o`qituvchi hamda talaba o`rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonini loyihalashga texnologik yondashuv quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo`ladi (shakl).



1-shakl. Texnologik yondashuv asosida o`quv jarayonini loyihalash bosqichlari.

Bosqichlar ketma-ketligining mohiyati o`qituvchi harakatlarining davriy, takrorlanuvchanligini ifodalaydi. Bosqichlarning bir-biriga muvofiq ravishda ketma-ket kelishi o`qituvchi harakatining muayyan maqsad, aniq nazorat usullari hamda ta'lim shakli asosida bir necha marotaba takrorlanib borishi hisobiga nihoyasiga etkazilishini anglatadi.

Bunday yondashuv ta'lim samaradorligiga erishish, ta'lim jarayonining mazmunini, talabaga ilmiy bilimlarni turli vositalar yordamida etkazib berishni nazarda tutadi. Umumpedagogik tamoyil nuqtai nazaridan ta'lim natijasi samarali ravishda o`zlashtiriladigan bilim, o`qituvchi va talabalarning birgalikdagi tadqiqotchilik faoliyati, bu borada orttirilgan tajriba hamda talabalarda ahloqiy-hissiy sifatlarning shakllanganligi bilan belgilanadi.

Ta'lim maqsadlari, baholash mezonlari hamda ta'limiy sharoitlarni takroriy hosil qilish asosida tarbiyaviy faoliyat jarayoniga ham pedagogik texnologiyalarni samarali tadbiq etish mumkin. Shu tarzda pedagogik texnologiyaning asl mohiyati namoyon bo`ladi, shuningdek, o`quv va tarbiyaviy faoliyat o`rtasidagi tafovut barham topadi. Ta'lim texnologiyasi ta'lim maqsadlarini aniqlashtirish, yaxlit jarayonni qismlarga ajratish, ta'lim natijalarini standartlashtirish, ta'lim jarayonidagi samarali teskari aloqa, avtomatlashtirish imkoniyatlarini takomillashtirish kabi muhim ta'limiy muammolarni ijobiy hal qilish imkonini beradi. Mazkur muammolarni hal etishda mavjud pedagogik (avtomatlashgan va avtomashmagan) tajribani inobatga olish, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo`lish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiyaning rivojlanish istiqbollari uning nazariy asoslarini tanqidiy ravishda tahlil qilish, ta'lim jarayoniga nisbatan samarali yondashuvning qaror topishi hisobiga ta'minlanadi. Ya'ni, ma'lum vaqt oralig`ida pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini o`zgartirish bilan birga uning "muammo maydoni"ni ham o`zgartirish mumkin bo`ladi.


Ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish bir qator didaktik vazifalarni ijobiy hal etishni taqozo qiladi. Chunonchi, didaktik maqsadlar ro`yxatini ishlab

chiqish, ularga muvofiq ravishda ta'lim jarayonini loyihalash, ta'lim jarayonini loyihalashda yaxlit jarayon hamda uning bosqichlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, talabalar tomonidan ijtimoiy tajribaning to'laqonli o'zlashtirilishi, barcha talabalar bilim, ko'nikma va malakalari darajalarining tenglashuviga erishish va hokazolar.

Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limni rivojlantiruvchi tamoyillariga asoslangan bo'lib, talaba shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilmog'i lozim. Pedagogik texnologiya nazariyasining markazida ta'lim jarayonining rahbari, ayni vaqtda, ushbu jarayonning ham sub'ekti, ham ob'ekti bo'lgan o'qituvchi va talabalar turadilar. Shunday ekan, ushbu sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, ularning bir-birlariga nisbatan ko'rsatadigan aks ta'sirlari eng zamonaviy talablarga javob bera olishi zarur. Buning uchun o'qituvchi, eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan qo'yiluvchi talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo'llari, talabani aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, talaba shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va kelishmovchiliklarni birgalikda bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishonchlilik muhitini hosil qilish, talaba faoliyatini aniq va to'g'ri baholashga imkon beruvchi uslublar bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari va ularning mohiyatini bilish mazkur jarayon borasida aniq tasavvurga ega bo'lishimizga imkon yaratadi.

Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo'lishi bilan birga, quyidagi aynan o'zigagina xos bo'lgan tamoyillarga ham egadir (2-shakl).



2-shakl. Pedagogik texnologiya tamoyillari.

Bir butunlik, yaxlitlik tamoyili. Ushbu tamoyil ikki jihatni o'zida aks ettiradi:

Ta'lim, tarbiya hamda shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi;

Pedagogik texnologiyaning muayyan, qat'iy tizimga egaligi, "tizimlilik" tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum o'quv fanini o'qitish jarayoniga, ham umumiy ta'lim jarayoniga xoslikni anglatadi.

Asoslilik (fundamentlik) tamoyili. Mazkur tamoyil fanlarning o'rganish ob'ekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko'ra turli yo'nalish (blok)larga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi. O'quv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlatirilgan. Har bir

o`quv fani uning uchun “yadro”, “o`zak” sanaluvchi ma'lumot (axborot)larga ega bo`lib, ushbu ma'lumot (axborot)lar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o`rganilishi, aniq mutaxassislik bo`yicha mustaqil bilim olish, o`zlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yo`lida tayanch tushunchalar bo`lib xizmat qiladi.

Bunday mohiyatli yondashuv ma'lum yo`nalish bo`yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik xususiyatidan foydalanish imkonini ham beradi. O`quv fanlarining muayyan yo`nalishlar tarzda birlashtirilishi shaxs xotirasiga nisbatan zo`riqishni kamaytiradi, shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

XX asrning 80-yillarida ta'lim jarayonini tashkil etish

Talabalarga mavjud fanlar sohalari bo`yicha oz-ozdan ma'lumot (bilim) berishdan iborat deb talqin etilgan bo`lsa,

90-yillarda ushbu jarayonning tashkil etilishi

O`zlashtirilgan bilimlar negizida muayyan, aniq fan bo`yicha yangi

mohiyatli yondashuv asoslantirishning muhim omili sanaladi. U, shuningdek, tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlarni umumlashtirish tarzidagi sinergetik yondashuvni ham ko`zda tutadi.

Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili. Mazkur tamoyil olmon pedagogi A.Disterveg tomonidan XIX asrda iste'molga kiritilgan bo`lib, bugungi kunga qadar ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan. Madaniyatni anglash tamoyili talabalarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta'lim berilishini nazarda tutadi. O`tgan asrda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi etakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e'tirof etilgan bo`lsa, bugungi kunda o`qituvchining bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo`lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo`lga kiritib bo`lmasligi barchaga ayon. Mazkur o`rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimedia vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e'tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda biz mutaxassislarning

“soha (yoki yo`nalish)larning o`ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq vazifalarni hal etishga ulgurishlari hamda ma'lumdagi yutuqlarga erisha olishlari”

ga erisha olishimiz lozim.

Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili. Tilga olingan har ikki tushuncha ham lug`atijihatdan (yunoncha “humanus” – insoniylik, “humanitas” – insoniyat), bir o`zakka ega bo`lsa-da, ularning har biri o`ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Insonparvarlashtirish ta'lim muassasalarida o`rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, insoniylashtirish tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Boshqacha aytganda, insonparvarlashtirish –bu inson va jamiyat o`rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr - qimmatini, sha'ni,

or – nomusi huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bo'lsa, insoniyashtirish “barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun” degan g'oya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda har bir o'qituvchi ushbu tamoyilga qat'iy amal qilishi lozim yoki o'z mutaxassisligiga oid muammolarni hal etishda uning jamiyat manfaatlari bilan uyg'un bo'lishiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Endilikda pedagogik talabalar faoliyatini avtoritar (yakka hokimlik) tarzida boshqarmay, balki ta'limiy hamkorlik g'oyalarga sodiqlik asosida ta'lim jarayonini insoniyashtirishda tamoyilga amal qilinishini ta'minlaydi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

O'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi:

- 1. ta'lim muassasalarining har bir o'qituvchisi o'z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim;*
- 2. o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko'radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, u ta'lim jarayonini tadqiq etadi.*

O'qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va talabalarni bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

Ta'limning uzluksizligi tamoyili. Mazkur tamoyil talabalarning kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsning butun umri uchun asqotishi mumkin bo'lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o'n yil mobaynida o'zgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil o'qituvchining o'z faoliyatida mustaqil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog etakchiligini ta'minlagan ta'limdan talabalarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.


Faoliyatli yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bog'liqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma'noda izohlanadi:

- A. talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar;*
- B. ular tomonidan o'zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar.*

Bilimlar faoliyat yuritish jarayonidagina mustahkamlanadi, shu sababli talabalarda nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tatbiqigi ega bo'lmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari, ya'ni, dastlabki qoidalari ana shulardan iborat. Ularga amal qilgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirib borishi, talabalarning aqliy va ahloqiy sifatlarni egallashlari, shuningdek, ularda shaxsiy tajribalarning hosil bo'lishiga zamin yaratadi.

U yoki bu ta'lim texnologiyasining tanlanishi rejalashtirilgan darsda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish nazarda tutilganligiga bog'liqdir. Yuqorida qayd qilinganidek, ta'lim texnologiyasi doirasida yangi o'quv materialini o'zlashtirishning quyidagi darajalari mavjud:




Boshlang`ich va algoritmik xarakterdagi darajalar samarali bilim va ko`nikmalarni aniqlash uchun mezon vazifasini o`taydi. O`zlashtirishning ushbu darajalarini aniqlashga yordam beruvchi texnologik jarayonni ijrochi texnologiya deb atash mumkin. O`quv materialini esda saqlab qolish hamda ko`nikmalarni hosil qilishga yo`naltirilgan faoliyat darajasi talabalarning mahsuldor va natijaviy faoliyatlarini uyg`unlashtirishni talab qiladi. Mazkur holat o`quv faoliyatini tashkil etishga muammoli rivojlantiruvchi texnologiyaning tatbiq etilishi bilan amalga oshadi. Ushbu texnologiya asosida ta'lim jarayonini tashkil etish talabalarni o`quv materialini referatlashtirish, ularning mashg`ulotlarda o`z ma'ruzalari bilan qatnashish, munozara hamda ishchanlik o`yinlarida faol ishtirok etishga o`rgatishi lozim.

O`quv faoliyati izlanuvchan, evristik xarakter kasb etganda,

Yuqori darajadagi muammoli, muammoli-rivojlantiruvchi ta'lim, vaziyatlarni tahlil qiluvchi topshiriqlar, mustaqil ishlar, muammoli xarakterdagi topshiriqlar, ishchan o`yinlar kabi shakllardan foydalanish zarur.

O`zlashtirishning mazkur darajasini ifoda etuvchi texnologik jarayon evristik texnologiya deb ataladi.


Ta'lim jarayonining didaktik mohiyati quyidagi pedagogik texnologiyalarni ajratishga imkon beradi:




Ta'lim-tarbiya jarayoni butun mashg'ulot davomida talaba faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda uyg'otib borish maqsadini ko'zda tutadi. O'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talabalarni tezkorlik bilan o'quv yoki o'quv ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, etarli darajada tushunarli bo'lmagan yoki aniq natija ko'zlanmagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib keladi.

Bunday holatlar ko'p hollarda o'qituvchining talabaga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishiga zamin yaratadi hamda bu holat talabaning ortiqcha hissiyotlarga berilishi, o'quv faoliyatiga undovchi rag'batning pasayishi, o'qishdan bezishi hamda o'quv predmeti va o'qituvchiga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi va talaba orasidagi munosabat insonparvarlik mezonlari asosida tashkil etilib, noxush hissiyotlarni bartaraf etishga yo'naltirilishi lozim. O'qituvchi bilan talaba orasidagi munosabat erishilgan yutuqlardan zavqlanish, o'quv faoliyatiga nisbatan chanqoqlik bilan intilish hamda birgalikdagi ijodiy muloqotga chorlashi kerak. Bu esa pedagogik ta'sirning yuzaga kelishi uchun zarur bo'lgan o'zaro aloqa vositasi – "ko'prik"ni hosil qiladi. Ta'lim jarayonida talaba shaxsiga nisbatan hurmatsizlik bilan yondashilganda ko'zda tutilgan talabchanlikka, ayniqsa, ongli intizomni o'rnatishga erishish mumkin emas.

Boshqa bir tomondan olib qaraganda, pedagogik munosabatning tarkibiy qismi bo'lgan muloqot (kommunikativ faoliyat)ni quyidagi shakllarda uyushtirish mumkin:



Ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishda o'qituvchi va talaba orasidagi o'zaro munosabat va muloqotning bir necha turlari (stillari) mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:



Shakl. O`qituvchi va talabalar o`rtasidagi munosabat turlari.

O`quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya o`qituvchilarning talabalarga muloqot asosida ta'sir etish yillarini ham o`z ichiga oladi. Keng tarqalgan uslub yoki muloqot ta'sirlari quyidagilardan iborat: ishontirish, isbotli natijalarga asoslanish, bevosita hamda bilvosita ta'sir, o`z-o`zini tarbiyalash va o`zaro ta'sir uslublari.

Pedagogik texnologiyani o`quv jarayoniga faol tatbiq etish hisobiga ta'lim jarayonining rag`bati (motivatsiyasi) kuchaytirilishi mumkin. Ma'lumki, tayyor holda olingan bilimlar, odatda, ularni amaliyotda qo`llashni qiyinlashtiradi, bu ayniqsa, aniq masalalarni echishda namoyon bo`ladi. Shuning uchun bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishda talabalarning bevosita faoliyat ko`rsatishlari talab etiladi. Bu muammoning echimi boshqaruvga asoslangan pedagogik texnologiyaning qo`llanishi bilan bog`liqdir.

Pedagogik texnologiya turlarini tanlash shakllanayotgan bilim, ko`nikma va malakalar, tashkil etilayotgan darslar shakli va qo`llanilayotgan uslublar hamda uslubik usullarning xususiyatiga bog`liq. Masalan, talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o`quv materiallariga tanqidiy yondashish ko`nikmasini shakllantirish hamda mahsuldor faoliyat turlarini tashkil etish bilan bir qatorda ularni rivojlantirish uchun darsning an'anaviy shakllari (uyg`unlashtirilgan darslar) bilan birgalikda konferensiya darsi, ishchan o`yin darslari, integrallashtirilgan (ikki komponentli) darslardan foydalanish lozim. Mazkur vaziyatda ta'lim uslublari ta'lim maqsadi bilan mutanosib (adekvat) bo`lishi kerak. Chunonchi, bilimlarni turli vaziyatlarda qo`llashga yo`naltirilgan topshiriqlar, yangi sharoitda faoliyat ko`rsatishga undovchi topshiriqlarni bajarish, o`zlashtirilgan bilimlar asosida sxemalar tuzish, ularni tasniflash, qiyoslash, izchil tizimga solish, umumlashtirish va boshqalar.

Etarli darajadagi rag`bat (motivatsiya) hamda talabalar faoliyatini tashkil etish bilan ham ko`zlangan natijalarga erishish kafolatlanmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining didaktik nuqtai nazardan takomillashuvi faqatgina, ushbu jarayonni tashkil etish va boshqarish yo`llarini to`g`ri tanlash bilan ta'minlanadi. Pedagogik texnologiyani boshqarish o`zida ikki yo`nalishni mujassamlashtiradi:

Faoliyatni boshqarish; talabalar jamoasini boshqarish.

Muayyan pedagogik texnologiyani tanlash o'zgaruvchan dars holatining o'zgarishiga imkon beradi hamda faoliyat maqsadiga qarab amalga oshiriladi. Shuningdek, variantli tarzda dars holatini o'zgartirish choralari ko'rishni taqozo qiladi. Bu esa, o'z navbatida, bilish jarayonini boshqarishga qo'yilayotgan talab, shuningdek, o'zlashtirish, muloqot qilish, faoliyat ko'rsatish bosqichlarining xususiyati bilan bog'liqdir.

1.3. TA'LIM JARAYONIGA TEXNOLOGIK YONDASHUVLAR

O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida jamiyatning potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, kuchli intellektual va ma'naviy salohiyatni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda. Fuqarolik jamiyatini barpo etish kontsepsiyasi bevosita ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni loyihalash va pedagogik amaliyotga tatbiq etish bilan uzviy bog'liqdir.

Respublikamiz Prezidenti Oliy Majlisning XIY sessiyasida "yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni nazorat ostiga olish zarur"ligini alohida ta'kidladilar. Bugun olimlar va o'qituvchilar ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga astoydil kirishishlari shart va ular bu ishga mas'uldirlar. Bu sohaga yaqin xorijiy davlatlarda ham e'tibor kuchaytirilmogda. Quyida rossiyalik olimlar tomonidan taklif etilgan yangi pedagogik texnologiya loyihalari bilan tanishasiz.

Aksiomatik yondashuv (Monoxov V.M.). Bu yondashuv asosida yotuvchi asosiy g'oya: pedagogik texnologiyalarni loyihalash va yaratish didaktik aksiomalar tizimi talablariga tayanishi kerak.

Muallifning fikricha, pedagogika fani azal-azaldan aksiomalardan foydalanib keladi. Ma'lumki, isbot talab qilinmaydigan holat aksioma deyiladi. Bunday holatlarni pedagogik jarayonda ko'plab uchratish mumkin: sinf-dars tizimi, 45 minutlik dars, mavzuli reja va boshqa.

Keyingi yillarda biz ta'lim fazosini standartlashtirish jarayonining guvohi bo'layapmiz. Bu ish ancha murakkab va bajaruvchilar uchun kutilmagan holat bo'ldi. Ta'lim standartlarining yuzaga kelishi mavjud vaziyatni birmuncha qiyinlashtirib yubordi, chunki standartning shartsiz bajarilishini kafolatlaydigan va pedagogik amaliyotga joriy etiladigan texnologiyalar ishlab chiqilmagan edi. Har bir talaba ta'lim standarti darajasiga erishishi uchun o'quv yurtlaridagi mavjud an'anaviy uslublar o'rniga yangi pedagogik qurollar zarur bo'ladi. O'quv jarayoni loyihasini texnologiya darajasiga chiqarish va bu loyiha joriy etilishi o'qituvchini yuqori malakali mutaxassisga aylantirish bilan birgalikda o'rganuvchining mavqeini ham kuchaytiradi va ijodiy hamkorlikning yangi ufqlarini ochadi. Endi o'qituvchi loyiha muallifi bo'lib oladi, bu esa yangi vazifadir.

Muallif aksiomalar tizimini uch guruhga ajratadi. Birinchisi – pedagogik texnologiyalarni bir butun ta'limiy kenglikka qo'shish aksiomalari, ikkinchisi – o'quv jarayonini modellashtirish aksiomalari, uchinchisi – o'quv jarayonini me'yorlash aksiomalari. O'z navbatida ularning har biri o'zida uchtadan aksiomalarni birlashtiradi.

Birinchisi (A1) – pedagogik texnologiyaning ta'lim makoniga talab qo'yish aksiomasi; A2 – pedagogik texnologiyaning "o'qituvchi" tizimiga moslik aksiomasi; A3 – pedagogik texnologiyaning predmet uslubi tizimiga nisbatan universallik aksiomasi.

Ikkinchi guruhga (A4) pedagogik texnologiya asosini tashkil etuvchi o'quv jarayoni modelini loyihalash aksiomasi kiritiladi. Bu axborotli model quyidagi parametrlar topshiriqlar yordamida tavsiflanadi:

– parametr (maqsadga joizlik) o'quv-tarbiyaviy jarayonning umumiy maqsad va yo'nalishini mikromaqsadlar tizimi ko'rinishida ifoda etadi.

– parametr (tashxis) mikromaqsadlarga erishish yoki erishmaslik dalili to'g'risida boshqaruv axborotlarni mujassamlashtiradi.

–parametr (miqdorli o`lchov) talabalarning mustaqil faoliyati xususiyatlari, xarakteri va hajmi haqida tashxisning muvaffaqiyatli o`tishini kafolatlash uchun etarli bo`lgan mazmunli va sonli axborotlar beradi.

– parametr (mantiqiy tuzilma) bu o`qituvchining uslubiy fikrlarini o`quv jarayonining yaxlit va mantiqan ko`rsatmali modeliga aylantirish bosqichini e`tiborga oladi va o`qituvchi mahoratining yuksak darajasini belgilab beradi. Bu faoliyat shunchalik o`quv jarayonining mantiqiy tuzilmasi fotografiyasi emas, balki maxsus shakllangan ishi maydon bo`lib, unda barcha elementlar texnologik qonuniyatlar asosida ifodalanadi va ma`lum muolajalar yordamida etarlicha muqobillashtiriladi.

–parametr (tuzatish) pedagogik yaroqsizlik, ya'ni tashxisdan o`tmagan talabalar haqida va tuzatishning uslubiy yo`llari to`g`risidagi axborotlarni tasvirlaydi.

Shuningdek, ikkinchi guruhga (A5) o`quv jarayoni modelining tashkil etuvchi ko`rsatkichlari tizimi yaxlitligi va takrorlanuvchanligi aksiomasi ham kiritiladi.

O`quv jarayoni texnologiyalashtirish ob'ekti har qanday predmetning o`quv mavzusi bo`lishi kerak, uning hajmi esa qat`iyanligi bilan ajralib turadi: minimum – 6-8 dars, maksimum – 22-24 dars. Ana shu mavzu loyihasida bo`lajak o`quv jarayoni yuqorida nomlangan beshta parametr yordamida yaxlit beriladi va aynan shu o`quv mavzusi har qaysi predmet bo`yicha o`quv jarayonini loyihalashga imkon beradigan bir xildagi muolajalar ko`rinishida texnologiyalashtirish va loyihalashning takrorlanuvchanligini ta'minlaydi.

Ikkinchi guruh tarkibiga kiradigan yana bir aksioma (A6) – bu o`quv jarayonining axborotli modelini texnologiyalashtirishdir. V.M.Monaxov tajribasida bir mavzu doirasida beshta parametrlarni o`zida mujassamlashtirgan o`quv jarayoni loyihasining texnologik xaritalari yaratilgan. Texnologiya o`qituvchini loyihalash muolajalari tizimi bilan qurollantirsa, texnologik xaritalar o`quv mavzusi bo`yicha o`quv jarayoni loyihasining pasporti sifatida kerak bo`ladi.

Muallif uchinchi guruh aksiomalarini (o`quv jarayoni loyihasini me'yorlash) pedagogik texnologiya mavjudligining asosiy mahsuloti sifatida tavsiflaydi. O`qituvchining kasbiy faoliyatini texnologiyalashtirish aksiomasi (A7) kasbiy faoliyatning quyidagi innovatsion komponentlariga tegishli:

- o`quv jarayoni loyihasining pedagogik g`oyalarini butun bir o`quv yili uchun o`qituvchi tomonidan o`z xususiy uslubiy tajribasiga, o`quv dasturi mazmuniga va davlat ta'lim standarti talablariga tayangan holda mikromaqsadlar ketma-ketligi ko`rinishida ifodalashning kasbiy ko`nikmasi. Boshqacha qilib aytganda, bu – standart talablarini mikromaqsadlar tiliga o`tkazishning texnologik muammosidir, mikromaqsad esa talabalarning bilish va rivojlanish zinapoyasidir. Bu komponent bevosita an'anaviy o`quv mavzularini qaytadan tuzish bilan bog`liqdir.

Texnologik xaritani loyihalash kasbiy ko`nikmasi. Bu jarayon pedagogik mahorat cho`qqisi hisoblanadi, sababi o`qituvchi bo`lajak o`quv jarayonini oldindan ko`ra biladi, o`z g`oyalarini texnologik xaritada qoidali tarzda tasvirlaydi. Ta'kidlash joizki, bu kasbiy ko`nikma etarlicha murakkab, ko`p bosqichli, o`z mohiyatiga ko`ra integrativ bo`lib o`qituvchidan yaxshi rivojlangan refleks qobiliyatni talab etadi;

Darsning axborotli xaritasini konstruksiyalash kasbiy ko`nikmasi yoki bu xaritalar yig`indisi har bir o`quv mavzusi uchun bo`lajak o`quv jarayonining aniqlashtirilgan loyihasi hisoblanadi;

Ikki pedagogik ob'ektni taqqoslash kasbiy ko`nikmasi: texnologik xaritalar ko`rinishidagi o`quv jarayoni loyihasi va ma`lum sinfdan real o`quv jarayoni natijalari bilan birgalikda darsning axborotli xaritalar tizimi. Taqqoslashni aniq ko`rsatkichlar va texnologik muolajalar bo`yicha o`tkazish kerak. Qiyoslash muolajalari asosida tashxislash natijasiga ko`ra mazkur sinfdan o`quv-tarbiyaviy faoliyat rivojini qayd etuvi maxsus monitoring yotadi.

O`quv jarayoni loyihasini me'yorlash aksiomasining (A8) mohiyati quyidagilardan iborat: o`quv jarayoni loyihasi texnologik xarita tarzda tayyor bo`lgach, bevosita zaruriy hisoblar amalga oshirilishi kerak: o`quv vaqti, didaktik axborotlar hajmi, uni o`zlashtirish

tezligi, shu o`quv mavzusi chegarasida talabalarni rivojlantirishning uslubiy dasturiga ajratiladigan vaqt va boshqa.

Nihoyat, uchinchi guruhning so`nggi aksiomasi shunday ifodalanadi: yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik texnologiyaning maqbul ishlashi uchun ishchi maydonni shakllantirish aksiomasi (A9). Har qanday pedagogik texnologiya bu aksioma talablarini bir vaqtning o`zida talabalarning ham o`quv, ham umumiy yuklamasi bo`yicha qanoatlantirishi shart; darsning axborotli xaritasi ichida yosh jihatidan o`z guruhi doirasida talabalarni o`quv-bilish faoliyatlarining asosiy turlari me`yorini saqlash zarur. Bu bevosita psixologik-pedagogik va fizio-gigienik me`yorlarni saqlashga ham tegishlidir.

Shunday qilib, V.M.Monaxov tomonidan taklif etilgan to`qqizta didaktik aksiomalar bilan kitobxonlar tanish bo`ldi. Olimning ta`kidlashicha, bu aksiomalarni bajarish va ularga rioya qilish bevosita pedagogik texnologiyalarni loyihalash va ta`lim kengligiga asosli ravishda tatbiq etish imkonini tug`diradi.

Muammoli-modulli o`qitish texnologiyasi (Choshanov M.A.). Modulli ta`lim dastlab AQSh, Olmoniya, Angliya kabi rivojlangan davlatlarning oliy o`quv yurtlari va malaka oshirish tizimida qo`llanila boshlandi va katta shov-shuvlarga sabab bo`ldi.

Biroq, modulli ta`lim o`zining etarlicha "puxta"ligiga qaramasdan mazmun jihatdan ham, yosh jihatdan ham (u 60-yillarda vujudga kelgan)hanuzgacha tortishuvlarga, fikrlar qarama-qarshiligiga uchrab kelyapti: Qator xorijiy mualliflar (V.Goldshmidt, M.Goldshmidt va boshqa) modul deganda aniq o`rnatilgan maqsadga erishishga yordamlashadigan yaxlit o`quv faoliyatini shakllantirishni tushunishadi. Modul mohiyati o`quv materialining avtonom bo`laklarini qurish to`g`risidagi birmuncha farqliroq fikr D.J.Rassel tomonidan aytili. P.A.Yutsyavichenening ko`rsatishicha, "modulli o`qitish mohiyati shundan iboratki, o`rganuvchi qisman yoki to`liq mustaqil ravishda unga taklif etilayotgan o`zida harakatlarning maqsadli dasturini, axborotlar bankini va qo`yilgan didaktik maqsadga erishish bo`yicha uslubik ko`rsatmani qamrab olgan individual o`quv dasturi bilan ishlashishi mumkin. Bunda pedagogning vazifasi axborotli nazorat qilishdan tortib maslahatchi-koordinatsiyalovchilikka qadar turlanishdan iborat bo`ladi".

Professor M.A.Choshanov ham keyingi fikrga qo`shilgan holda fan rivojining hozirgi bosqichida modullilik tushunchasi uslubologik mazmunga ega bo`layotganligini alohida ta`kidlaydi.

Muammoli o`qitishning didaktik tizimida birmuncha to`liq tadqiq qilingan tashkil etuvchisi muammoli ta`lim hisoblanadi. U o`rganuvchilarning fikrlash faoliyatini birmuncha faollashtirishga, ularda muammoning echimiga yondashishni shakllantirishga va nihoyat – ijodiy tafakkurni rivojlantirishga samarali ta`sir ko`rsatadi. Bu ta`sir intellektual qiyinlashuvning maxsus vaziyatlarini – muammoli vaziyatlar va ularning echimlarini tuzish bilan ta`minlanadi. Uning samarasi to`g`risida A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov, I.Ya.Lerner kabi yirik olimlar o`z nazariyalarini yaratdilar.

Muammoli-modulli o`qitish texnologiyasida asosiy diqqat xatoliklarni izlab topish maqsadiga muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o`rganuvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jihatlariga qaratiladi. U o`zida xatoliklarning uch asosiy guruhini birlashtiradi: gnoseologik, uslubiy va o`quv. Gnoseologik xatolar bilishga oid xarakterdagi xatolar hisoblanib, bilimlar evolyutsiyasi jarayonida olimlar tomonidan yo`l qo`yiladi. Tadqiqotlarning ko`rsatishicha, o`quv jarayonida gnoseologik xatolardan foydalanish talabalarda borliqni tanqidiy mushohadalash, tahlil qilish va o`z xatolarini to`g`rilash ko`nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, o`quv predmeti va fanga bo`lgan munosabatlarini o`zgartiradi: o`rganilayotgan fan mazmuni o`rganuvchilar oldida tayyor haqiqatlar yig`indisi sifatida emas, balki g`oyalar va odamlarning tarixiy dramasi tarzda, ijtimoiy maktab va yo`nalishlar kurashi tarzda, odat va yangilanish qarama-qarshiligi sifatida turadi.

Uslubiy xatolar o`quv xatolari bilan o`zaro bog`liq: o`rganish xatolari ko`p hollarda – o`qitish xatolari natijasidir. O`quv xatolari maxsus tashxislovchi jadvallarda har bir muammoli modul uchun guruhlanadi va keyinchalik kuli ta`sir etuvi vositalar sifatida

foydalaniladi. Agar an'anaviy o'qitishda bilmaslikdan bilishga o'tish standartli vaziyatlarni qo'llash bilan chegaralansa, muammoli-modulli o'qitishda talabning yaqindan rivojlanishi doirasi yangi bilimlarni yuzaki o'zlashtirish va noto'g'ri qo'llashga olib keladigan tanqidiy vaziyatlar – xatolar sohasigacha kengaytiriladi. Bunday sharoitda bilmaslikdan bilishga o'tish sohasi o'rganuvi uchun asosiy muammoga aylanmaydi, balki tabiiy zveno bo'lib qoladi, ularning dolzarb rivojlanish mintaqasiga aylanadi.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining etakchi sifat belgisi – bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim muhim sanalgani kabi hozir ham, kelajakda ham pedagogik texnologiya samaradorligi ko'p jihatdan uning ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgaruvchan sharoitga moslasha olish va zudlik bilan ta'sir etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Egiluvchanlik tuzilmali, mazmunli va texnologik holda bo'lishi mumkin.

Tuzilmali egiluvchanlik qator holatlar bilan ta'minlanadi: muammoli-modul tuzilmasining safarbarligi, muammoli-modulli dastur pog'onali, egiluvchan jadval loyihasining mavjudligi va ko'p vazifali o'quv xonalarining jihozlanganlik imkoniyatlari va boshqa.

Mazmunli egiluvchanlik birinchi navbatda ta'lim mazmunini tabaqalashtirish va integratsiyalash imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Bunday imkoniyatning o'zi taklif etilayotgan texnologiyada o'quv materialining blok va modulli prinsip asosida saralanish evaziga vujudga keladi.

Texnologik egiluvchanlik muammoli-modulli ta'lim jarayonining quyidagi jihati bilan ta'minlanadi: o'qitish uslublarining variantligi, nazorat va baholash tizimining egiluvchanligi, talabalarining o'quv-bilish faoliyatini yakka tartibda tashkil etish va boshqa.

M.A.Choshanovning ta'kidlashicha, kasb maktablarida o'qitish jarayonini muammoli-modulli asosga o'tkazish quyidagilarga imkon beradi:

- o'quv materialining muammoli modullarini guruhlash yo'li bilan kursni to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlarini ishlab chiqishni ta'minlaydigan dialektik birlikda integratsiyalash va tabaqalashtirishni amalga oshirish;

- bilim darajasiga bog'liq holda talaba (talaba)larning u yoki bu muammoli-modulli dastur variantini mustaqil tanlashi va ularning dastur bo'ylab individual siljish sur'atini ta'minlanishi;

- muammoli modullardan pedagogik dasturli vositalarni yaratish uchun stsenariyalar sifatida foydalanish;

- talabalarining bilish faoliyatini boshqarishda o'qituvchi ishida maslahatchi-koordinatsiyalovchi vazifaga urg'uni ko'chirish;

- o'quv materialini bayon qilish tezligi va o'zlashtirish darajasiga putur etkazmagan holda o'qitish usublari va shakllari majmuasiga moslik asosida kursni qisqartirish;

Shu bilan birgalikda opponenlar tomonidan muammoli-modulli o'qitishning qator kamchiliklari ko'rsatildi, ular: ta'lim jarayonining bo'laklarga bo'linganligi, ya'ni talabalarining mustaqil ishlari salmog'i birmuncha katta; o'quv predmetining yaxlitligi va mantiqini inkor etish; talaba (talaba)larni tayyorlash torligi: o'qitish kursining bog'liq bo'lmagan muammolar yoki masalalar seriyasiga qadar qisqarishi; umumlashmagan ziyon etkazadigan xususiy, aniq ko'nikmalarnigina shakllantirishi; muammoli modullarni tayyorlash va mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlikning ko'p mehnat talab qilishi.

Sanab o'tilgan kamchiliklarning ko'pligi modulli o'qitish texnologiyasini o'rnatish bosqichida birmuncha aniq sezilsa-da, asta-sekinlik bilan dazmollanib boradi. Shuni eslatish joizki, u yoki bu texnologiyani "toza" holda joriy etish mumkin emas. Xohlaymizmi yoki yo'qmi, o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy yondashuviga va mavjud didaktik jarayonga tayanishga to'g'ri keladi.

Ta'lim mazmunini muammoli-modulli loyihalash quyidagi asosiy tayanchlardan iborat bo'ladi:

- bilish faoliyatining fundamental uslublari doirasida kursni joy-joyiga qo'yib tuzish. Misol uchun, matematika kursida bunday uslublarga matematik modellashtirish, aksiomatik, koordinat, vektorli, mantiqiy uslublar kiradi;

- tayanch muammoli modullarning mazmunini aniqlash. Saralashning muhim sharti bilish faoliyati uslublarining printsipli mazmuni hisoblanib, umummadaniy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu o'qitishning tayanch mazmuniga oid quyidagi mezonlarni hisobga olishni taqozo etadi;

- fundamental, uzviylik, uzluksizlik va ta'limni insonparvarlashtirish;

- echimi bilish faoliyati uslublarining mosini qo'llashni talab etadigan yirik kasbiy-amaliy muammolarni turli guruh kasblarining o'ziga xosligini hisobga olib ajratish;

- ixtisosli va darajali tabaqalashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan o'zgaruvchan modullarning mazmunini tanlash va hajmini aniqlash, shuningdek, muammoli-modulli dasturlarning turli-to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlari bo'yicha talabalarning yakka tartibda olg'a siljishi uchun sharoitlar yaratish.

Muammoli modullarni qo'llash ko'lamini quyidagi tartibotlarni qamrab oladi: tizimli, avtonom va integratsiyalashgan. Tizimli tartibot muammoli modullaridan mustaqil kurs doirasida foydalanishni taqozo etadi. Avtonom-ma'lumot moduli sifatida boshqa fanlar doirasida, integratsiyalangan – integrativ kurs doirasida qo'llanishi lozim.


Shunday qilib, muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: talabalarning talab etilgan darajada bilimdonligiga erishish uchun o'quv materialini mazmunini yirik tuzilmalash, unga mos holda o'qitish uslublari, vositalari va shakllarini tanlash amalga oshirilib, ular talabalarni to'liq, qisqargan yoki chuqurlashtirilgan o'qitish variantlarini mustaqil tanlash va o'tishga yo'naltiriladi. Muallifning ta'kidlashicha, muammoli-modulli o'qitish texnologiyasi bo'yicha 70 foiz o'quv materialini yuqori darajada o'zlashtirilgan ($K(0,75)$) va aniq o'rnatilgan kompetentlik darajani kafolatli ta'minlangan.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi. Bu texnologiyaning mohiyatini chuqurroq anglash uchun akademik Bepalko V.P. tomonidan yaratilgan “didaktik jarayonni boshqarish tizimining rivojlanish spirali”ni tahlil qilish kerak bo'ladi (2-chizma).

“Yo'naltirilgan axborotli jarayon” (YAJ) koordinatasiga ta'limni tashkil etishning yakka tartibli shakli joylashtirildi. “Tarqoq axborotli jarayon” (TAJ) koordinatasiga esa – guruhli. Tabiiyki, mashg'ulotning guruh shakli yakka tartibdagi shaklidan iborat bo'ladi, keyin esa rivojlanishning birmuncha yuqori darajasida yakka tartibli shakliga yana qaytadi. Demak, “maslahatchi” tizim tabiiy holda “guruhli ta'lim”ga ko'tariladi, uning sezilarli darajadagi kuchsizligi “repetitor” tizimini vujudga keltiradi.

Repetitorlik “kichik guruh” o'lchamigacha kengayish sabablarini tasavvur qilish qiyin emas.

XVI asrga kelib nashr ishlaridagi inqilobiy o'zgarishlar ta'lim tizimida “darsliklar”ni qo'llash imkoniyatini tug'dirdi. Kommunikatsiya sohasidagi texnikaviy taraqqiyot esa sinf va xonadonlarni axborotli uzatish vositalari bilan jihozladi. Kompyuterlarning vujudga kelishi didaktik jarayonni yopiq boshqarish imkoniyatlarini tug'dirsa-da, talabalarning individual qobiliyatlarini hisobga olmadi (dasturli ta'lim). Shaxsiy kompyuterlar texnikasining rivojlanishi psixologik-pedagogik ta'lim muammosini keltirib chiqarmoqda.



2-chizma. Didaktik jarayon tizimlarining rivojlanish spirali.

Akademik V.P.Bespalko tizim 8 ta – yakka tartibli bilish faoliyatini dasturli boshqarishga alohida urg'u berib “xalq ta'limi tizimining barcha bo'g'inlarida rivojlanishning yangi bosqichini ifodalaydi va talabalarning sog'lig'iga zarar etkazmagan holda zaruriy musbat siljishlarga olib keladi” deb ta'kidlaydi. O'zida aniq o'rnatilgan didaktik masalalar va pedagogik texnologiyalarni mujassamlashtirgan pedagogik tizim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, deb ta'riflanadi. Bu tizimdagi didaktik masalalarga qisqacha izoh beriladi. Hozirda mavjud yakkalashgan pedagogik tizimlar – umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar, oliy ta'lim – shaxsni tarbiyalash, ta'lim berish va takomillashtirishning yagona tizimiga aylanashi kerak. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim barcha turdagi ta'limlarni yo'nalishlar bo'yicha integratsiyalashni taqozo etadi. Ta'limning birinchi bosqichidayoq (maktabgacha ta'lim) bolaning ehtimolli shaxsiy yo'nalishlari psixologik-pedagogik kuzatishlar yordamida aniqlanadi, ma'lum faoliyat turiga mos qobiliyatlari, yangi iste'dod nishonalari belgilab olinadi. Bu tabaqalashtirish psixologik sohasi bo'lib, afsuski, kam tadqiq qilingan va kam ishlangan. Shu bilan birgalikda hammaga yaxshi ma'lumki, shaxsning maxsus iste'dod nishonalari erta aniqlash va uni muntazam rivojlantirib borish vaqti soati bilan o'z mevasini beradi – yangi g'oya va faoliyat uslublarini haqiqiy yaratuvchisi tarbiyalanadi.

Shaxsning rivojlanish dasturi aslida har bir insonga tug'ma holda beriladi, biroq uni amalga oshirish, afsuski, hozirgi ta'lim tizimida qaralmagan. Mana, nima uchun dunyoda qiynalغانlar va jinoyatchilar mavjud. Shu boisdan bolaning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga kirishishi uni ixtisosli kasbga tayyorlashning boshlanishi bo'lishi kerak va barcha o'quv dasturlari mazmuni ma'lum faoliyat turining ijodkorini tarbiyalash masalasiga bo'syunishi kerak.

Yuqorida ta'kidlanganlar eskirgan, biroq mustahkam marksistik tezis-texnik taraqqiyot davomida inson mehnatining o'zgarib turishi, shu boisdan keng umumiy va politexnik ta'limni bunday o'zgarishlar asosi sifatida joriy etish zaruratiga qarama-qarshidir. Bugun hayotning o'zi guvohlik berayapti: texnik taraqqiyot mumkin qadar yuqori kasbiy mahorat darajasini taqozo etadi. Unga erishish uchun bir mehnat turi doirasida faoliyatni maqsadli yo'naltirish va chuqur mutaxassislashtirishni talab etayapti, aksincha, doimiy uni almashtirishni emas.

Tashxislanuvchan tarzda o`rnatilgan maqsadli pedagogik tizim ochiq bo`lishi kerak, ya'ni o`rganishning har qanday bosqichida o`quvi undan chiqib ketishi yoki qayta kirib kelishi mumkin. Bu esa aniqlangan maqsadga mos holda ta'lim mazmunini ilmiy asosda saralashga imkon beradi. Ta'lim mazmunini jamlashda talabalarni asossiz yuklayu tashlash va o`qituvchi o`qitishda inqirozga xos hodisalarni yuzaga chiqaruvchi oldingi amorf va ixtiyoriylik uni aniq loyihalash, o`qish yillari bo`yicha taqsimlash va dozalashga joy bo`shatib beradi. O`quv fanlari tizimi ortiqcha bo`lmasdan qat'iy uzviylikka va belgilangan mahorat bosqichida o`zlashtirishga olib keladi.

O`quv materialining belgisi modellarida asosida ta'limni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov). Donetsk ochiq universiteti professori V.F.Shatalov o`qitishni jadallashtirish texnologiyasini ishlab chiqdi va amaliyotga tadbiiq etib an'anaviy sinf-dars o`qitish usulining ochilmagan qirralarini ko`rsatib berdi.

Bu texnologiyada ta'lim maqsadlari:

- Bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish.
- Har qanday individual qobiliyatli bolalarning barchasini o`qitish.
- Tezlashgan o`qitish (umumiy o`rta ta'lim hajmini 9 yilda o`qitish).

Printsiplari:

Ko`p marta takrorlash, majburiy bosqichli nazorat, yirik bloklar bilan o`rganish; faoliyatning dinamik yaxlitligi, tayanch signallar, harakatlarning mo`ljalli asoslari;

- shaxsga yo`naltirilgan yondashuv;
- insonparvarlik (barcha bolalar iqtidorli);
- o`quv vaziyatlarining tafovutsizligi, tuzatish uchun istiqbollarning ochiqligi, muvaffaqiyatning o`sib borishi;
- ta'lim va tarbiyaning uzviyligi.

Mazmunning o`ziga xos jihatlari:

- o`quv materialini yirik hajmda kiritiladi.
- material bloklar bo`yicha joylashtiriladi.
- o`quv materialini tayanch sxema-konspekt ko`rinishida rasmiylashtiriladi.

V.F.Shatalov texnologiyasining asosiy g`oyasi: darsda talabalarning yalpi faolligini ta'minlaydigan o`quv faoliyati tizimi yaratiladi. O`quv faoliyatining andozasi asosida tayanch konspektlari (signallari) – o`quv materialining kodlashtirilgan ko`rsatmali chizmalari yotadi.

Tayanch – mo`ljalli harakatlar asosi, bolaning ichki aqliy faoliyatini tashqi ko`rinishda tashkil etish usuli.

Tayanch signal – assotsiativ ramz (belgi, so`z, rasm, chizma, shakl va boshqa) bo`lib, ma'lum fikriy ma'noni bildiradi.

Tayanch konspekt - qisqacha shartli matn ko`rinishidagi tayanchli signallar tizimi bo`lib, yaxlit o`quv materialining o`zaro bog`liq elementlari sifatida tushunchalar, faktlar, g`oyalar tizimining ko`rsatmali konstruktsiyasini o`zida aks ettiradi.


Bu texnologiyada o`qituvchi mehnati asosiy mavqeni egallaydi va bu mehnatga talabalar ayrim hollardagina (nazorat, maslahat, yordam) jalb etiladi. Tayanch signallari yordamida o`qitish jarayoni qator bosqichlardan iborat:

Sinfda o`qitish: mavzu o`qituvchi tomonidan odatdagidek sinf doskasi yonida (bo`r, latta yordamida) tushuntiriladi, keyin esa tayanch konspektlar asosida mavzuni tushuntirish takrorlanadi. Talabalarning o`z konspektlari ustida mustaqil ishlashi ta'minlanadi va frontal tarzda bilimlar mustahkamlanadi.

Uyda mustaqil ishlash: tayanch konspektidagi kodlashtirilgan o`quv materiallarini o`quvi darslik yordamida oydinlashtiriladi.

Nazorat va baholash: mavzu bo`yicha talabaning bilim, ko`nikma va malakalari tashqi nazorat va o`z-o`zini nazorat qilish yordamida tekshiriladi. Nazorat shakli : tayanch konspekti bo`yicha yozma, mustaqil ish, og`zaki so`rov; juftli o`zaro nazorat, guruhli o`zaro nazorat.

V.F.Shatalov bo`yicha o`qitishni tashkil etish texnologiyasi



Muallifning boy tajribasi – “tayanch signallari varaqasi” asosida tashkil etilgan o`quv-bilish faoliyati talabalarning yuqori ko`rsatkichga erishishini shubhasiz ta'minlaydi. Talaba olgan baho bilimlarni hisobga olish varaqasida qayd etiladi va u hojlagan vaqtda qayta tayyorlanib o`z bahosini tuzatishi mumkin. Demak, bu texnologiya ochiq istiqbolli prinsipni ta'minlagan holda o`qituvchi va talaba o`rtasida nizo tuq`dirmaydi.

O`quv maqsadlarining taksonomiyasi (B.Blum). Ta'lim uchlik – “maqsad-jarayon (vosita)-natija”ning o`rta bo`g`iniga o`zbekistonlik va rossiyalik olimlar tomonidan ko`proq e'tibor qaratishgan bo`lsa, amerikalik pedagoglar bu zanjirning ikki chetidagi xalqasini chuqur tadqiq qilishganlar. Ayniqsa Chikago universiteti professori Benjamin Blum rahbarligida o`tgan asrning 50-yillarida “o`quv maqsadi taksonomiyasi” konsepsiyasining yaratilishi klassik tadqiqot sifatida e'tirof etildi va u bugun ham o`zining qiymatini yo`qotgani yo`q.

“Taksonomiya” atamasi yunoncha taxis (tartib bo`yicha joylashuv) va nomos (qonun) so`zlaridan iborat bo`lib, ob'ektlarni o`zaro aloqadorlik asosida tasniflash va tizimlashtirish ma'nosini anglatadi. Blum taksonomiyasi o`quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy-qadriyatli), psixomotor (harakat)li.

Kognitiv soha. Bunga mavjud bilimlarni qayta tafakkurlash, ularni o`zlashtirilgan harakat usullari bilan chag`ishtirish, ya'ni g`oyalar tuzish zaruratiga tegishli o`quv maqsadlari kiritiladi. Ular o`qituvchining kundalik faoliyati uchun kerakli hisoblanib, o`quv dasturi va darsliklarda o`z ifodasini topadi.

Affektiv soha. Bunga qiziqish va moyilliklarni shakllantirish, u yoki bu sezgilar ta'sirida hayajonlanish, munosabatni shakllantirish, uni faoliyat davomida anglash va yuzaga chiqarish maqsadlari kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, ob'ektiv borliqqa bo`lgan hayajonli-shaxsiy munosabatlarni shakllantirish maqsadlari bu sohaning asosini tashkil etadi.

Psixomotorli soha. Bunga u yoki bu motorli, manipulyativ faoliyat turlarini, asab muskullarni markazlashtirish ko`nikmalarini shakllantirish bilan bog`liq maqsadlar kiritiladi. Misol uchun, mehnat ta'limi dasturida belgilangan o`quv maqsadlari aynan shu sohaga tegishlidir.

“Blum taksonomiyasi” quyidagi to`rt prinsip asosida qurilgan:

Amaliy: o`qituvchi-amaliyotchi uchun taksonomiya samarali qurol bo`lishi, o`zida maqsadlar ierarxiyasini ifodalashi lozim;

Psixologik: taksonomiya zamonaviy psixologiya fani yutuqlariga tayanishi lozim;

Mantiqiy: taksonomiya mantiqiy tugallangan va muayyan ichki tuzilmaga ega bo`lishi lozim;

Ob'ektivlik: maqsadlar ierarxiyasi ular qadriyatlari ierarxiyasini belgilamaydi.

Ana shu prinsiplarga tayanilgan holda o`quv faoliyatining yuqorida ta'kidlangan turlari bo`yicha o`quv maqsadlari taksonomiyasi yaratildi.

Ma'lumki, pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati oldindan o'rnatilgan maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayonini loyihalash va amalga oshirishdir. Ta'limni maqsadga ketma-ket yo'naltirish asosi tezkor teskari aloqa hisoblanib o'quv jarayonining barcha bo'g'inlariga kirib boradi. Shu boisdan ta'limga texnologiya yondashuvda quyidagilar ajralib turadi:

- Maqsadlarni o'rnatish va ularni mumkin qadar aniqlashtirish (bu bosqichga o'qituvchi birinchi darajali ahamiyat beradi);


- Butun o'qish jarayonini o'quv maqsadlariga qat'iy qaratish;

- O'quv maqsadlarini mo'ljallashni va shu tariqa natijalarni qo'lga kiritishga butun o'quv davomiyligini yo'naltirish;

- Joriy natijalarni baholash, o'rnatilgan maqsadlarga erishish borasida o'qitish jarayonini tuzatish;

Natijalarni yakuniy baholash.

O'quv jarayonini texnologik jihatdan qurishning mohiyati aniq belgilangan maqsadlar sari harakatlanish hisoblanadi. Quyida bugungi kunda birmuncha keng tarqalgan B.Blum tizimining kognitiv sohasi bo'yicha o'quv maqsadlari taksonomiyasini keltiramiz. U o'zida olti toifadagi asosiy o'quv maqsadlarini qamrab oladi: bilish, anglash, qo'llash, tahlil, sintez va baholash.



Bilish. Bu daraja o'quv materiallarining asosiy unsurlarini eslash, tushunib etish va qayta tiklashga yo'naltirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Bu darajadagi maqsadga uch toifadagi bilimlarni shakllantirishni kiritish mumkin:

- Xususiyatli bilimlar (masalan, muddatlar, faktlar, sonlar, atamalar, nomlar);

- Mulohazali bilimlar (masalan, yo'nalishlar, mezonlar, sinflar, toifalar);

- Abstrakt bilimlar (masalan, printsiplar, aksiomalar, teoremlar, umumlashmalar, nazariyalar, tuzilmalar).

- Anglash. Bu daraja o'zida uch toifadagi o'quv maqsadlarini mujassamlashtiradi:

Ko'chirish (yangi vaziyatlarni o'rganishda bilimlarni qo'llash ko'nikmasi);

interpretatsiya (masalan, hisoblashda qo'lga kiritilgan natijani og'zaki tushuntirib berish);

ekstropolatsiya (masalan, egallangan bilimlarni o'xshash vaziyatlarga ko'chirish ko'nikmasi).

Qo'llash. Bu daraja, asosan, talabada amaliy ko'nikmalarni shakllantirishini nazarda tutadi (bilimlarni amaliyotga qo'llash qobiliyati):

- tushunchalarni qo'llash;

- algoritmlarni qo'llash;

- nazariyalarni qo'llash va hokazo.

Tahlil. Bu daraja o'quv maqsadlarini quyidagi toifalar bo'yicha aniqlashtiradi:

unsurlar tahlili (butunni qismlarga bo'lish, ajratish);

munosabatlar tahlili (unsurlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish);

tamoyillar tahlili (unsurlarni tizimlashtirish).

Sintezlash. Bu daraja "alohida qismlardan yaxlitini tuzish" ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha o'quv maqsadlarini belgilaydi:

g'oyalar sintezi (masalan, muammo echimi bo'yicha bildirilgan g'oyalarning umumlashishi);

mulohazalar sintezi (masalan, shaxs sifatlarining shakllanganlik darajalari, mezonlarini ishlab chiqish);

tuzilma sintezi (masalan, ob'ekt ko'rinishi chizmasi, koordinata yordamida funktsiyani ifodalash).

Baholash. Bu toifa muayyan maqsad uchun u yoki bu materiallarning ahamiyatini baholash ko'nikmalarini nazarda tutadi. Talaba mulohazasi aniq mezonlarga tayanishi zarur. Baholash sifatida ichki bilish va ishonchlar (argumentlash, mantiq) hamda tashqi mezonlar (standartlar, qoida, me'yorlar)ga tayaniladi. Mezonlarni talabaning o'zi aniqlashi yoki tashqi tomondan berilishi mumkin. Bu daraja oldingi toifalar bo'yicha o'quv natijalariga erishganligi to'g'risida xulosa chiqaradi

Shunday qilib, har qanday o'quv predmeti maqsadlarini ushbu taksonomiya asosida aniqlashtirish mumkin. Buning uchun o'quv predmetlarining mavzu (bo'lim)lari vertikal ustunga yoziladi. Talabalarning aqliy faoliyati turlari esa gorizontaal ustunda qayd etiladi. Ular mantiqiy asosda ma'lum chorrahada kesishadi va joriy o'quv maqsadiga erishish darajasi (bilish, aniqlash, qo'llash, tahlil) aniqlashtiriladi.

Maxsus adabiyotlarda "Blum taksonomiya"ning turlicha modifikatsiyalari keltiriladi. Gap shundaki, bu taksonomiya shubhasiz, afzalliklarga ega bo'lishi bilan ba'zi bir nuqsonlardan holi emas. Shuning uchun, kognitiv sohasi bo'yicha o'quv maqsadlarini tizimlashtirishga da'vo qilayotgan taksonomiya bilish tuzilmasining qabullash, tafakkur, xotira kabi darajalarida qaralmagan, ba'zi bir o'quv maqsadlari aqliy faoliyatning turlicha darajalarida takrorlanadi. Shunga qaramasdan o'quv maqsadlarini fan mavzulari bo'yicha tasniflash o'qituvchiga o'z xususiy pedagogik faoliyatini to'g'ri belgilashga, talabalarning nafaqat ichki holatini ifodalashga, balki tashqi namoyon bo'lishiga, shaxs sifatida shakllanishiga katta imkoniyat tug'diradi.

Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta'minlovchi o'qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan o'qituvchi faoliyatining mazmuni uslub, shakl va vositalar asosida shakllantiriladi.

O'qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish konsepsiyasiga asoslanib, uni tashkil etish quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslanishi mumkin: dastlab o'quv materiali mazmunining tavsifi, uni o'rganishdan ko'zlangan maqsad (o'zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo'yilish shartlari tahlil etiladi. So'ngra, o'qitishning mos ravishdagi uslublari hamda talabalarning bilish faoliyatini boshqarish tizimi ishlab chiqiladi. Shu asosda o'qitish vositalarining ro'yxati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan uslub va ta'lim vositalarining yaxlit tizimi tashkiliy shakllar bilan uyg'unlashtiriladi, ya'ni, muayyan texnologiya ishlab chiqiladi.

Umumlashgan pedagogik texnologiyalar ma'lum psixo-pedagogik asoslarda qurilgan "sintetik nazariya" sifatida qaraladi.

Tatbiqiy pedagogik texnologiyalar oldindan rejalashtirilgan natijaga erishishga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarlik jarayonini loyihalash muammosini uslubiy jihatdan hal etishga yo'naltiriladi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar tadbiqiy asosini shaxsiy faoliyatli yondashuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Ayni vaqtda ta'lim muassasalari amaliyotida quyidagi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda:

Pedagogik texnologiya turlari

Pedagogik texnologiya turi	Maqsadi	Mohiyati	Mexanizmi
Muammoli o`qitish	Talabalarning bilish faolligi hamda ijodiy mustaqilligini oshirish	Talabalarga ularda bilimlarni o`zlashtirish borasidagi faollikni yuzaga keltirishga xizmat qiluvchi masalalarni maqsadga muvofiq, ketma-ket berib borish	Tadqiqotchilik uslublari, bilish faoliyatiga yo`naltirilgan masalalarni echish
Mujassamlash tirilgan ta'lim	Shaxsning his qilish xususiyatlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan ta'lim jarayoni tuzilmashini yaratish	Mashg`ulotlarni bloklarga biriktirish hisobiga fanlarni chuqur o`zlashtirishga erishish	Talabalar ish qobiliyati dinamikasini hisobga oluvchi ta'lim uslublari
Modul ta'limi	Ta'lim mazmunini shaxsning individual ehtiyojlari va uning bazaviy tayyorgarligi darajasida muvofiqlashtirish	Talabalarning individual o`quv dasturi asosida mustaqil ishlashlari	Muammoli yondashuvni amalga oshirishning individual maromi
Rivojlantiruvchi ta'lim	Shaxs va uning qobiliyatlarini rivojlantirish	O`quv jarayonini shaxsning ichki imkoniyatlari va ularni ro`yobga chiqarishga yo`naltirish	Talabalar faoliyatini turli sohalarga yo`naltirish
Differensial lashgan ta'lim	Talabalarning layoqati, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun qulay sharoitlarni yaratish	Turli o`zlashtirish darajalari bo`yicha majburiy me'yor (standart) dan kam bo`lmagan hajmdagi dastur materialini o`zlashtirish	Individual ta'lim uslublari
Faol o`qitish (majmuaviy ta'lim)	Talabalar faolligini yuzaga keltirish	Bo`lajak kasbiy faoliyatning predmetli va	Faol o`qitish uslublari

		ijtimoiy mazmunini modellashirish	
O`yin texnologiyalari	Bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishning shaxsiy faoliyat tavsifida bo`lishini ta'minlash	O`quv axborotlarini qayta ishlash va o`zlashtirishga yo`naltirilgan mustaqil bilish faoliyati	Talabalarni ijodiy faoliyatga jalb etishning o`yin uslublari

Shunday qilib, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o`zida uslublar tizimi, ta'lim uslubiy usullari, maqsad, vositalari, o`qituvchi va talabalarning birgalikda faoliyat ko`rsatish imkoniyatlari hamda yakuniy natijalarga erishish borasidagi majmuani mujassamlashtiradi.

II-qism. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO`LLASH USLUB VA VOSITALARI

Pedagogik texnologiyani amalga oshirishda ta'lim mazmuniga tayangan holda ma'lum uslubi va vositalari qo`llaniladi.

Pedagogik texnologiya uslublarining qo`llanilishi quyidagi omillar:

O`qitishning faol uslublari;
 Pedagogik texnika va pedagogik ishlab chiqarish asoslari;
 Ta'lim jarayonini individuallashtirish;
 Ilg`or pedagogik tizimlarni loyihalash;
 Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish;
 Modulli ta'lim texnologiyalari;
 Pedagogikada innovatsion jarayonlar;
 Pedagogik mehnatni tashkil etishning ilmiy asoslari;
 Pedagogik test va standartlar;
 O`quvilar va o`quv muassasalari reytingi (shuningdek, o`quv rejalari va dasturlari);
 Ishbilarmonlik o`yinlari;
 O`yin texnikasi va madaniyati uslublariga bog`liq.

Pedagogik ensiklopediyada izohlanishicha,

Ta'lim uslubi
O`qituvchi va talabaning ta'lim mazmunini o`zlashtirishga qaratilgan o`zaro aloqador, ma'lum ketma-ketlikdagi faoliyati tizimidir.
Ularning o`ziga xos belgilri quyidagilardir:
Maqsad, o`quv jarayoni sub'ektining o`quv materialini o`zlashtirish usullari va shakllari.

Ta'limning faol uslublariga xos ilk belgilar XYI asrlarda namoyon bo'lgan. Buyuk gumanistlar F.Rable, M.Manten, F.Bekonlar bilimlarni tayyor holda uzatilgan ma'lumotlar asosida emas, balki

Amaliy tajriba, munozara

Orqali mustaqil o'zlashtirishni tavsiya etganlar.

Keyinchalik ta'lim usublari Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalotstsi, F.A.Disterveg, Dj.Dyui, K.D.Ushinskiy, P.F.Kaerovlar tomonidan rivojlantirilgan. Ular didaktikada ilg'or, ya'ni,

Bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish

g'oyasini ilmiy jihatdan asoslaganlar.

P.P.Blonskiy, S.T.Shatskiy, P.M.Kerjentsev, A.K.Gastov, M.M.Rubinshteyn va boshqalar esa ta'limning sust uslublarini inkor etib, ta'lim jarayonida faol uslublar

Tadqiqotchilik, amaliy, laboratoriya, evristik hamda mantiqiy uslublar

kabilarni qo'llashga da'vat etishgan.

Ta'lim jarayonida faol uslublarni qo'llash g'oyasi XIY asrda ilmiy asoslangan bo'lsada, u 1950 yillardagina

“uzluksiz ta'lim”

tushunchasining qo'llanilishi bilan o'zining amaliy ifodasiga ega bo'ldi. Bugungi kunda innovatsiyalardan

Muammoli va axborotli ma'ruza, vizual o'qitish (ikki nafar turli fan o'qituvchilar muayyan ketma-ketlikda bir mavzu bo'yicha darslarni tashkil etadilar) hamda matbuot konferensiyalaridan

foydalanish tajribasi asosida ish ko'rilmoqda.

Faol ta'lim uslublarining tadqiqotchilari (I.D.Zverev, M.I.Maxmutov, Yu.K.Babanski) ta'lim uslublarini quyidagi uch guruhga ajratadilar:

**Ta'lim uslublarining guruhlari:
OG`ZAKI USLUBLAR;
Ko`rgazmali uslublar;
Amaliy uslublar.**

Ta'lim usublari usublardan tarkib topadi. Ayni vaqtda pedagogikada quyidagi faol uslub va uslublar qo'llanilmoqda:

Mikrota'lim (o'quv materialini bo'limlarining kichik qismlarini ma'lum ketma-ketlik ishlab chiqarishga tatbiq etish). Mazkur ta'lim tarafdorlari ko'p qirralilikni dars kirish qismining muhim elementi sifatida tavsiya etadilar.

Ta'limning modul texnologiyasi (bayonning didaktik birligi va test). Didaktik birlikka qo'shish, ko'paytirish, konspektlashtirish, sana va so'zlarni esda saqlab qolish uslublari, test o'tkazish, optimallashtirish va boshqalar kiradi.

Mavzular mazmuniga muvofiq bilimlarni majmualash (birinchi dars – axborotli, ikkinchi dars – muammoli, uchinchi dars – amaliy, to'rtinchi dars – mustahkamlash (test o'tkazish tarzida).

Ilg'or vositalar yordamida o'quv matnlarini qismlarga bo'lib (muayyan ketma-ketlikda, uzluksiz) o'rganish.

Ishbilarmonlik o'yinlari (masalan, “labirint”, “Muammolar maydoni” va boshqalar)ni qo'llash.

Muammoli ta'lim uslublari (o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlar hajmini aniqlash – muammolar tahlili – fanlararo aloqalarni o'rganish – muammolarni mustaqil hal etishga tayyorlash).

Mavjud muammolarni hal etuvchi vaziyatli tahlil (“vaziyat-tasvir”, “vaziyat-baho”, “vaziyat-muammo”, “vaziyat-mashq”).

Pedagogik trening (tez o'qish va yozish mashqi, fikrlash texnikasi, grafologiya, mimika, taqlid va pantomimika uslublarini egallash).

Talabalar faoliyatini reyting asosida baholash.

Pedagogik kvalimetriya (talabani EHM vositasida testdan o'tkazish).

Dasturli ta'lim

O'quv predmetlari bo'yicha yaratilgan audiovizual kurs dasturlari asosidagi ta'lim.


Pedagog faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim vositalarini bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishlarda qo'llash imkonini beradi. Ayni vaqtda “Apparat-matnlar” tizimi (videokitoblar, o'quv diskleri, musiqali albomlar va boshqalar) dan ommaviy ravishda foydalanilmoqda.


Ta'lim loyihalarini yaratish pedagog-texnolog va uslubistlarning kasbiy mahoratlarini oshirishga yordam beradi. “Buyurma vosita uslub yondashuv ta'lim turi” tizimi kinoproektor, o'quv magnitofoni, radio va televidenie, lingofon xonasi, avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari, multimedia va gipermatnli ta'lim turlarining intellektual tizimi yordamida o'zlashtiriladi.

Yangi ta'lim turlarining shakllanish sabablari hamda ilg'or o'quv vositalarining samaradorligini o'rganish ular o'rtasida o'zaro birlik mavjudligini ko'rsatdi. Bu birlik mohiyati nuqtai nazaridan quyidagi mexanizmga asoslanadi:

So'nggi yillarda amaliyotda K.Kerr tomonidan tavsiya etilgan quyidagi faol ta'lim uslublari samarali qo'llanilmoqda:



Ta'limning yangi vositalari quyidagilardan iborat:



Demak, pedagogik texnologiyalar ta'lim vositalarining yangi avlodi va turlari sifatida namoyon bo`ladi.

Ta'lim muassasalarining ijtimoiy-iqtisodiy resurslari bir-biridan farq qiladi. Shu bois barcha ta'lim muassasalarida o`quv jarayoniga ilg`or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga bir vaqtda erishish mumkin emas. Bu yo`lda ijobiy natijalarni qo`lga kiritish quyidagi sharoitlarning mavjudligini taqozo etadi:

ishga yaroqli vositalar va noto`liq apparat qismlarini ta'mirlash;
 yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va turli fan yo`nalishlari bo`yicha yaratilgan o`quv matnlarini tarjima qilish qobiliyatiga ega bo`lgan mahoratli pedagog-texnologlarni tayyorlash;
 ta'limning texnik vositalaridan foydalanish jarayonida pedagoglar duch kelayotgan qiyinchiliklar, shuningdek, "faoliyatsiz fikrlash" sabablarini o`rganish va bartaraf etishga erishish.

K.R.Branson (AQShning Florida universitetidagi Pedagogik texnologiya markazi direktori) pedagogik texnologiya nazariyasi shakllanishining tarixiy asosini shunday belgilaydi: ibtidoiy jamoa tuzumining ilk davrlarida bilimlarni etkazib berishda og`zaki usullar keng qo`llanilgan. Bu usul quyidagi to`rt elementni o`zida mujassamlashtirgan:

Bilim – tajriba – o`qituvchi – talaba

Ushbu paradigma ta'limning individuallashtirilgan shakli deb nomlanadi.

Ta'limni juftli yoki guruhli shakllarda tashkil etish g`oyasi esa XII asrda ilgari surilgan bo`lib, XX asrning oxirida ushbu g`oya negizida quyidagi:

Bilim – tajriba – talaba

modeli shakllandi. Bu model mohiyatini yorituvchi paradigma guruhli deb nomlanib, u ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati doirasida o'z-o'zini anglash, vaqtning samarali o'tishiga erishish, qayta aloqa sifati va sonini orttirish, didaktik materiallar sifatini yaxshilash, o'z-o'zini boshqarish tizimini kengaytirish, rivojlangan ta'lim tizimini joriy etish, yangi kurslarni loyihalash, o'quv rejasi mazmunini takomillashtirish, ta'lim sub'ektlarining o'quv imkoniyatlarini orttirish, shuningdek, ular faoliyatini baholashda qulay vositalardan foydalanishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaga asoslangan yangi paradigmaning mohiyati interfaol ta'limni keng ko'lamda va mavjud imkoniyatlar asosida yo'lga qo'yishdan iborat. Unga ko'ra, har bir ta'lim oluvchi o'quv axborotlarini uch manba:

- o'qituvchi yordamida,
- ma'lumotlar bazasi (muayyan fan bo'yicha yoki o'quv doirasida) yordamida;
- talabalar guruhi (ular bilan o'zaro faoliyatni tashkil etish) yordamida egallaydi.

Pedagogik texnologiya modelida quyidagi paradigma aks etadi:

1. muammoni qo'yish;
2. kuzatish va tajriba asosida dalillar to'plash;
3. dalillarni sharhlash va ilmiy farazlarni ilgari surish;
4. testlar yordamida, nazariy g'oyalarni amaliyotga tadbiiq etish yo'li bilan ilmiy farazlarning haqqoniyligini tekshirish;
5. xulosa va tavsiyalar tayyorlash

Robert Tomasning fikricha (AQSh, Kaliforniya universiteti), pedagogik texnologiya elementlari orasidagi munosabat uni qo'llash sohasiga oid modelda ifodalanishi mumkin.

Pedagogik texnologiya mazmunida:

boshqaruv vazifasi (menejment);

joriy etish (rivojlanish);

ta'lim vositalarini ishlab chiqarish vazifalari aks etadi.

Olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar natijasida shahar maktablarida qishloq maktablariga nisbatan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash darajasi ancha yuqori ekanligiga guvoh bo'lindi.

Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni tashkil etishda yaxlit ta'lim yoki ma'lum ta'lim doirasida bilimlarni puxta loyihalashga sharoit yaratadi.


M.Eraut (M.Eraut-Oksford, 1985 yil) tomonidan yaratilgan o'nta tomndan iborat "Xalqaro pedagogik ensiklopediya"da quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiya kontsepsiya (paradigma)larining majmui taqdim etiladi:

Pedagogik texnologiya konsepsiyalarining amaliy ahamiyati

Rejalashtirish	O'zlashtirib olish va moslashish	Ta'limni rivojlantirish uchun
Tavsiflash va amaliyotda joriy etish	Ta'lim uchun ahamiyatsiz muhandislik qurilishlarida qo'llash (audiovizual ta'lim)	Zamonaviy pedagogik texnika va pedagogik amaliyot (o'qituvchi pedagog-texnolog sifatida)
Istiqbol amaliyotini oldindan ko'ra bilish	Yuqori zamonaviy apparatlarni keng qo'llash,	Tadqiqot va rivojlanishda yirik

	texnika va modellarni tashkil etish (pedagogik kelajak)	investitsiya natijalariga erishish (texnologik tadqiqot va amaliy fan)
--	---	--

Taqdim etilgan konseptual pedagogik texnologiya (paradigma) audiovizual ta'limning yangi modellari (dasturli, multimedial va b.sh.)ni qo'llashni targ'ib etadi. Tizimli yondashuv doirasida R.Xaynik quyidagi ikkita paradigmani taqdim etadi, ya'ni:



Dj.Bruner tomonidan ilgari surilgan paradigma mohiyati “Muayyan fan ma'lum bilimni etarli darajada to'liq shaklda ifoda etish mumkin”.

Bizning fikrimizcha, paradigma mohiyati talabning yoshi va imkoniyati murakkab bilimlar mazmunini tushunishi uchun etarli bo'ladi.

Pedagogik texnologiya tipologiyasi:

Ta'limning ochiq, masofali, global, hamkorlik, sirtqi, shaklli va shaklsiz, formativ va hokazoi kabi shakllaridan foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Ushbu shakllar rivojlantiruvchi, dasturli, muammoli, intensiv, algoritmlangan, kibernetik, kompyuterli, media ta'lim va boshqa uslublar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim muassasaidan tashqarida ochiq, masofali, bilvosita va global shakllardagi ta'lim tashkil etiladi.

Ochiq va masofali ta'lim (sirtqi varianti sifatida) oliy ma'lumotga ega bo'lishni xohlovchilarning istaklarini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ayni vaqtda Amerika, Angliya va Kanada davlatlarining ayrim universitetlarida “uydan chiqmasdan” tahsil olish va ta'limni yakunlaganligi to'g'risidagi diplomga ega bo'lish mumkin. An'anaviy sirtqi ta'limdan farqli ravishda bu ta'lim kompyuter xizmati (modem, ta'limiy videodastur, test va boshqalar)dan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda jahonning 30 ta mamlakatida joylashgan 700 dan ortiq universitet va kollejlarda masofaviy ta'limni tashkil etishda katta tajriba to'plangan.

Individuallashtirilgan ta'lim tabaqalashtirilgan ochiq, dasturli, masofaviy, avtomatlashtirilgan hamda modulli ta'lim shakllarida yo`lga qo`yilishi mumkin.

Masofaviy ta'lim ikkinchi mutaxassislik yoki uchinchi oliy ta'lim olishni xohlovchilar uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi.

Rossiyada masofaviy ta'lim markazi 1992 yil mayda RF oliy maktab qo`mitasi va Nyu-York shtati universiteti hamkorligida tashkil etildi.

Ochiq ta'lim yo`nalishlaridan biri muqobil ta'lim g`oyasidir. Ushbu tizim obrazini AQSh va Angliyada K.S.Maxmuryan tayyorlagan.

Tizim muqobil ravishda maktab va uy ta'limini olish o`rtasidagi farqlarni yoritadi.

Muqobil ta'limda quyidagi holatlar ilgari suriladi:

1. Erkin maktablar (ularda 30 nafar talaba, 2 nafar o`qituvchi ishtirok etadi, asosiy e'tibor tabaqalashtirilgan ta'limning tashkil etilishiga qaratiladi, o`quv fanlarining qaysi davrda va qanday o`qitilishini talabalarining o`zlari belgilaydilar.

2. "Ochiq maktab" (ta'lim uslubiyatiga shaklsiz yondashuv, o`quv materiallarining xilma xilligi, qiziqishga qarab darslarni tanlash).

3. "Devorsiz maktab" (ta'lim teatr, muzey, sud zali, ko`rgazma, laboratoriya hamda ishlab chiqarish ustaxonalarida tashkil etiladi, bilimlarni nazorat qilish esa ta'lim muassasasida amalga oshiriladi).

4. "Maktab ichida maktab" (asosiy o`quv yuklamasining ma'lum qismi hisobidan tashkil etilgan kichik yoki yo`ldosh maktablar).

5. Ta'lim markazlari (kasbiy, yoki mehnat) ta'limi, shuningdek, tabiiy fanlar (kimyo, fizika) mutaxassislari bo`yicha tashkil etilgan ta'lim muassasasi).

6. "Magnit maktab" (ta'lim sanoat korxonolari va oliy texnika ta'lim muassasalari hamkorligida belgilangan mutaxassisliklar bo`yicha tashkil etiladi).

7. "Ochiq universitet" (Angliyada 1969 yilda katta yoshdagilar uchun bakalavr darajasini berish maqsadida tashkil etilgan, ularda yoshi 21 dan katta bo`lgan shaxslar ta'lim oladilar).

8. "Erkin universitet" (AQSh va Angliyada XX asrning 60-yillarida tashkil etilgan bo`lib, unda istagan shaxs bepul ta'lim dasturi bo`yicha bilim oladi. Dasturga muvofiq ta'lim oluvchi imtihonlarga kelmasligi mumkin, biroq pedagogik ishlab chiqarish malakalarini egallashi shart. Ta'lim davri – malaka oshirish institutlarida bo`lgani kabi 6-8 hafta.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga ko`ra pedagogik texnologiya rivojlanishining ifoda etuvchi konseptual pedagogotexnologik g`oyalarini quyidagicha guruhlash mumkin:

Pedagogik texnologiya rivojlanishining konseptual pedagogotexnologik sxemasi

Pedagogik texnologiya rivojlanishining konseptual pedagogotexnologik sxemasi

№	Ta'lim vositalari	Ta'lim usullari	Ta'limga yondashuvlar	Ta'lim turlari
1.	Muvofiqlashtirilmagan	guruhli	tizimsiz	Og`zaki
2.	Muvofiqlashtirilgan, moslashtirilmagan	Juft guruhli	texnologik	audiovidualli
3.	Mashinalashtirilgan, moslashtirilgan	Individual guruhli	tizimli	dasturli
4.	Interfaol	Individual, avtomatlash tirilgan	ko`p qirrali	multimedia
5.	Intellektual	Individual, avtomatlash	giper matnli	Giper mediali

		tirilgan, ommaviy		
--	--	----------------------	--	--

2.1. MUAMMOLI O`QITISH TEXNOLOGIYASI

Hozirgi oliy maktabdagi samarador o`qitish texnologiyasi – bu muammoli o`qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o`qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o`qitish jarayonida talabani mustaqilligi o`qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o`sb boradi.

Hozirgi pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o`qitishning turli ta'rif va tavsiflari bor. Bizningcha, nisbatan to`liq va aniq ta'rif M.I.Maxmutov tomonidan berilgan bo`lib, unda muammoli o`qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan o`rgatish va dars berish usullarini qo`llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo`lgan qiziqish va talab) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o`qitishning mohiyatini o`qituvchi tomonidan talabalarning o`quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o`quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o`zlashtirish bo`yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o`zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, o`qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda ob'ektiv qonuniyatlari didaktik tamoyil – muammolikka tayanadi.

O`qitishning hozirgi jarayoni tahlili psixolog va pedagoglarning fikrlash muammoli vaziyat, kutilmagan xayrat va maxliyo bo`lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko`rsatadi. O`qitish sharoitida insonning o`sha psixik, emotsional va hissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o`ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o`ziga xos o`qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o`rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o`qitishdan muammoli vaziyat shunchaki “fikir yo`lidagi kutilmagan to`siq” bilan bog`langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o`zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog`liq bo`lavermasligini ta'kidlash o`rinli bo`ladi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog`lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo`lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlarildan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan ob'ekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo`lgan vazifa, masala bo`yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Shunday qilib, muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u talaba tanish bo`lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o`rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o`zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- talabaga notanish faktning mavjud bo`lishi;

- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko`rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

- muammoli vaziyatdan chiqa olish hamma vaqt muammoni, ya'ni nima noma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va echimini anglash bilan bog`langan.

Muammoli vaziyatning fikriy tahlil qiladigan bo`lsak, u avvalambor talabalarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U tabalani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so`z bilan ifodalash, ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o`rinda izchillik yorqin ko`rinadi: avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so`ng o`quv muammosi shakllanadi.

O`qitish amaliyotida boshqa variant – o`sha muammo tashqi ko`rishda muammoli vaziyat yuzaga kelishiga muvofiq kelganday bo`ladigan variant ham uchraydi. Faktlar, hukmlar nazariy qoidalar ziddiyatlari mazmunidagi, savollar ko`rinishidagi muammoning ifodasi odamda “nimaga” savoliga javob bo`ladigan muammoli vaziyatning mavjudligini aks ettiradi.

Muammo uchta tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular ma'lumni topishga yo`nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo`lgan o`quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilishi usullari hamda natijasi ham noma'lum bo`ladi, lekin talabalar o`zlaridagi avval egallangan bilim va ko`nikmalarga asoslanib kutilgan natija yoki echilish yo`lini ishlashga tushadi.

1-muammoli vaziyat. Har qanday harakat faoliyati uch bosqichda o`zlashtiriladi. Har bir bosqichda shunday usullar ajratib ko`rsatiladiki, ular yordamida mazkur bosqich vazifalari ko`proq samaradorlik bilan hal qilinadi. Harakat faoliyatlariga o`rgatishning boshlang`ich davrida konstruktiv mashq usuli keng qo`llaniladi. Ko`pincha shu bosqichda mashqlarning umumiy yig`indisini bilish bilan o`rgatishning belgilangan bosqichida foydalanish uchun ko`zda tutilgan muayyan mashqlar tarkibini bilmaslik orasida ziddiyat yuzaga keladi.

2-muammoli vaziyat. Harakat faoliyatlarini o`rgatish jarayonida ikkita asosiy usuliy yondashuv mavjudligi e'tirof etiladi:

1. harakat uzviy qismlarga bo`lib o`rganib, keyin bu qismlarni butun harakatga birlashtirish. Shunday yondashuvga mos usullarni “uzviy qismlarga ajratilgan – konstruktiv mashq usullari” deb ataladi;

2. hrakatni imkoni boricha butun holda ayrim detallarni tanlab ajratib olib o`rganish. Bunday yondashuvga xos bo`lgan usullarni qisqacha “butun mashq usullari” deb ataladi. Agar o`rganilayotgan harakat (yoki harakatlar yig`indisi) nisbatan mustaqil unsurlarga bo`linsa, bunda ularning xususiyatlari ko`p o`zgarmasa, unda birinchi yo`l tanlanadi. Agar butunni qismlarga ajratish bilan harakatning mohiyati o`zgarsa, ularning tuzilishi buzilsa, u holda ikkinchi yo`lga murojaat qilinadi. Butunning tuzilishi avval odatda harakatning asosiy mexanizmi o`zlashtirila borgani sayin alohida, nisbatan mustaqil detallar bilan birlashib, butun harakatning bajarilishi fonida takomillashadigan faoliyatlarni chiqarib tashlash hisobiga soddalashtiriladi.

3-muammoli vaziyat. Jismoniy tarbiyada standart mashq va o`zgaruvchan (variantli) mashq usullari mavjud. Bu usullar uzulksiz va intervalli yuklanma rejimida qo`llaniladi. Bu usullarning har biri jismoniy tarbiya jarayonida u yoki bu vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Diqqatingizga quyidagi muammoli vaziyat havola etiladi. Jismoniy mashqlar shartli mashg`ulotlarini o`tkazish jarayonida har bir usul uchun quyidagilarni navbati bilan shakllantirib olish lozim:

- standart uzulksiz mashq usulini qo`llash bilan bog`liq vazifa;
- standart – intervalli mashq usuli yordamida echilishi mumkin bo`lgan vazifa;
- o`zgaruvchan – uzulksiz mashq usulidan foydalanish bilan bog`liq vazifa;
- o`zgaruvchan – intervalli mashq usuli yordamida hal etilishi mumkin bo`lgan vazifa.

Shunday qilib, talabalar biladigan vazifa va uni mustaqil hal qilinish usuli o`quv muammosi bo`la olmaydi. Ikkinchidan, biror vazifaning echilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o`quv muammosi bo`la olmaydi.

O`quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:

Yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma'lumning qo`yilishi;

Talabalarda, noma'lumni topish yo`lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan muayyan bilim zahirasi bo`lishi.

O`quv muammosini echish jarayonida talabalar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning echilish usulini o`ylab topish yoki gipoteza qo`yish hamda gipotezani asoslashdir.

O`quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uning hal qilinishida bir bosqich bo`lib xizmat qiladi.

Muammoli o`qitish mashg`ulotlarini tashkil etish va o`tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o`qituvchi uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo`lishi talab qilinadi. O`qituvchi hech qachon talabalarga tayyor haqiqatni (echimni) berishi kerak emas, balki ularga, bilimlarni olishga turtki berishi, mashg`ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo`lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim bladi.

Muammoli o`qitish bilimlarni ongli va mustahkam o`zlashtirish, atrof-muhitga o`zining faol munosabatini belgilab olishda, talabalar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Muammoli o`qitishning tashkil etishning birinchi sharti o`quv axborotlarining takomillashib borish tizimidir.

Muammoli o`qitishning ikkinchi shartida muammoli o`qitish amalga oshiriladi va unda axborotning o`quv vazifasiga o`tkazilishi vaqtida uni echish usulini tanlash imkoniyati ko`zda tutiladi.

Muammoli o`qitishning uchinchi sharti ta'lim oluvchining sub'ektiv mavqei, ularning bilish maqsadlarini anglab etishi va qaror qabul qilishi, masalani hal qilish va natijani qo`lga kiritish uchun o`zlarining ihtiorida bo`lgan vositalarni baholay bilishidir.

Muammoli o`qitishga asoslangan o`quv mashg`ulotlarini o`tkazish uslubiyati unda qo`llanadigan uslublarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda: ijodiy, qisman – ijodiy yoki evristik, axborotlarni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli boshlash orqali bayon qilish asosiy uslublar hisoblanadi.

Ijodiy uslub ta'lim oluvchidagi uzoq vaqtni va maxsus sharoit yaratilishini talab qiladi.

Talabalarining ijodiy ishlari shakliy jihatdan rang-barangdir. Ular ma'ruza matnini tayyorlash va seminarga tayyorgarlik ko`rish, u yoki bu masalaning nazariy holatini (adabiyotlar bilan birma-bir ishlash, xujjatlarni arxivda o`rganish) o`rganish, ko`rgazmali qurollar, didaktik materiallar tayyorlash va boshqalardir.

Qisman ijodiy uslub murakkab muammoni bo`laklarga ajratib, uning qulay masalalarini bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo`llanadi va unda hal qilingan har bir bosqich (qadam) masalaning keyingi bosqichini echishda asos bo`lib xizmat qiladi. Bunda talabalar o`quv muammosining qo`yilishida, gipotezani tahmin qilish va isbotlashda faol qatnashadilar. Ularning faoliyati reproduktiv va ijodiy unsurlarini o`zida qamrab oladi. Bunda o`qitishning qidiruv (izlanish) suhbat, talabalarining javoblari va to`ldirishlariga qo`shimcha qilgan holda o`qituvchining bayoni, faktlarni kuzatish va umumlashtirish usullari qo`llaniladi. Bu hollarda talabalarining reproduktiv va qidiruv (izlanish) faoliyatining muvofiqligiga muhim ahamiyat kasb etadi. Ular biror bosqichdagi o`quv muammosining mustaqil hal qilinishidan, to` ulardan aksariyat echilgunga qadar kuchli o`zgarib turishi mumkin.

Mashg`ulotlarda ijodiy suhbatni qo`llash maqsadga muvofiq topiladi. Talabalar bunday suhbat jarayonida o`zlarida avvaldan mavjud bo`lgan bilimlari, ijodiy faoliyati tajribasiga asoslangan holda, o`qituvchi rahbarligida muammoni izlaydi va mustaqil ravishda uning echimini topadi. Talabalar o`z tashabbuslari bilan savollarga javob beradilar yoki o`z chiqishlarida turli mulohazalarni bildiradilar, muammoning echilishidagi o`z variantlarini

ilgari suradilar, hodisalar o`rtasidagi rang-barang aloqalarni qayd qiladilar, bahslashadilar, boshqalarning fikriga tanqidiy munosabat bildiradilar. Bu jarayonda o`qituvchining talabalarga yordam berish darajasi ularning mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rish darajasiga bog`liq bo`ladi.

Ijodiy suhbatga tayyorlashda o`qituvchining unga o`ta mas'uliyat bilan yondashishi talab qilinadi. O`qituvchi bunday suhbatga oldindan jiddiy tayyorgarlik ko`rishi lozim: avvaldan shunday savollar o`ylab topishi kerakki, ular talabaning u yoki bu hodisaning mohiyatini o`ylashga majbur etsin, suhbat yo`nalishi va gipotezaning ehtimol ko`rilgan variantlari va uning echilish yo`llarini bashorat qila olsin. O`qituvchi talabalarning umuman muammoni echish uchun etarli darajada tayyorgarlik ko`rib kelmasligini ham ko`zda tutishi va bunday vaqtda sodda va murakkablashtirib boruvchi qo`shimcha savollarni tayyorlab qo`yishi lozim, bunday savollar orqali talabalar ijodiy hal qilishi shart bo`lgan vazifalarni qismlarga ajratish ham zarur bo`ladi, ya'ni muammo kichik muammolarga bo`linadi va muammoli vazifa echiladi. O`qituvchi bunday vaziyatda vazminligini saqlashi, talabalarga tezroq yordam berish, kamchiligini tuzatish va yanglish fikr bildirganlarga tanbeh berishga shoshilmasligi, balki qo`shimcha savollar bilan o`zlarining hatosini anglashga va to`g`ri qaror qabul qilishga erishish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy xarakterdagi suhbat o`quv-tadqiqot ishlarining zaruriy bosqichi hisoblanadi. Unda talabalarning o`zida tadqiqot ishlari unsurlari mavjud bo`lgan qisman – ijodiy faoliyatning bajarilishini talab qiladigan muammoli xarakterdagi mantiqiy masalalar diqqatni jalb qiladi.

Materialni muammoli bayon qilish. Bunda tashabbus o`qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va tobora faollashtirib boriladi. O`qituvchi yangi materialni bayon qilishda uning echilishini o`zi ta'minlaydi. Bunda o`qituvchi ziddiyatlarni ta'kidlaydi, uni barchaga eshittirib muhokama qiladi, o`z mulohazalarini bildiradi, haqiqatni faktlar, mantiqiy isbotlar tizimi yordamida asoslaydi, o`qituvchi bu tadbirlarni muvafaqqiyatli amalga oshira olsa, talabalar uning fikrlari borishiga diqqat bilan qo`shilib boradi, muammolarning echilish oqimiga qo`shilib ketadi, birga fikr yuritadi, birga hayajonlanadi, shu tariqa mashg`ulotning qatnashchisiga aylanadi. Bunda o`qituvchi talabaning bilish jarayonini savollar berish, savolga savol berish yo`li bilan boshqaradi va shu orqali auditoriyadagi o`rganilayotgan materiallar bo`yicha ziddiyatlarga diqqatni jalb qiladi va talabalarni o`ylab fikr yuritishga majbur qiladi. O`qituvchi tushunilmagan savolni hal qilishidan oldinroq talabalar o`zlaricha o`z javoblarini tayyorlab qo`yadilar va uni ma'lum muddat o`tgach o`qituvchining fikri va xulosasi bilan taqqoslaydilar.

O`quv jarayonida muammoli vaziyatning bir necha turlari farqlanadi:

- talabalar qo`yilgan vazifaning echilish usulini bilmaydilar, muammoli savolga javob bera olmaydilar;
- talabalar avval olgan bilimlarini yangi sharoitda, holatda foydalanish zaruriyatiga duch keladilar;
- vazifaning nazariy jihatdan echilishi mumkin bo`lgan yo`li va tanlangan usulning amaliy jihatdan qo`llash qiyinligi orasida ziddiyat yuz beradi;
- vazifaning bajarilishida natijaga amaliy erishish va talabalarda uni nazariy jihatdan asoslashga bilim etishmasligi o`rtasida ziddiyat yuz beradi;
- adabiyotlarda muammoli vaziyat yaratishning quyidagi ko`p uchraydigan usullari qayd qilinadi;
- hodisalar, o`rganilayotgan tushunchalar mohiyatini tushuntirish uchun muammoli vazifalar qo`yish;
- olingan bilimlarning amaliy tadbig`i usullarini topish uchun muammoli vazifa qo`yish;
- talabalarni hodisalar va faktlar orasidagi ziddiyatlar va nomuvofiqliklarni tushuntirib berishga undash;
- ilmiy tushunchalar va hayotiy tasavvurlari orasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradigan fakt va hodisalarni tahlil qilishga undash;
- talabalarni fakt, hodisa, hatti-harakatlar, xulosalar solishtirish, qiyos qilishga undash;

- talabalarni go'yo tushunib bo'lmaydigan xarakterdagi va fan tarixida ilmiy muammoning qo'yilishiga sabab bo'lgan faktlar bilan tanishtirish.

Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari uning boshqa variantlariga chek qo'ymaydi. Har bir o'qituvchi o'zining amaliy faoliyatida o'quv materiallari bilan ijodiy ishlash jarayonida uni tashkil qilishning turli imkoniyatlarini qidirishi va topishi mumkin.

Bu qoidalarni amalga oshirish avvalo o'quv materialining mazmun xususiyati bilan bog'liqdir. Uning tarkibi va tuzilmasiga bir qator talablarni qo'yish mumkin.

O'quv materiali quyidagi mazmunni o'z ichiga qamrab oladi:

Yangilik unsurlari (yangi tushunchalar, yangi belgilar, xususiyatlar, noma'lum tushunchalarning jihatlari, yangi aloqalar, harakatlanishning yangi usullari);

Faktlar, bilish vazifalari va masalalari, ziddiyatlari ko'rinishidagi materiallarni qamrab olgan ma'lum va yangi bilim o'rtasidagi ziddiyat;

Umumpedagogik va didaktik tamoyillarni hisobga olgan pedagogik nazariyaning uslubologik asoslari materialini mantiqqa muvofiq bayon qilish.

Muammoli vazifa. Talabalarga har xil harakat faoliyatlarini o'rgatishda jismoniy tarbiya o'qituvchisi sharoitga qarab har doim ham shu harakat yoki uning ayrim unsurlarini ko'rsatib berolmaydi, shunday hollarda o'rganilayotgan harakat haqida ko'rgazmali tasavvur hosil qilish bo'yicha usuliyat talablari bilan o'qituvchi tomonidan ko'rsatilishi imkoni yo'qligi orasida muammoli vaziyat yuzaga keladi. Biz bilamizki, ko'rgazmalilikni bevosita yaratishning bir guruh usullari mavjud.

Shunday qilib, algoritmik tipdagi amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish quyidagi bosqichlarni ko'zda tutadi:

- muayyan toifadagi vazifalarni echish uslubiyati tushunib olishga yordam beradigan bilimlar o'zlashtirilishini nazorat qilish;

o'zlashtirilish ob'ekti bo'lgan vazifalarning echilish uslubiyati bilan tanishish;

aniq vazifa materiallari asosida o'rganilgan uslubiyatga muvofiq ravishda talabalarning individual faoliyatni tashkil etish;

Tipik qiyinchiliklar va ularni engish yo'llarini guruh bo'lib muhokama qilishni tashkil etishning talabalar tomonidan bajarilib borishi va natijalarini tahlil qilish, kelgusida egallanishi mumkin bo'lgan malakalarni takomillashtirish bo'ya vazifa qo'yish.

Seminar o'tkazishning dastlabki maqsadi ma'ruza yoki axborotni jamoa bo'lib muhokama qilishdir. Seminarining samaradorligi albatta talabalarni unga tayyorlash sifatiga bog'liq. Ayniqsa, ma'ruza va axborot tayyorlayotgan talabalar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega.

Talabalarni seminarga tayyorlash bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Birinchi bosqichda o'qituvchi talabaning seminar mavzusini aniqlab beradi. Mavzuni tanlash va bo'lg'usi ma'ruza yoki axborotni tayyorlashda ularga nisbatan o'qituvchi shunchaki, talaba deb qaramasligi kerak, balki ularni seminarda muhokama qilinadigan mavzuning ahamiyatini, dolzarbligini fikrlashga, o'quv fanini keyinchalik muvaffaqiyatli egallash uchun uni chuqur o'rganishi lozimligini anglashga, bo'lg'usi kasbiy faoliyatining hozirgi ijtimoiy, ilmiy muammolarini rejalashtira olish darajasiga olib kelish zarur. Bunda vaqtni tejash, tashkiliy ishlarni jadallashtirish uchun talabalarga mavzu bo'yicha adabiyotlarni, imkoni boricha, mavzulari va sahifalarini ko'rsatgan holda tavsiya etish lozim. Talabalarni ma'ruza va axborotlarga tayyorlashning birinchi bosqichida uning mavzusi bo'yicha referatning batafsil rejasini tuzish vazifasi yuklanadi.

Ikkinchi bosqichda, talabalarni ma'ruza qilishga tayyorlashda o'qituvchi u bilan birga referat rejasini muhokama qiladi, uning ayrim o'rinlarini tuzatadi. Bu o'z navbatida dastlabki fikrlarini tezlikda tuzatish, aniqlik kiritish, to'ldirish imkonini beradi va u pirovard natijada bo'lg'usi ma'ruzaning sifatini oshiradi.

Uchinchi bosqichda o'qituvchi talaba tayyorlab kelgan referatning mazmuni bilan tanishadi. Zaruriyat tug'ilganda, unga savollar qo'yish, talaba esa bu suhbatdan so'ng tegishli

xulosa chiqarishi lozim bo`ladi. Shuningdek, shunday savollarni ham berish kerakki, talaba bu savollarga o`z chiqishida javob bersin. Ayni o`rinda talabaning seminarda ma'ruza qilish uslubi ham muhokama qilingani ma'qul.

Shuni esdan chiqarish kerakki, faqat ma'ruza bilan qatnashadigan talabalar bilan ishlab, boshqa talabalar nazardan chetda qolmasin, balki guruhdagi barcha talabalar oldindan muhokama qilinadigan mavzular bilan tanish bo`lishi, seminar mavzusi bilan aloqador leksiya va qo`shimcha materiallar mazmuni ustida ishlagan bo`lishi, mavzuga muvofiq ravishda olinayotgan bilimlarni nazorat qilishga va mavzuni muhokama qilishga tayyor bo`lishlari lozim. Bunday seminar mashg`uloti odatda muhokama qilinadigan mavzuning mohiyati va dolzarbligi leksiya material bilan bog`lashni eslatish bilan boshlanadi. Shundan so`ng talabalar o`rganilayotgan masalani muhokama qilishga faollashtiriladi, bilimlarini namoyish qila olishi aniqlanadi. Bu ikki yo`l bilan amalga oshiriladi: yo qisqacha javoblar talab qiluvchi va oldindan tayyorlab qo`yilgan savollar bo`yicha suhbat shaklida yoki tuzatish (korreksiya) test savollari asosida nazorat qilish orqali. Tajribalar shuni ko`rsatadiki, bu har ikkala bilimlarni yuzaga chiqarish usuli tezkor usul bo`lib, seminarning ushbu bosqichini o`tkazishning muhim samarali sharti hisoblanadi. Talabalar bilimlarini yuzaga chiqarish jarayonida ularning egallagan bilimi keyingi seminarlarda va muhokamalarda qatnashishlari uchun etarli ekanligi aniqlanadi. Talabalarda muhokamadan so`ng ham bilimlar etarli bo`lmasa, o`qituvchining bayoni orqali yoki talaba bilan individual suhbat shaklida tushuntiriladi. Ulardan qay biri samara bersa, shunisidan foydalanilgani ma'qul, keyingi variant nisbatan samarali bo`lishi mumkin.

Bilimlar yuzaga chiqarilgan va ayrim tuzatishlar qilingandan so`ng talabalarning ma'ruza va axborotlar bilan chiqishlari tashkil etiladi. O`qituvchi talabaning materialni mantiqiy bayon qila olishini, uni bayon qilish usulini, talabalarning unga bo`lgan e'tiborini kuzatib boradi. Ma'ruzaning mazmunini bayon qilish yoki muhokamaning borish jarayoni talabalarni zeriktirib qo`yganda yoki, aksincha, undagi ayrim masalalarga qiziqish kuchli bo`lganda, hamda uni muhokama qilish zaruriyati tug`ilganda, hurmatini saqlagan holda ma'ruzachini biroz to`xtatib, seminarni jamoa muhokamasiga aylantirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'ruzani guruh bo`lib muhokama qilish pedagogik aspektda seminarning eng ahamiyatli qismi hisoblanadi, binobarin, seminarda talabalar jonli bilish faoliyatiga jalb qilinadilar.

Talabalarning o`z faoliyatlarini tashkil etishni shakllantirish va rivojlantirishga esa bilimlarni egallash, maqsad va vazifalarni qo`yish malakasini hosil qilish, o`z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashda ko`zda tutgan seminarlar katta yordam beradi, bunday malakalarni shakllantirish, odatda o`quv ishlari mazmunini tashkil etuvchi materiallar, leksiya, ilmiy va o`quv-uslubiy adabiyotlarni konspekt qilish, ma'ruza va referatlarni yozish, o`quv va ilmiy axborotlar mazmunini tushunish va eslab qolish asosida amalga oshiriladi.

Bu turdagi seminariga tayyorgarlik ko`rishda o`qituvchi talabalar mutlaqo qiladigan materiallar asosida bajariladigan ishlarning tamoyillarini, o`ziga xosligini, uslubiyatini o`rganadi, ishlarning bajarilish muvaffaqiyatlari (natijalari)ni baholash me'yorlarini to`lalgicha yoki ayrim qismlari bo`yicha belgilab chiqadi va pirovard natijada talabalar darajasiga etkazadi.

Seminarining bu turiga tayyorgarlik ko`rishda talabalar o`qituvchining topshirig`iga ko`ra o`quv ishlarning u qadar katta bo`lmagan aniq material tarzidagi muayyan turini (masalan, konspektlashtirish) mustaqil bajaradilar va uning natijasini seminar sifatida tavsiya etadilar.

O`qituvchi seminar boshlar ekan, talabalarga uning maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi va ular tomonidan bajarilgan vazifalarni tekshiradi. So`ng o`qituvchi talabalarga oldindan tayyorlab qo`ygan vazifalarni bajarish namunalari ko`rsatadi va talabalar bajargan ish natijalari bilan qiyoslashni tashkil etadi. Talabalar o`z ishlarini namunaga qiyoslash orqali bevosita ular orasidagi farqlarning mavjudligiga ishonch hosil qiladi va o`z malakalarini

takomillashtirish zarurligini anglab oladilar. Bajarilgan ishlar natijalarini baholashga aniqlik kiritish maqsadida talabalarning namunaga javob berish me'yorlarini anglashiga erishish lozim. Talabalar bajargan ish natijalari belgilangan me'yorlar tizimiga mosligiga qarab baholanishga ishonch hosil qilishlari kerak. Talabalar tavsiya etilgan me'yorlardan foydalangan holda o'qituvchi rahbarligida avvalgiga nisbatan yana ham jiddiyroq ravishda bajarilgan ish natijalarini baholaydilar. Shu tariqa talabalarda o'z faoliyati natijalarini nazorat qilish va baholay olish malakasi poydevori yaratiladi. Bunda talabalarga o'z o'quv (faqat o'quv bo'lmisligi ham mumkin) ishlarining natijalarini yalpi va qismma-qism me'yorlar tizimiga mos ravishda nazorat qilish mumkin va lozim ekanligini tushunishlari ta'minlanishi kerak. Bu o'z navbatida o'tkazilgan ishlar natijalarining qay darajada namunaga mos yoki mos emasligini va o'z faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilab olish imkoniyatini beradi.

O'qituvchi talabalar tomonidan bajarilgan ishlarni baholab bo'lgach, ularni muayyan ishlarni samarali bajarish uslubiyati bilan tanishtiradi. Bu uslubiyatning har biri kutilgan natijalarni olish nuqtai nazardan zarur bo'lgan, asoslangan hatti-harakatlar izchilligini tavsiflashni taqozo qiladi. Shu uslubika tarkibiga kirgan har bir hatti-harakatning bajarilish sifatini baholashga asos bo'ladigan me'yorlari beriladi.

Ishni bajarish uslubiyati bilimlariga ega bo'lgan talabalar o'qituvchini topshirig'iga binoan ularning izchilligini, avval amalga oshirilgan hatti-harakatlarini tahlil qiladilar va uning ishlab chiqilgan uslubiga muvofiqligini aniqlaydilar. Natijada har bir talaba o'z faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida zarur bo'lgan hatti-harakatlarni belgilab oladilar.

Shundan so'ng talabalarga seminar avvalgidagi, lekin boshqa mazmundagi o'quv ishlari topshirig'i beriladi. Talabalar topshiriqni bajarib bo'lgach, o'qituvchi bajarilgan bir necha ishlar namunasidan olingan natijalarni guruhda muhokama qilishni tashkil etadi. Muhokamada, ya'ni seminar avvalida taklif etilgan baholar me'yoridan foydalaniladi. Har bir talaba ishidagi kuchli va kuchsiz o'rinlarni qayd qilgan hamda shu me'yorlarni qo'llagan holda o'zi qo'lga kiritgan natijalarni baholaydi.

Seminar mashg'uloti unga yakun yasash bilan tugaydi. O'qituvchi talabalar tomonidan bajarilgan ishlar natijasini baholab u ishda muvaffaqiyatli qatnashganlarni alohida ta'kidlab o'tadi, shuningdek, ayrim kamchiliklarga yo'l qo'rganlarni ham qayd qiladi va ishlash usullarini kelgusida takomillashtirish, ya'ni keyingi mashg'ulotlarda qanday vazifalar qo'yilishini belgilab beradi.

Muammoli savollar tizimini ishlab chiqishda talabalarni o'ylashga majbur qilish hamda ularning javoblari ehtimoli nazarda tutiladi. Shu bilan bog'liq ravishda mashg'ulot ssenariysi mashg'ulotning biror (ehtimol ko'rilgan) variantini aks ettirishi lozim bo'ladi, uning realligi esa o'qituvchining talabalaridagi boshlang'ich fikrlash qobiliyati darajasi haqidagi ma'lumot qay darajada bilimga ega bo'lishiga bog'liq. Shu bilan birga, hatto yaxshi ishlab chiqilgan ssenariy bo'lsa-da, seminarining borishida avval o'ylangan rejadan chetga chiqishlar bo'ladi, chunki talabalarning yakka tartibdagi xislatlari, bilimlarining darajasi va kengligi har xil bo'ladi, shu tufayli o'qituvchi seminarini samarali o'tkazishi uchun mavzu muvofiq material mazmunini o'zi yuksak darajada egallagan bo'lishi shart.

Seminar avvalida o'qituvchi tayyorlab kelgan savollari yoki vazifalaridan foydalangan holda, talabalarda seminarida qatnashish uchun etarli bo'lgan bilimlarni yuzaga chiqaradi.

Bilimlarni yuzaga chiqarish, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminarlardagi usullar asosida amalga oshiriladi. So'ng yuzaga chiqarilgan bilimlar asosida o'qituvchi mashg'ulotda hal qilinadigan muammoni talabalarga bildiradi va uni ifodalab beradi. Avval boshdanoq qo'yilgan muammoning talabalar tomonidan qabul qilinishini ta'minlash uchun muammoni qo'yishda uni echish uchun urinib ko'rishni tashkil etish tavsiya etiladi. Bu bilan o'qituvchi kutilayotgan echimni talabalar bilan tahlil qiladi, ularda ko'ringan qiyinchiliklarni aniqlaydi. Muammoni echishdagi dastlabki urinish natijasida talabalar uni engilgina echishlari mumkin emasligini aniqlaydilar. Bunda muammoli vaziyat talabalar

uchun muammoni echish usullarining keyingi izlanishini avj oldirish zarurligining ichki ruhiy asoslanishi bo`lib xizmat qiladi.

O`qituvchi muammoni echish usullarini izlashni tashkil etishga o`tar ekan, avvalo birinchi muammoni ifoda qiladi, so`ng muammoli savollarni qo`yadi va javoblarni muhokama qilib, talabalarning bu muammoni echish usulini izlashga, ya`ni birinchi oraliq xulosani qidirishga undaydi. So`ngra ushbu muammoni butunligicha echish va xotima xulosalarni ifodalash bilan tugallanishi lozim bo`lgan keyingi muammolarning echilish usulini izlashni tashkil etadi.

O`qituvchi muammoni qo`yishda uning mazmunini oydinlashtiruvchi muammoli savollarni berishdan oldin muammoni to`lalgicha echishga urinish tashkil etilganidek, talabalarning muammo qismlarini echishga urinishlarini tashkil etish mumkin. Bu urinish muammoni echishda ikkinchi mashaqqatni vujudga keltiradi, uning talabalar tomonidan anglab etilishi muammoning echilish usulini qidirishda faol ishtirok etishining qo`shimcha motivi bo`lishiga olib keladi.

Seminar mashg`ulotining eng muhim bosqichi, uning o`zagi muammoli savolga javob qidirishni tashkil etish hisoblanadi.

O`qituvchi muammoli savol qo`yib yo unga javob olishi bilanoq to`g`ri va noto`g`ri javoblarni baholamasligi, balki talabalardan savollarga har tomonlama keng javob talab qilishi kerak. Agar talaba kutilgan muayyan javobni tayinli asoslay olmasa, bu javobga hayrihoh bo`lgan boshqa talabalarni ham aniqlab, ularga birgalikda shu javobni asoslashni taklif etadi. Agar talabalar u yoki bu savolga turli javoblar taklif etsalar, o`qituvchi talabalarning javoblarini qiyoslashga qaratilgan fikrlashga urintirishi lozim bo`ladi. Bunday fikrlash ishi murakkab bo`lib, u barcha bildirilgan nuqtai nazarlarni tushunish, ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, to`g`ri javobni qidirish maqsadida tanqidlarni hisobga olgan holda turli qarashlarni o`zaro nisbatlashni ko`zda tutadi.

Shunday qilib, muammoli savolga javob topishni qidirishni tashkil etish o`zida muntazam qo`yilgan qadamlar modulini birlashtirdi. Ular quyidagilar:

- muammoli savolni qo`yish;
- qo`yilgan savollarga javob topish va asoslash bo`yicha talabalarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;
- javoblarning tanqidiy tahlilini tashkil etish, ularning kuchli va kuchsiz jihatlarini aniqlash;
- kelishilgan mavqe (pozitsiya)ni ishlab chiqish eng to`g`ri javobni konstruksiyalash maqsadida javoblarni o`zaro qiyos qilishni tashkil etish.

Keyingi muammoli savolni qo`yishga o`tish.

O`qituvchi tashkil etgan bunday mujassamlashgan harakatlarni bajarish jarayonida talabalarning tafakkurlarida rivojlanish yuz beradi.

Talabalarga muammoli savollar qo`yishda muammoli savollarning uzluksizligini, ularning bajargan ijodiy ish natijalari bilan aloqasini ta'minlash zarur.

Muammoli vaziyat. Usuliyat to`g`ri tamoyillarga asoslangandagina eng qisqa yo`l bilan maqsadga olib boradi. Pedagogik jarayonning avvalo usuliy qonuniyatlarini ifodalaydigan bir qator tamoyillar borki, xuddi shuning uchun ham ta'lim vazifalarini bajarishda ular eng muhim sanaladi. Bular onglilik va faollik, ko`rgazmalilik va individuallashtirish tamoyillaridir.

Umuman, talabalarning fikrlash qobiliyatlarini o`stirishga bag`ishlangan seminar quyidagi bosqichlarni o`z ichiga oladi:

O`quv muammosini echish bo`yicha ijodiy faoliyatda faol ishtirok etish uchun zarur bo`lgan bilimlarni yuzaga chiqarish;

Muammoga kirishish va uni ifodalash;

Talabalarning avval egallangan bilimlari negizida muammoni echishga urinishni tashkil etish;

Muammoni echish bo'yicha talabalarning keng ijodiy faoliyatini tashkil etish (muammoni va muammoli savolni qo'yish, muammoli savolga javob topishni tashkil etish, oraliq va yakuniy xulosalarni ifodalash);

Mashg'ulotga yakun yasash.

Muammoli o'qitish sharoitidagi o'quv jarayonining mustahkam asosi talabalarni mustaqil fikrlashga muntazam tayyorlash, shaxsiy fazilat sifatida ulardagi baholanadigan mustaqillikni shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Bu o'qitishdagi mustaqil ishning alohida muhim ahamiyati uni o'quv yurti pedagogik tizimi markaziga qo'yilishining qonuniyligi, uning o'z tizimi bo'lishi zaruriyatini tashkil etish demakdir. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, bu masala xanuzgacha amaliyotda to'la hal qilingan emas.

Amaliy mashg'ulotlar bir necha bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda bilimlar nazorat qilinadi, ularning mavjudligi mashg'ulotlarda ishlab chiqiladigan vazifalarning echilish uslubini tushunishga yordam beradi. O'qituvchi bilimlar o'zlashtirilishining nazoratini o'tkazib bo'lgach, talabalarni muayyan toifadagi vazifalarni echish uslubini bilan tanishtiradi. Bu jarayonda o'qituvchi uslubiyati tarkibiga kiradigan barcha harakatlarni talabalarga tushuntirishi lozim.

Shunday qilib, algoritmik tipdagi amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish quyidagi bosqichlarni ko'zda tutadi:

- muayyan toifadagi vazifalarni echish uslubikasini tushunib olishga yordam beradigan bilimlar o'zlashtirilishini nazorat qilish;

- o'zlashtirilish ob'ekti bo'lgan vazifalarning echilish uslubiyati bilan tanishish;

- aniq vazifa materiallari asosida o'rganilgan uslubiyatga muvofiq ravishda talabalarning individual faoliyatni tashkil etish;

- tipik qiyinchiliklar va ularni engish yo'llarini guruh bo'lib muhokama qilishni tashkil etishning talabalar tomonidan bajarilib borishi va natijalarini tahlil qilish, kelgusida egallanishi mumkin bo'lgan malakalarni takomillashtirish bo'yicha vazifa qo'yish.

Muammoli tipdagi amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- muayyan toifadagi vazifalarning echilish uslubiyatini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan bilimlarning talabalar tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qilish;

- echilish uslubiyatini ishlab chiqishni ko'zda tutgan yangi vazifalarni qo'yish;

- qo'yilgan vazifaning echilish uslubiyatini ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;

- talabalar ishlarining natijalarini tahlil qilish, uslubiyatni ishlab chiqish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni guruh bo'lib muhokama qilish, uning sabablari va uni engish usullarini aniqlash.

Muammoli o'qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o'quv axborotlari mazmunini muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko'chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo'ladi.

Ijodiy o'quv faoliyati muammoli o'qitishning asosiy qoidasini saqlagan holda – ma'lum darajada harakatlarga erkinlik berish va bu harakatlarni bilish jarayonining butun tuzilmasi tizimida tartibga tushirish bilan boshqariladi.

Muammoli o'qitishdan foydalangan holdagina talabalarda o'quv muammolari va kasbiy vazifalarini echishda ilmiy tekshirish jihatidan Indashuvni tarbiyalash, mustaqil bilish malakasi va uslublarini shakllantirish mumkin. Muammoli o'qitishni qo'llash, bilishni, o'zlashtirishni tushunishni shakllantirishga yordam beradi, pedagogik ijod va kasbiy mahoratni rivojlantirishga psixologik va kasbiy tayyorligini shakllantiradi.

Muammoli vaziyatni yaratish uchun talabalarga ikki nazariy qoida taklif etiladi: bu xalq ta'limini bashorat qilish va xalq ta'limi maqsadi. Ularga bu muammolardan birini tanlash yoki muammoli vaziyat aniqlab berishi lozim bo'lgan o'zlarining yangi nazariy qoidani tuzish taklif etiladi.

Keyingi bosqichda tanlangan vazifani muhokama qilish tashkil etiladi, uning hal qilinish jarayoni kuzatiladi, axborotlar tahlil qilinadi, tanlangan echimning to'g'riligi tekshirib ko'riladi. Undan so'ng yangi nazariy nuqtai nazarni tuzishga o'tiladi.

Muammoli leksiya talabalarning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishini taqozo qiladi. U ilmiy tafakkur uslubini rivojlantiradi. Muammoli vazifalar o'zida operatsion-prosessual tarkiblarni birlashtiradi. Ular axborot mazmunini yangilash va yangi bilimlar olish orqali tahlilga, tushunish va izohlashga, o'rganilayotgan ilmiy muammolarni nazariy jihatdan fikrlashga diqqatni jalb qiladi. Muammoli leksiya davomida talabalarda mavjud bo'lgan bilimlardan foydalaniladi, ularni yangi axborotlar bilan bog'liq ravishda yangilanishini amalga oshiradi.

Muammoli leksiya bilish faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, muammoli o'qitish o'quv jarayonini tashkil etishning shunday shakli, unda o'qituvchi boshchiligida muammoli vaziyat va bu vaziyatning echilishidagi talabalarning samarali mustaqil faoliyati yuzaga keltiriladi.

Muammoli o'qitishni tashkil etish natijasida talabalarda kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

AQLIY XUJUM

Aqliy xujum guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan uslubdir. Bu haqiqatan ham talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi uslubdir. Aqliy xujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanxo ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

O'qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'quv faolligi 5-10 daqiqa oralig'idagi vaqt chegarasida engillashtiriladi.

Aqliy xujum turli tarzda qo'llanishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

<p>Asosiy qoidalari quyidagilar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Aytilayotgan barcha g'oyalar bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir. 2. Kiritilayotgan g'oyalarga nisbatan tanqid mavjud emas. 3. G'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik. 4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.
<p>Uslubni ishlatishga kirishmoq,,,,,</p> <p>1-uslub – guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu va bir savol qo'yiladi. O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni o'z qo'lga shunday tarzda oladi: u auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga dahldor barcha mumkin bo'lgan fikrlarni aytishni so'raydi. Barcha, hatto, ahmoqona g'oyalarni ham aytishga ruhsat beriladi. Aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart. Birortasining ham fikri sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi. Asosiy fikrlarni o'qituvchi flip-karta, doskaga yozib oladi yoki ekranda ko'rsatadi. Aqliy xujum tugagach, barcha g'oyalar to'planishi, guruhlarga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo'linishi mumkin.</p>
<p>2-услуг – барча мавзу ва саволлар умумий йыналиши са=ланган шолда катта гуруш таркибидаги гурушчаларга та=дим этилади.</p>

2-uslub – barcha mavzu va savollar umumiy yo`nalishi saqlangan holda katta guruh tarkibidagi guruhchalarga taqdim etiladi.

1. O`qituvchi umumiy mavzu bo`yicha bir necha, balki 4-6 ta savol tayyorlashi mumkin.

2. Katta guruh kichik guruhchalarga ajratiladi va har bir guruhchaga aqliy xujum o`tkazish uchun alohida savol beriladi.

3. Har bir guruhcha aqliy xujum mahsulotini yozib olish uchun bittadan kishi ajratadi, keyinchalik, jarayon tugashi bilan uni guruhning barcha a'zolariga taqdim etadi.

4. G`olar har bir guruhcha tomonidan katta sahifaga markerdan foydalanib yozib olinishi mumkin. Shunday saxifa – plakatning yuqorisiga tayyorlangan savollar yozib qo`yiladi. Sahifa – plakat jarayonning oxirida har bir xohlovchi nima yozilgan va jamlanganligini ko`rishi uchun osib qo`yiladi.

5. Aqliy xujumning bu uslubi vaqtning qisqacha davrida bir savolning bir necha jihati ishlab chiqilishi zarur bo`lgan joyda, ayniqsa, foydalidir.

6. O`qituvchi rahbar-yordamchi sifatida harakat qiladi va bir guruhdan ikkinchi guruhga aqliy xujum amalga oshirilayotgan paytda o`tib turadi.

Muhim g`oyalar aqliy xujum paytida ishlab chiqilgan bo`lishi va munozaralarda muhokama etilgan bo`lishi kerak.

Ko`pincha muhim g`oyalarni belgilash va ular ichidan eng yaxshilarini tanlab olish chog`ida auditoriyaga yordam berish ehtiyoji tez-tez yuzaga kelib turadi. Ya'ni, nomigagina kichik korxonalar yaratish kabi.

Yakuniy xulosaga kelish, ayniqsa, qiyin. Bu tabiiy, chunki har bir ishtirok etuvchiga “o`zinning g`oyam eng yaxshi” degan xususiyat xosdir. Umumiy pozitsiya, har qalay, tezda topiladi va bunda quyidagi uslub yordamga kelishi mumkin.

Tanlash va hisobga olish tizimi uchun besh modda:

- uslub qandaydir bir g`oyani hal etish paytida, ya'ni nomigagina kichik korxonalar tayyorlash holatlarida benuqson hisoblanadi;

- har bir kishiga turli yo`l bilan foydalanish mumkin bo`lgan 5 modda ajratiladi, bundan tashqari ular o`zlarining shaxsiy g`oyalari ularni bog`lashlari mumkin emas, ya'ni ular 5 moddaning barchasini ixtiyoriy bir tahminga berishi yoki boshqa tahminlarga 3 va 2 nisbatda taqsimlashi mumkin. Ular, hatto, shuni istasalar, har bir g`oyaga alohida modda ajratishlari mumkin. Ular 5 moddaning barchasidan foydalanishlari zarur;

- moddalar yig`iladi va ko`p son to`plagan aniq g`oya kelib chiqadi;

- munozarali holatlarni ovoz berish yo`li bilan hal etish mumkin.

Har bir ishtirokchi tomonidan sahifaga ishlab chiqilgan va qayd etilgan muhim fikrlar yig`iladi, endi guruh sahifasi shaklida qaytadan ta'riflanadi.

Buning eng oson yo`li guruhchalarda ishtirok etuvchilarning barcha g`oyalari qayd etilgan uzun sahifa tayyorlashdir, g`oya takrorlanayotgan har bir holatda uning yoniga belgi qo`yish zarur.

Nazar tashlasangiz, dastlab barcha 10 ta g`oyadan eng yuqori to`plangan ballga ko`zingiz tushadi, shundan so`ng pasayish tartibida qolgan umumiy ballar o`rin oladi va boshqalar;

Agar siz 10 ta g`oyadan iborat sahifani yakunlay olmasangiz, 5 moddadan iborat hisoblash tizimidan foydalanishingiz mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, sahifada qolgan g`oyalar asosida shunday demokratik yo`l bilan kutilgan natijalarga erishiladi.

FIKRLAR XUJUMI

Bevosita jamoa bo`lib “Fikrlar xujumi” (“Mozgovaya ataka”) olib borish. Bu uslubdan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g`oyalarni yig`ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inertsiasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni echish jarayonida dastlab paydo bo`lgan fikrlarni

engishdir. Bu uslub A.F.Osbori tomonidan tavsiya etilgan. Bu uslubning asosiy tamoyili va qoidasi bahs ishtirokchilari ishlab chiqqan g'oyalar tanqidini mutlaq taqiqlash, har qanday lug'ka va hazil-mutoibani rag'batlantirishdir. Bu uslubdan foydalanishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi-mashg'ulot rahbariga bog'liq. "Fikrlar xujumi" ishtirokchilari miqdori 15 kishidan oshmasligi kerak. Mashg'ulotning davomiyligi bir soatgacha.

Yalpi "Fikrlar xujumi". Bu uslub J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan. U katta guruhlarda (20 dan 20 tagacha bo'lgan) yangi g'oyalar ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik-kichik 5-6 kishidan iborat guruhlariga bo'linadi va har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo'yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda o'zaro "Fikrlar xujumi" o'tkazadi. Shundan so'ng har bir kichik guruh vakili o'z guruhlarida ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot hamda o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib unga baho beradilar va ulardan eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi.

"Fikrlarning shiddatli xujumi" – destruktiv berilgan baho bilan dialog: Bu uslub E.A.Aleksandrov tomonidan taklif qilingan. G.Ya.Bush tomonidan o'zgartirilib yo'lga qo'yilgan Dialogning mohiyati shundaki, jamoa bo'lib g'oyalar ishlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va unga zid g'oyalar qo'yiladi:

Mashg'ulot bosqichma-bosqich quyidagi tarzda o'tkaziladi:

1-bosqich. Mtqdor va psixologik muloqoti jihatidan maqbul kichik guruhlarini shakllantirish;

2-bosqich. Vazifa, muammodan kelib chiqadigan maqsadlarni ifodalash;

3-bosqich.to'g'ridan-to'g'ri "fikrlar xujumi" qoidasiga asosan har bir guruhda g'oyalar ishlab chiqish;

4-bosqich. G'oyalarni tartibga solish va tasniflash;

5-bosqich. G'oyalarni destruktivlash, ya'ni amalga oshishi imkoniyatiga qarab baholash;

6-bosqich. Avvalgi bosqichlarda bildirilgan tanqidiy mulohazalarga baho berish;

Yuqoridagi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars jarayonida (fanga asosan) turli muammolarni hal etishga, ularning kelib chiqish sabablari, tuzatish yo'llarini topishga, talabalarni esa mustaqil izlanishga, fikrlashga, o'z fikrlarini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqishga o'rgatishda amaliyotda "Muammoli vaziyat" shaklini qo'llash mumkin.

1. Muammoli vaziyatlarni shakllantirishdagi pedagogik usullar:

O'qituvchi tomonidan muammoli vaziyatlarni hosil qilish usullari

Talabalarni so'z qarama-qarshiligiga olib keladi va o'zlariga uni echimini topish usulini topishga chorlaydi

Amaliy faoliyatda uchraydigan qarama-qarshiliklarni aytib beradi;

Bir savolni har xil nuqtai nazardan bayon qilinadi;

Ko'rinishni har xil pozitsiyadan qarashni taklif qiladi; (masalan: yurist, moliya ishchisi, pedagogni qarashi)

Aniq savol qo`yadi (umumlashtirish, isbotlash, aniqlash, qarama-qarshilik va to`g`ri kelmaslikni);

Taklif qilingan vaziyatni qiyoslash, umumlashtirish, ma'lumotlar bilan solishtirish, xulosa chiqarishga chorlaydi;

Nazorat va amaliy muammoli vazifalarni ajratadi (masalan, tadqiqot, amaliy echish usullarini izlash);

Muammoli vazifalarni (masalan, dastlabki ma'lumotlarni etishmasligi yoki ko`pligi, qo`yilgan savolni aniq emasligi, ma'lumotlarni qarama-qarshiligi, cheklangan vaqt ichida ruhsat beriladigan hato bilan bajarish, psixologik inersiya va boshqalarni engish) qo`yish;

Hayotiy tashkil qilingan aniq vaziyatni yoki sun'iy ravishda hosil qilingan vaziyat, tipik muammoni tashkil qiluvchi. Tashkil qilingan hayotda yoki talabalarga maqsadga muvofiq echimni topishga chorlanadi

muammoli vaziyatni echishda o`qituvchi va talabani o`zaro birga harakati

Bosqich	O`qituvchining harakati	Talabalarning harakati
1	Talabalarga muammoni ahamiyatini anglab olish uchun yordamchi yo`naltiruvchi savol qo`yadi;	Muammoli vaziyatni anglab etiladi, o`zlashtirgan bilimni faollashtiradi;
2	yo`naltirilgan ko`rsatma beradi	Dastlabki ma'lumotlarni tahlil qiladi, muammoni tashkil toptiradi
3	Kerakli axborotni e'lon qilish uchun yaqinlashtiruvchi savol qo`yadi	Ishchi farazini olg`a suradi, ularni yangilaydi

4	Yo`naltirilgan ko`rsatma beradi	Ishchi farazni tekshiradi muammoni echadi
5	Nazorat savollarini qo`yadi, bajarilishini aniqlaydi	Echimini tekshiradi, dastlabki ma'lumotlar bilan qiyoslanadi
6	Talabalarni harakat faoliyatini tahlil qilinadi	Ishni borishidagi hatolar tahlil qilinadi
7	Olingan natijalarni o`quv faoliyatidan tekshirishlarga kiritish	Umumlashtiriladi va yangi o`quv materialiga o`tish

Amaliy vaziyatni tahlilini tahminiy sxemasi:

Bosqichlari	Faoliyatning mazmuni	Baholash o`lchamlari
1. Tahlil	Berilgan aniq vaziyatni va axborot vazifalarini echish uchun tajriba ma'lumotlarini yig`ish. Vaziyatda nima qanday joy olganligini: nima bo`layapti? Kimning qatnashishi bilan va nimaga? Holatni rivojlanish natijasi qanday?	Qisqacha
II. Muammoni qo`yish	Muammoni negizini yorituvchi takliflar	Maksimal darajada qisqa 9-10 so`zdan ko`p emas.

III. Qatnashuvchilarni aniqlash	A. Qatnashuvchilarning roli va statusi, ularga tavsif; B. O`tkazilayotgan tashkilotga tavsiya: uni tabiati, xarakteri, tashqi muhit va maxsus xususiyati	Maksimal darajada qisqa
IV. Xronologik voqeani aniqlash	Ko`rsatilgan ma'lumotlar va voqealarni baholamasdan va teskari xronologik tartibda	Ochiq va aniq
V. Konseptual sohalarni aniqlash	Vaziyatni konseptual savollar bilan bayon qilish (motiv, rejalashtirish, mehnatni baholash va b.q.)	Ma'lumotlar bilan Mustahkamlash (matndagi eng yaxshi so`zlar bilan)
VI. Alternativ echimni aniqlash va eng yaxshi alternativni tanlash	Alternativ vaziyat vazifalarini echimini aniqlash: ilohi boricha yo`naltirilgan harakat faoliyatini sanab chiqish. Har bir alternativni argumenti va bahosi. Amalga oshirishni ijobiy va salbiy tomonlarini ko`rsatish. Eng yaxshi vazifa sifatini va alternativini aniqlash	
VII. Echimni ishlab chiqish	Tanlab olingan kurs ta'sirini har bir detalga aniq echimini ishlab chiqish	Ochiq va aniq
VIII. Prezentatsiya	Ishlab chiqilgan ta'sir kursini muammoni echilishiga qarab planer yig`ilishiga qo`yish	Qisqa, yaqin argumentli

Muammoli vaziyatlari bo`lgan topshiriqlar

“Jismoniy sifatlarni tarbiyalash” mavzusi:

Muammoli vaziyat.(kuch qobiliyatlarini tarbiyalash usuliyati). Kuch qobiliyatlarini tarbilashda eng muhim muammolardan biri tashqi qarshilik (ottyagoshenie) kattaligini tanlash masalasidir. Mashg`ulotlarning vazifasi shug`ullanuvchilarda absolyut (mutloq) kuchni tarbiyalashdan iborat edi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun murabbiy (trener) quyidagi usuliyatni qo`llagan:

asosiy vosita - qat'iy chegaralangan xususiyatli mashqlar;

ottyagoshenie – cheklanmagan og`irligi, mashqlarni bajarishning o`rtacha sur'ati, bir kerishishda mashqlarni maksimal miqdorda takrorlash;

Qayta test o`tkazilganidan bir qancha vaqt o`tgach, u mutloq kuch arzimas darajada o`sganini, kuch chidamliligi ko`rsatkichlari esa sezilarli oshganini qayd etdi.

1-topshiriq. Murabbiyning usuliy hatosini aniqlang.

2-topshiriq. Mazkur usuliyatda o`zingiz sezgan hatolaringizni tuzating. Javobingiz to`g`riligini asoslab bering.

Muammoli vaziyat (kuch qobiliyatlarini tarbiyalash usuliyati).

Kuch qobiliyatlarini tarbiyalash usuliyatidagi asosiy usuliy yo`nalishlardan biri cheklanmagan ottyagashenielar og`irliklar (qarshiliklarni) takrorlashlarning cheklangan miqdori bilan engishdan iboratdir. O`quv-mashq mashg`ulotlarini tashkil etish jarayonida talabalarda kuch qobiliyatlarini mutlaq kuchni tarbiyalash muammolarini hal etishda “A” va “B” murabbiylar turli usuliyatlarni qo`llaydilar. “A2 murabbiy o`z usuliyati asosiga cheklanmagan ottyagashenie(og`irlik)larni cheklangan miqdorda takrorlash usulini qo`ydi. “B” murabbiy esa mashg`ulotlarda og`irliklarning chegaraviy va chegara oldi og`irliklaridan foydalandi, takrorlashlar soni esa bir urinishda 1-2 martani tashkil etdi. Ma'lum muddat o`tgach, shug`ullanuvchilar mazkur usuliyatlar asosida o`z murabbiylarida test topshiradilar. “B” murabbiy qo`l ostida shug`ullanuvchilarda sobstvenno-kuch qobiliyatlarining o`sishi “A” murabbiy qo`lida shug`ullanuvchilarning ko`rsatkichlaridan yuqori ekanligi ma'lum bo`ldi.

Topshiriq. Aniqlang va asoslab bering:

Shug`ullanuvchilarning ko`rsatkichlaridagi tafovutning sababi nimada?

Chegaraviy va chegara oldi og`irliklar bilan ishlash usuliyatidan foydalanish cheklanmagan og`irliklar cheklangan miqdorda takrorlash usuliyatiga qaraganda harakat faoliyatini shakllantirishda yaxshiroq samara berishiga sabab nima va buni qanday izohlash mumkin?

Muammoli vaziyat (tezkorlikni rivojlantirish usuliyati). Engil atletikachilarda startdagi o`q uzishga javob harakati tezligini tarbiyalash vazifasini hal etish chog`ida murabbiy ushbu tezlik ko`rsatkichlari turg`unligi va to`xtab qolganligiga guvoh bo`ldi. Ushbu turg`unlikni yo`qotish, javob harakati tezligini oshirish zarurati bilan murabbiydan bunga qanday erishish yo`lini bilmasligi orasida ziddiyat yuzaga keldi.

Topshiriq:

Startdagi o`q uzishga javob harakati tezligi ko`rsatkichni yaxshilash yo`llarini toping;

Murabbiy start tezlanishini bajarishdan farqlaydigan yana qanday yo`ldan foydalanib oddiy javob harakati tezligi ko`rsatkichlarini yaxshilashga erishish mumkinligini aniqlang. Javobingiz to`g`riligini asoslab bering.

Muammoli vaziyat. (tezlikni tarbiyalash usuliyati). Har xil trenerlar tomonidan ishlab chiqilgan tezlikni tarbiyalash usuliyatlarida turli ziddiyatlar ko`zga tashlanadi. Ulardan biri quyidagicha: bir tomondan, biror bir harakatni bajarish tezligini oshirish uchun uni qayta-qayta takrorlash kerak. Ikkinchi tomondan, ko`p takrorlashlar harakat dinamikasi stereotipining yuzaga kelishiga sabab bo`ladi. Natijada harakat o`lchamlari turg`unlashuvi hodisasi yuz beradi. Buning ustiga faqat makoniy emas, zamonaviy, ya'ni vaqt bilan bog`liq xususiyatlar ham o`zgaradi, bular tezlik va takrorlanish darajasi (chastota). Shu tariqa tezlik to`sig`i paydo bo`ladi. Tezlikning turg`unlashuvi – tezlik imkoniyatlarini oshirishga halal beradigan bosh sababchidir.

Topshiriq. Muammoni aniqlab, uni hal etish yo`llarini ko`rsating.

Muammoli vaziyat. (tezlikni tarbiyalash usuliyati). Murabbiy harakat tezligini oshirish maksimal mushak kuchining (sobstvenno-kuch qobiliyatlarining) darajasini ko`tarishga bog`liq ekanini bilgan holda sobstvenno-kuch qobiliyatlarini aksentirovanno`y rivojlantirish usulini qo`lladi. Bir qancha vaqt o`tgach, u shug`ullanuvchilarning tezlik qobiliyatlarida o`shish kuzatilmayotganini sezdi. Bundan tashqari ularda hatto tezlik ko`rsatkichlari biroz pasaygan ham edi.

Topshiriq. Bu hodisaning sababini aniqlang, talabalarning tezlik ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun murabbiy mashg'ulotlari usuliyatiga qanday tahrir kiritish lozimligini ayting.

Muammoli vaziyat. (tezlikni tarbiyalash usuliyati). Murabbiy tezlikni tarbiyalash jarayonida texnik tayyorgarlik muammolarini hal qilargan ekan, o'rganilayotgan harakatni maksimal tezlik bilan bajariladigan topshiriqlari bo'lgan usuliyatni qo'llaydi. Bir qancha vaqtdan keyin harakat faoliyati texnikasida sezilarli hatolar paydo bo'lganini, tezlik to'sig'i yuzaga kelganini payqadi.

Topshiriq. Muammoni aniqlang va uni hal etish yo'llarini ko'rsating.

Muammoli vaziyat. Quyidagi matnni o'rganing: "Tezlikni tarbiyalash usuliyatlari tarkibida takroriy, takroriy-o'sib boruvchi, o'zgaruvchan (tezlanish) o'zgarib turuvchi) mashq usullari keng tarqalgan. Asosiy intilish – mashg'ulotda o'z maksimal tezligini oshirishga harakat qilish. Barcha usullarning xususiyatlari (masofa uzunligi, bajarish sur'ati, dam olish tanaffuslari orasidagi muddat, takrorlar soni va b.) shunga bo'sundirilgan. Masofa uzunligi (bajarish davomiyligi) shunday tanlanadiki, harakatlanish tezligi (ish sur'ati) urinish so'ngiga borib susayib qolmasin. Harakatlar maksimal tezlikda bajariladi, shug'ullanuvchi har bir urinishda, odatda, o'zi uchun eng yaxshi natijani ko'rsatishga intiladi. Urinishlar oralig'idagi tanaffuslar shunday kattaki, bu nisbatan to'la tiklanishni ta'minlaydi. Harakat tezligi takrorlangan sari pasayib ketmasligi kerak. Ma'lumki, bevosita tezlik mashqi bajarilganidan keyin MAT (TsNS) ta'sirchanligi ko'tarilgan bo'ladi, keyin esa asta-sekin pasayadi. Agar faqat shu ko'rsatkichga e'tibor qilinsa, dam olish tanaffuslari unchalik uzoq bo'lmasligi maqsadga muvofiq edi, chunki bunda markaziy asab tizimining ta'sirchanligi aytarli pasayishga ulgurmasdi. Shunda har bir keyingi takror MATning yuqori ta'sirchanlik darajasiga to'g'ri kelar, bu esa eng yuqori tezlikka erishishga yordam berardi. Ammo, tezlik imashqlarining bajarilishi u yoki bu darajada sezilarli kislorod qarzining paydo bo'lishi bilan bog'liq: uni yo'qotishga bir necha o'n daqiqalab vaqt kerak bo'ladi. Boshqa fiziologik ko'rsatkichlarning tiklanishi (qonda SO₂ miqdori, o'pkadagi havo aylanishi va b.) undan ham ko'p vaqtni olishi mumkin. Shuning uchun mashqlarni kichkina tanaffuslar bilan takrorlash tezlikning juda tez pasayishiga olib keladi.

Topshiriq. Ko'pgina murabbiylar harakat tezligini tarbiyalash jarayonida tanaffuslari davomiyligi oldinda turgan ga bog'liq holda bor-yo'g'i 2-3 daqiqadan 4-2 daqiqagacha bo'lgan usuliyatlardan foydalanadilar. Tushuntirib bering – nima uchun?

Muammoli vaziyat. 2 murabbiy suhbatlashayotib, bahslashib qoldi. "A" murabbiy fikricha, aylanma mashg'ulot usulini faqat jismoniy sifatlarni tarbiyalash uchun qo'llash mumkin. "B" murabbiyning nuqtai nazariga ko'ra esa aylanma mashg'ulot harakat faoliyatini takomillashtirish hollarida ham, ayni vaqtda jismoniy sifatlarni tarbiyalash uchun qo'llaniladi.

Topshiriq. Ulardan qay biri haqligini aniqlang.

Nazorat testlariga tanlagan javoblaringizni jadvalga (javob varaqasiga) yozing.

2.2. DASTURLI O'QITISHNING USULIYATI

Programmalashtirilgan ta'lim XX asrning 50-yillar boshlarida paydo bo'ldi. U amerikalik psixolog B.Skinner nomi bilan bog'liq. U materiallarning uzlashtirishini boshqarishning samaradorligini oshirishda axborotlarni qismma-qism uzatishning muntazam programmasi asosiga ko'rish va uni nazorat qilishni tavsiya etdi.

N.Krauder tarmoqlangan programmani ishlab chiqdi, unda nazorat natijalariga ko'ra ta'lim oluvchilarga mustaqil ishlar uchun turli xildagi materiallar tavsiya etiladi.

G.K.Selevko programmalashtirilgan o'qitishga quyidagi ta'rifni beradi, ya'ni programmalashtirilgan o'qitish deganda o'qitish uskunalari (EHM, programmalashtirilgan

darslik, kinotrenajer va b.) yordamida programmashtirilgan o`quv materialining o`zlashtirilishini boshqarishni tushunadi. Programmashtirilgan o`quv materiali muayyan mantiqiy izchillikda beriladigan nisbatan katta bo`lmagan o`quv axborotlari (kadrlar, fayllar, odimlar) seriyasidan iborat bo`ladi.

V.P.Bespalko bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish namunasidagi pedagogik texnologiya tasnifi tavsiya etdi. O`qituvchi va ta'lim oluvchi (boshqaruvchi) munosabatlarini quyidagicha belgilaydi:

Berk (talabalarning nazorat qilinmaydigan va tuzatilmaydigan faoliyati);

Davriy (nazorat, o`z-o`zini nazorat qilish, o`zaro nazorat);

Tarqoq (frontal) yoki yo`nalganlik (individuallik);

Kul (og`zaki) yoki avtomatlar (zvuk vositalari) orqali;

V.P.Bespalko texnologiyasi turlari:

Klassik leksiya uslubida o`qitish (boshqaruv, tarqoq, qo`lda);

Audivizual texnik vositalarda o`qitish (berk, tarqoq, avtomatlashtirilgan);

Konsultant (maslahatchilar) tizimi (berk, yo`naltirilgan, qo`lda);

O`quv adabiyotlari yordamida o`qitish (berk, yo`naltirilgan, qo`lda) – mustaqil ish;

“Kichik guruhlar” tizimi (davriy, tarqoq, qo`lda) guruhlardagi o`qitishning tabaqalashtirilgan usuli;

Kompyuter o`qitishlari (davriy, tarqoq, avtomatlashtirilgan);

“Repetitor” tizimi (davriy, yo`naltirilgan, qo`lda) individual o`qitish;

“Programmashtirilgan o`qitish” (davriy, yo`naltirilgan, avtomatlashtirilgan), ular uchun oldindan programmalar tuzib qo`yiladi.

Programmashtirilgan o`qitishning beshta asosiy tamoyili farqlanadi:

Boshqarish qurilmalarining muayyan bosqichligi (ierarxiya) tamoyili. Bu programmashtirilgan o`qitish texnologiyasining ierarxiya tuzilmasida avvalambor pedagog turadi, fanda dastlabki umumiy mo`ljall yaratish; o`qitishning murakkab nostandart vaziyatlarida individual yordam va korreksiya o`rin oladi.

Qayta aloqa tamoyili. U o`quv faoliyatining har bir tadbiri bo`yicha o`quv jarayonini boshqarishning davriy tashkil etish tizimini talab qiladi. Bunda avvalo aloqa o`rnatiladi – zaruriy harakat obrazi to`g`risidagi axborot boshqaruvchi ob'ektdan boshqaruvchiga uzatiladi. Qayta aloqa V.P.Bespalko ta'kidlashicha, pedagog uchungina emas, balki ta'lim oluvchiga ham zarur; birinchisiga korreksiya uchun, ikkinchisiga esa o`quv materialini tushunish uchun.

Ichki va tashqi qayta aloqa ham mavjud. Bo`lib, ichki qayta aloqa ta'lim oluvchilarning o`z natijalarini va o`zining aqliy faoliyati xarakterini mustaqil korreksiya qilish uchun xizmat qiladi.

Tashqi qayta aloqa ta'lim oluvchiga bevosita o`quv jarayonini boshqaruvchi qurilmalar vositasida yoki tomonidan ta'sir etishda amalga oshiriladi.

O`quv materialini yoritish va uzatishda amalga oshiriladigan odimlovchi texnologik jarayon tamoyili. Odimlovchi o`quv tadbiri – bu texnologik usul bo`lib, unda o`quv materiali programmada axborot bo`laklari va o`quv vazifalari (bilim va malakalarni samarali o`zlashtirishni ta'minlashga xizmat qiladigan va ta'lim oluvchining bilimlarini o`zlashtirishning muayyan nazariyasini aks ettirgan)ning kengligi bo`yicha alohida, mustaqil, lekin o`zaro bog`langan va optimal bo`lgan qismlardan iboratdir.

To`g`ridan-to`g`ri va qayta aloqa uchun zarur bo`lgan axborotlar to`plami bilish harakatlarini va qoidalarining ta'limiy programma odimini hosil qiladi. Bu odim tarkibiga uch o`zaro aloqador kadr (zveno) qo`shiladi: axborot, qayta aloqa tadbiri va nazorat. Odimlovchi o`quv tadbirlari izchilligi programmashtirilgan o`qitish texnologiyasi tashkil etuvchi ta'limiy programmani hosil qiladi.

O`qitishda individual namuna va boshqaruv tamoyili davom ettiriladi. Bu tamoyil ta'lim oluvchining har biriga shunday axborot jarayonini yo`naltiradi va tavsiya etadiki, u ta'lim oluvchiga mashq jarayonida, tezlikda oldinga siljishda imkoniyat beradi, chunki uning bilish

kuchi unga muvofiq ravishda boshqaruvchi tomonidan uzatilgan axborotga, moslashishga qulay bo'ladi.

Programmalashtirilgan o'quv materialini uzatish uchun maxsus texnik vositalardan foydalanish tamoyili.

Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasini ilmiy asoslash bir qator ta'limiy farqlash imkoniyatini beradi:

- Ravon programmalar;
- Tarmoqlanuvchi programmalar;
- Soddalashtirilgan programmalar;
- Aralash programmalar;
- Algoritm;
- Blokli o'qitish;
- Modulli o'qitish;
- Bilimlarni to'la o'zlashtirish;

Ravon programmalar – bu nazorat topshiriqlari va o'quv axborotlarining almashib turuvchi u qadar katta bo'lmagan bloklarining ketma-ketligidir.

Chiziqli dasturlar

1- odim
1-kadr 2-kadr 3-kadr
Axborot-mashq-nazorat

2- odim
1-kadr 2-kadr 3-kadr

Ravon programmada ta'lim oluvchi to'g'ri javob berishi shart, ba'zan ehtimol deb topilgan javoblardan birini shunchaki tanlaydi. To'g'ri topilgan javobda u yangi o'quv axborotiga ega bo'ladi, agar javob to'g'ri chiqmasa, axborotni qaytadan o'rganishga tavsiya etiladi.

Tarmoqlanuvchi programma. Ta'lim oluvchi noto'g'ri javob berganda, unga qo'shimcha o'quv axboroti beriladi va u ta'lim oluvchiga nazorat topshiriqlarini bajarish, to'g'ri javob qaytarish va o'quv axborotlarining yangi bo'laklarini olish imkoniyatini beradi.

Tarmoqli dastur

1-asosiy odim
1-kadr 2-kadr 3-kadr

2-asosiy odim
1-kadr 2-kadr 3-kadr

1-tarmoqlanish	A variant	2- Tarmoqlanish
	1-kadr 2-kadr 3-kadr	
	B variant	
	1-kadr 2-kadr 3-kadr	

Soddalashtirilgan programma. U ta'lim oluvchiga yangi o'quv materialini murakkablik darajasiga qarab tanlab olish, uni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu tarzda o'zgartirish, oddiy ma'lumotnoma, lug'at va qo'llanmalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Aralash programma. U ravon, tarmoqlanuvchi, soddalashtirilgan programma bo'laklarini o'zida qamrab oladi.

Algoritm. U aqliy va amaliy tadbirlar izchilligini belgilovchi tafsilotdir. U o'qitishning mustaqil vositasi hamda ta'limiy programmalarining qismi bo'lishi mumkin.

Blokli o`qitish. Bu moslashuvchan programma asosida o`qituvchilarning turli-tuman intellektual tadbirlar va egallagan bilimlaridan o`quv vazifalarini echishda foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Quyidagi izchil bloklar farqlanadi:

- axborot bloki;
- test-axborot (o`zlashtirishni tekshirish);
- korreksion-axborot (noto`g`ri javob qaytarilganda qo`shimcha o`qitish);
- muammoli blok: olingan bilimlar asosida vazifalarni echish;
- tekshirish va korreksiya bloki.

Modulli o`qitish. U modullar bo`yicha tuzilgan o`quv programmalarini asosida o`qitishni tashkil etishdir. Modul kurs mazmunini uch sathda qamrab oladi; to`la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan. Programma materiallari bir vaqtning o`zida barcha ehtimol ko`rilgan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so`z bilan berilishi mumkin.

O`qitish moduli o`quv materialining avtonom (mustaqil) qismi bo`lib, quyidagilardan tashkil topadi:

- aniq ifodaga ega bo`lgan o`quv maqsadi (maqsadli programma);
- axborotlar banki: o`qitish programmasi shaklidagi ayni o`quv materialini;
- maqsadlarga erishish bo`yicha qo`llanma;
- zaruriy malakalarni shakllantirish bo`yicha amaliy mashg`ulotlar;
- qo`yilgan modul maqsadiga qat`iy muvofiq keluvchi nazorat ishi.

Bilimlarni to`la o`zlashtirish texnologiyasi. O`quv materiallari bir necha bo`laklarga bo`linadi: o`zlashtirilishi tegishli bo`lgan o`quv unsurlari, undan so`ng bo`limlar bo`yicha tekshirish uchun materiallar ishlab chiqiladi, undan so`ng o`qitish, tekshirish – joriy nazorat, korrektirovka va qayta o`zgartirilgan tarzda ishlab chiqish – o`qitish.

2.3. ISHBILARMONLAR VA DIDAKTIK O`YINLAR

O`yinlarning tarbiyadagi ahamiyati, o`yinlar turlarining keng ravishda yoritish, o`yin o`tkazish uchun tayyorlash, o`yin turlari, o`yinni yakunlovchi aniq tushuntiriladi.

O`yin olimlar tadqiqotlariga ko`ra mehnat va o`qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlar ta'kidlaydilar ki, o`qishga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog`liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o`yin o`ziga xos bo`ladi.

O`yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag`ishlangan bo`ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o`z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Tadqiqotchilar o`yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar, o`yinlarning muhim qirralari S.A.Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi.

O`yin ijodiylik bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – “ijod maydoni”ga ega bo`ladi.

O`yin uchun hissiy ko`tarinkilik xosdir. U o`zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo`ladi.

O`yinining o`yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko`zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalar bo`lishini ko`rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o`yinga faoliyat, jarayon va o`qitish uslubi sifatida qaraydilar.

O`yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o`z imkoniyatlarini to`la amalga oshiradi.

O`yinli faoliyatni motivatsiyalash o`yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o`zini namoyon qila olishi, o`z imkoniyatlarini amalga oshirish, ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o`yin tuzilmasi (G.K.Selevko ta'biricha) quyidagilarni o`z ichiga qamrab oladi:

- o`ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo`lgan o`yin harakatlari;
- predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o`yin narsalari o`rnida qo`llash;
- o`yinda ishtirok etuvchilarning real o`zaro munosabatlari;
- o`yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun) – ijro sohasi;

O`yindan tushunchalar, mavzu va hatto o`quv predmeti bo`limini o`zlashtirishda o`qitish uslubi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator uslublari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o`yinlar “o`yinli pedagogik texnologiyalar” ni tashkil etadi.

Pedagogik o`yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo`yiladi.

Pedagogik o`yinlar asosida talabalarni o`quv faoliyatiga yo`llovchi o`yinlar usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K.Selevko tomonidan pedagogik o`yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo`nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o`yinlar quyidagi asosiy yo`nalishlarda bo`ladi:

- didaktik maqsad o`yinli vazifa shaklida qo`yiladi;
- o`quv faoliyati o`yin qoidalariga bo`ysunadi;
- o`quv materialidan o`yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o`quv jarayonida didaktik vazifa o`yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi.

Didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o`yin natijalari bilan bog`lanadi.

Tadbirkorlik o`yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

- Ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o`quv materiali mazmunining izchilligi;

- O`yinli o`quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;

- O`quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug`dirish va ularni amalda qo`llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;

- O`yinning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligi yig`indisi;

- O`yinni olib boruvchi o`qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan talabalarining o`z hatti-harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o`tishini ta'minlashi.

Tadbirkorlik o`yini tayyorlashning ijtimoiy-psixologik muammolariga quyidagilar kiradi:

- Ishtirokchilarni tanlash;
- Rollarni taqsimlash;
- O`yin rahbarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash;
- Ijtimoiy psixologiya bo`yicha umumnazariy bilimlarni egallash;
- Nazariy bilimlarini amalda qo`llay olish;
- Shaxsiy tayyorgarlik.

Tadbirkorlik o`yinlarining didaktik funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- Talabalarda aqliy faoliyat usullarining shakllanishi;
- Bilimlarni mustahkamlash va qo`llash;

- O`quv jarayonida bo`lg`usi mutaxassisning faoliyati faqat o`rganish emas, balki uni bajarishga qaratilgan didaktik qoidalar ishlab chiqishdan iborat bo`lishi;

Talabalar o`quv-bilish faoliyatining bo`lg`usi kasbiy faoliyati, xarakteri va tuzilmasiga maksimal darajada yaqinlashib borishi.

Tadbirkorlik o`yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

- O`quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig`i shaklida qo`yish;
- Bo`lg`usi tadbirkorlik o`yinining maqsadini aniqlab olish;
- Muammoli vaziyatni anglab etish;
- Talabalarga navbatdagi tadbirkorlik o`yini haqida dastlabki ma'lumotlar berish;
- Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo`lgan avval egallangan bilimlardan foydalanish;

- Talabalarining o`qituvchidan yoki adabiyotlarni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni qabul qilib olishi;

- Bajarilishi lozim bo`lgan ish to`g`risida talabalarga yo`l-yo`riqlarni ko`rsatish;
- Olingan bilim,, o`zlashtirilgan ilmiy tushunchalar va ishlash uslublarini umumlashtirish;

- O`z-o`zini nazorat qilish;

3. Tadbirkorlik o`yinlarining shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo`lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.

4. Navbatdagi ishni rejalashtirish;

Ularga avval ma'lum bo`lganlar asosida uning ayrim bosqichlarini bajarish usullarini tanlash;

Avval egallangan bilimlar asosida tushuntirish ishini olib borish va o`z ijodi uchun zarur bo`lgan yangi uslublarni qidirish;

Rejalashtirishni mustaqil nazorat qilish.

5. Vazifa shartlari, ularning bajarilishini tushuntiruvchi qoidalar (materiallar)ni o`rgatish va tahlil qilish bo`yicha mustaqil ishlar va tadbirkorlik o`yinlaridagi o`z mavqeini aniqlash.

6. O`zlaridagi bor bilim, malaka va ko`nikmalar asosida reja bo`yicha ishlarni bajarish;

Yangi bilim va malakalarni hosil qilish;

O`z hatti-harakatlari va ularning natijalarini muntazam nazorat qilish;

qayd qilingan kamchiliklar va ularning sabablarini bartaraf qilish;

belgilangan rejalarni (reja oldi ishlari va rejadan tashqari) takomillashtirish;

yakuniy natijalarni tekshirib ko`rish va tahlil qilish.

7. Talabalar faoliyatini. Ularning bilimi, malakasi va ko`nikmalarini nazorat qilish va joriy yo`l-yo`riqlar berish.

8. Talabalarining tadbirkorlik o`yinlariga tayyorligini aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko`rish.

9. Talabalarga tadbirkorlik o`yinlarini o`tkazish va unda qatnashish bo`yicha yo`l-yo`riqlar berish, ularni rol o`ynash bo`yicha taqsim qilish, zarurat tug`ilganda har biriga qo`shimcha yo`l-yo`riqlar berish.

10. Oldindan ishlab chiqilgan stsenariy bo`yicha talabalarining tadbirkorlik o`yinlari.

11. O`yin ishtirokchilariga joriy yo`l-yo`riqlar berish.

12. O`yin ishtirokchilarining o`yin davomida o`zi o`ynagan rollariga baho berishi, o`z-o`zini nazorat qilishi.

13. Tadbirkorlik o`yini natijalarini muhokama qilish va talabaning o`quv-o`yin faoliyatiga baho berish.

Shunday qilib, tadbirkorlik o`yinlari materiallarni yangi bilimlarni egallash, o`tilganlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni echishda foydalaniladi.

Tadbirkorlik o`yinlarining bir necha modifikatsiyalari mavjud:

Imitatsion o`yinlar.

Bunday o`yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarning biror faoliyati (ish bitirish majlislari, rejani muhokama qilish, suhbatlar o`tkazish va b.), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi mumkin.

Stsenariyda bunday o`ynash to`la tuzilmasi yozib chiqiladi va imitatsiya qilinadigan ob'ektlar va jarayonlar belgilanadi.

Operatsion (voqeiy) o`yinlar.

Bunday o`yinlarda aniq o`ziga xos voqea-hodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o`yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi.

Rol ijro etish o`yinlari. Unda aniq shaxsning xulqi, hatti-harakati, o`z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktika mashq qilinadi.

Tadbirkorlik teatri.

Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o`ynaladi. Bu o`yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo`ljalni to`g`ri baholay olishni o`rgatish, o`zining xulqiga to`g`ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish, ular bilan muloqat o`rnata olishga o`rgatishdir.

Psixodrama va sotsiodrama.

Bu ham o`ziga xos “teatr”, lekin ijtimoiy psixologik maqsadni ko`zlaydi. Uning asosiy maqsadi jamoada vaziyatni his qila olish, boshqa kishining holatini o`zgartirish va unga baho berish, u bilan samarali muloqatga kirisha olishni shakllantirish hisoblanadi.

Oliy maktab muammolarining tadqiqotchilari quyidagi tadbirkorlik va evristik o`yin turlarini farqlaydilar:

Mutaxassislar orasida o`z vazifalarini, dasturlar va rollarini taqsim qilish asosidagi tadbirkorlik va evristik o`yinlar. Bunday mutaxassislar sirasiga quyidagilar kiradi:

- Kelgusida ishlash kutilayotgan muassasada faol ijodiy ishlovchilarni va ularni ishlab chiqishda, aniqlash bilan band bo`lgan “vazifa tadqiqotchilari”;

- Ijodiy guruhdagi barcha ishtirokchilarning faolligi sathida shu guruhning o`ziga xos katalizatorlik vazifasini bajaruvchi “faollashtiruvchilar”;

- Ilmiy muammoning echimiga yordam beradigan yo`llar va betakror fikrlar taklif qiluvchi “g`oyalar ishlab chiquvchi” talabalar;

- G`oyalarning tug`ilishiga va ularning boshqa ijodiy guruh a'zolari tomonidan idrok qilinishiga yordam beradigan “rezonator” (tarqatuvchi) talabalar;

- Ijodiy guruhdagi barcha ishtirokchilarning faolligi sathida shu guruhning o`ziga xos katalizatorlik vazifasini bajaruvchi “faollantiruvchilar”;

- Ilmiy muammoning echimiga yordam beradigan yo`llar va betakror fikrlar taklif qiluvchi “g`oyalar ishlab chiquvchi” talabalar;

- G`oyalarning tug`ilishiga va ularning boshqa ijodiy guruh a'zolari tomonidan idrok qilinishiga yordam beradigan “rezonator” (tarqatuvchi) talabalar;

- Muammoni echishning eng maqbul (optimal) variantini qayta ishlab chiqish va topish bilan band bo`lgan “nazoratchi” talabalar.

Tadbirkorlik o`yinlarining texnologik sxemasi

Tayyorgarlik bosqichi	O`yinni ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> • stsenariy yaratish • tadbirkorlik o`yini rejasi • o`yinning umumiy tavsifi • yo`l-yo`riqlar mazmuni • moddiy ta'minot tayyorgarligi
-----------------------	------------------------	---

	O`yinga kirishish	<ul style="list-style-type: none"> • muammo, maqsadni aniqlab olish • shartlari, yo`l-yo`riqlar berish • reglament, qoidalar • rollarga taqsim qilish • guruhni shakllantirish • maslahat (konsultatsiya)
--	-------------------	---

O`tkazish bosqichi	Vazifani guruh bo`lib ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> • manbalar bo`yicha ishlash • trening • “fikrlash xujumi” • o`yin texnikasi ustida ishlash
	Guruhlararo munozara	<ul style="list-style-type: none"> • guruhlarning chiqishlari (fikrlari) • natijani himoya qilish • munozara qoidasi • ekspertlar ishi

Tahlil va umumlashtirish bosqichi	<ul style="list-style-type: none"> • o`yinni to`xtatish • tahlil refleksiya • o`yinni baholash va o`z-o`zini baholash • xulosalar va umumlashtirishlar • tavsiyalar
-----------------------------------	--

Bunday o`yinni muayyan ob'ektda o`tkazish maqsadga muvofiqdir. Rahbarlar va o`qituvchilar oldindan rollarni belgilab qo`yadilar. Masalan, agar o`yin konstruktorlik byurosining tuzilmasini o`zlashtirishga qaratilgan bo`lsa, quyidagilar belgilanadi:

“KB boshlig`i”

“Bosh konstruktor”

“Ixtirochi”

“Opponent”

“Chizmakash”

“Tekshiruvchi”

“Maslahatchi”

“Nazoratchi” va b.

Shundan so`ng quyidagilar tuzib chiqiladi:

- har birining egallaydigan vazifalari va hatti-harakatlarining bahosi bo`yicha yo`riqnoma;

- o`yin jarayonining asosiy davriyligi bo`yicha dastur ishlab chiqiladi.

Ijodiy faoliyatning biror bosqichida muayyan strategiya, taktika va uslublarni qo`llash malakasini shakllantirishga qaratilgan tadbirkorlik va rol o`yinlari.

Masalan, “ilmiy-tadqiqot ishlarida ma`ruza, munozara” tarzidagi o`yin.

Bu o`yindagi asosiy rollar quyidagicha bo`lishi mumkin:

“Boshlovchilar” – o`qituvchi ishlab chiqarish mutaxassis;

“Peshqadamlar” – muhokama qilinadigan muammoning muayyan masalasi bo`yicha vaziyatni tasavvur qila oladigan ma'ruzachilar;

“Bezakchilar” – peshqadamlarning ma'ruzalari va chiqishlarini ko`rgazmali tasavvur etishlari va tushuntirishlarini ta'minlovchi o`yin ishtirokchilari.

“Assistentlar” peshqadamlar yordamchilari bo`lib, ular peshqadamlarga va opponentlarga ko`rgazmali chiqishlariga yordam beruvchi o`yin ishtirokchilari.

“Rasmiy opponentlar” – peshqadamlarning ma'ruzasi va boshqa materiallar bo`yicha rasmiy tanqidiy ruhda chiqish qiluvchilar;

“Norasmiy opponetlar” – muammo bo`yicha guruh bo`lib yoki mustaqil ilmiy-tadqiqot olib boruvchi barcha boshqa talabalar – o`yin ishtirokchilari;

“Chalg`ituvchilar” - korxonada yoki ilmiy muassasada qo`shimcha salbiy hodisa, faktlarni bayon qilish asosida o`yin ishtirokchilarining faolligiga sabab bo`ladigan savollar qo`yishi lozim bo`lgan o`yin ishtirokchilari. Korxonada yoki ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o`quv yurti o`qituvchilari, ilmiy xodimlari, aspirant, talabalar bu “vazifa”ni bajarishlari mumkin.

“Registratorlar” – munozaralarni yozib oluvchi o`yin ishtirokchilari;

“Ekspertlar” – ma'ruza muhokamasidagi chiqishlar va echimning guruh bo`lib qabul qilinishi bo`yicha ob'ektiv baho beruvchi o`yin ishtirokchilari. Bu vazifada korxonada va ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o`quv yurti o`qituvchilari va ilmiy xodimlari, aspirant va talabalar qatnashishlari mumkin.

Bunday o`yinlarda quyidagi asosiy vazifalar hal qilinadi:

Bo`lg`usi mutaxassisni axborotlar almashishga o`rgatish;

Ularda o`z nuqtai nazarlarini asoslash va himoya qilish, boshqa kishilarning g`oyalariga kirib bora olish, guruh bo`lib echim qabul qila olish malakasini shakllantirish.

So`fiyona yondashuv. Unda tomonlardan biri o`z raqibini donolik qilib mag`lub qilishi ham mumkin.

Avtoritar yondashuv. Unda tomonlardan biri o`zining obro`sidan foydalanib, o`z nuqtai nazarini o`tkazishi mumkin.

Tanqidiy yondashuv. Bahs ishtirokchilaridan ba'zilari o`z raqibining faqat kamchiligi, kuchsiz o`rni va mavqeiga diqqatni jalb qiladi va aksincha, raqibining fikridagi ijobiy unsurlarni ko`rishga intilmaydi va muammoning echimi bo`yicha o`z takliflarini ham bera olmaydi.

Dogmatik yondashuv. Unda tomonlardan biri bahsni haqiqatni o`z manfaati uchun o`zining shaxsiy maqsadlariga muvofiq keladigan tomonga boshlab ketadi.

Pragmatik yondashuv. Ishtirok etuvchilardan biri va har bir tomon faqatgina haqiqatni o`rnatish uchungina bahs yuritmaydi, balki undan o`zlarining yashirin va bahs ishtirokchilariga ma'lum bo`lmagan amaliy manfaatlariga burish uchun foydalanadi.

Bahsni o`tkazishda quyidagi qoidalarga ahamiyat berish lozim:

- opponentning o`z fikrini asoslovchi so`zini tinglab, kuzatib borishi;

- opponentini so`zlashdan to`xtatib qo`yishga shoshilmasligi;

- mayda-chuyda detallarga e'tibor qaratmasligi, eng muhimini ko`rishga, tushunishga harakat qilishi;

- kuchsiz o`rinlar, dalil-isbotlar, misollarni topish va tahlil qilish;

- opponentini o`zidan kuchli deb hisoblamaslik;

- o`ziga haddag tashqari bino qo`yish va ishonishga ruju bermaslik;

- qo`rqish-raqib oldida mag`lubiyat ekanligini esda tutish.

Namuna “Bahsda g`olib kelish san'ati”. (P.I.Pidkassistoy tomonidan ishlab chiqilgan o`yin).

Bu o`yin 2,3 soatga mo`ljallangan.

O`yinning maqsadi – talabalarning bahs-munozara olib borish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish va baholash.

Munozara – bahsning muammolari. Bahs-munozaraga olib chiqiladigan muammo talabalar uchun dolzarb va qiziqarli bo`lishi kerak.

Namuna tariqasida quyidagi savollarni qo`yish mumkin:

Mening ijodiy, raqobatbardoshlik shaxsiyatim g`oyasi qanday?

Shaxsning ijodiy, ziyolilik, raqobatbardoshlik xususiyati nimalardan ko`rinadi?

Shaxsning mustaqil rivojlanish jarayonini men qanday tasavvur qilaman?

Bozor iqtisodi munosabatlari sharoitida o`zimni qanday unga bahshida qilaman?

O`yin ishtirokchilarining rollari va vazifalari.

Boshlovchi – o`qituvchi o`yinning ma'nosi, asosiy bosqichlari va ishtirokchilarning vazifalarini aytib beradi.

Ikki raqobatbardosh 7-20 kishidan iborat guruhlar yuqoridagi savollar bo`yicha munozaraga kirishadilar.

Boshlovchi – o`qituvchi o`yinni lozim topgan oqimga yo`llab turadi, uning a'zolari faolligini ta'minlab turadi, munozaraning to`g`riligini kuzatadi, unga yakun yasaydi.

Ekspert- talabalar munozara ishtirokchilariga baho beradi, guruhga va uning a'zolariga quyidagi me'yorlarga asoslangan holda baho qo`yadi:

A. Ifodaning mantiqiyliigi va asoslanganligi;

B. Nutq madaniyati, notiqlik san'ati usullarini egallaganligi;

V. xulosalarning isbotliligi;

G. bahs usullaridan rang-barang va samarali foydalanishi;

D. savollar qo`ya olishi va b.

O`yin bosqichlari.

Birinchi bosqich tashkiliy bosqichdir. Unda rahobatga kirishuvchi jamoalar va ekspertlar guruhi shakllantiriladi. O`qituvchi o`yinning maqsadi va qoidalarini bayon qilib beradi.

Ikkinchi bosqich o`yin jarayonidir. O`yin davomida jamoalar olishlari mumkin va unda munozarani kutilmagan darajada yangi o`ylash va topish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

Uchinchi bosqich o`yinga yakun yasashdir. Bu bosqichda ekspertlarning har biriga o`z mulohazalarini bildirish uchun imkoniyat beriladi, ular esa o`z baholarining me'yorlarini hamda bahs-munozara ishtirokchilarining chiqishlari natijalarini asoslab beradilar.

Ekspertlar vazifasi:

Jamoaning g`alabasini asoslash;

A. o`yin ishtirokchilaridan eng xushmuomala;

B. eng aqlli;

V. eng obro`li;

G. eng ijodkorlarini aniqlab beradi.

O`yin yakunida o`qituvchi o`yinni tahlil qilib beradi va yakun yasaydi. Ayniqsa, o`qituvchi o`yinning borishi, uning muvaffaqiyati va kamchiliklariga urg`u berishi lozim. Shuningdek, istiqbolda e'tibor berilishi kerak bo`lgan muvaffaqiyatli, munozarali, ijodiy vaziyatlarni farqlab berishi kerak.

O`yinli texnologiyalarni amalga oshirish bo`lg`usi mutaxassisning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uslublaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish uslublariga ilmiy tafakkurni jonlantirish, yangi muammolarni echish malakasini ishlab chiqishga, muammolarni echishda ongli izlanishga olib keladigan uslublar taaluqlidir.

Ijodiy faoliyatni rivojlantirish uslublari G.S.Altshuller, O.G.Bogdanova, A.V.Brushlinskiy, G.Melxori, B.Mironov, P.Yakobson va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

TORTISHUV.

O`yin haqida tushuncha:

O`yinchilar ikki jamoaga bo`linib, bir chiziq chetida saf tortadilar. O`yinchilar birlarida qarshi turadilar. Xushtak chalinishi bilan har bir jamoa o`yinchisi raqib jamoa

vakilini o'z tarafiga kuch bilan tortib, chiziqni bosib o'tishga majbur qiladi. Chiziqdan o'tib ketishga majbur qilgan har bir o'yinchi qo'lini ko'taradi, buni rahbar ochko hisobida sanab turadi.

Qoidasi:

Bunday tortishuv paytida o'yinchilardan birining ikki oyog'i chiziqdan o'tib ketsa, hisobga kiradi. Bahs paytida raqibning kiyimidan tortish mumkin emas.

Boshqacha usullar:

Jamoa yoki juft bo'lib o'ynash;

O'yinni bir qo'l (o'ng yoki chap) bilan o'tkazishga ham ruhsat bor.

SAKROVCHI CHUMCHUQCHALAR

O'yin haqida tushuncha: 3 metrli doira ichida o'yin boshlovchi turadi. Qolgan o'yinchilar doira chetida bo'lalilar. O'yinchilar, ya'ni chumchuqcha bolakaylar doira ichi va tashqarisida sakray boshlaydilar. O'rtadagi boshlovchi ularni ishlashga, sakrashga ulgurmaganolarni tutishga harakat qiladi.

Qoidasi: Sakrayotganda doira ichidan chiqolmay qolgani ushlangan hisoblanadi. O'rtadagi o'yinchi ana shunday ikki-uch "chumchuqcha"larni tutgandan keyin o'zni almashtiriladi.

Boshqa usullar.

Doira ichiga bir oyoqlab sakrashda ruhsat beriladi.

HIMOYACHI

O'yin haqida tushuncha: Doira o'rtasida boshlovchi turadi. Doira markazida ikkita kegli bo'ladi. Qatnashchilar esa doira atrofidan joy oladilar. Ularning vazifasi doiradagi keglini qo'lga kiritish, o'rtadagi boshlovchiga chap berish. Qaysi o'yinchi osha keglini olib chiqsa, u boshlovchi o'zini egallashi mumkin.

Qoidasi: O'yinchilarga bahs paytida doira ichiga bir qadam qo'yishlariga ruhsat beriladi. Qaysi o'yinchi o'rtadagi boshlovchiga tegib ketsa, o'yindan chiqadi.

Boshqa usullar.

Doira tashqarida turgan o'yinchilarni soat millari holatiga joylashishlariga ruhsat beriladi.

QOCHISHGA URINISH

O'yin haqida tushuncha: Birinchi jamoa a'zolari qo'llarini ushlab, davra hosil qiladi. Ikkinchi jamoa esa ana shu davra o'rtasida qoladi. Ularning vazifasi qurshovdan chiqishdan iborat.

Qoidasi: Qaysi jamoa qurshovda ko'proq bolalarni ushlab qolsa, yutgan hisoblanadi.

Boshqa usullar.

Birinchi jamoa bolalarini ko'paytirish;

Ikkinchi jamoa a'zolari birinchisidan son jihatidan ko'proq bo'lishi mumkin.

KVADRAT ICHIDA BAHS

O'yin haqida tushuncha: Maydonchada uchta kvadrat: 3x3, 2x2, 1x1 chiziqlari chiziladi. Birinchi kvadratga to'rt o'yinchi chorlanadi. Xushtakkacha ular qo'llar orqaga, bir oyoqda turish holatini oladilar. Shunday holatda o'yinchilar xushtak chalishlari bilan bir-birlarini elkalaridan itara boshlaydilar. Kimki bunday harakatlardan keyin kvadrat chiziq ichida qolsa, to'rt ballga ega bo'ladi. Qolgan uch o'yinchi esa 2x2 kvadratiga o'tadi va yana bahs davom etib, qolib 3 balli bo'ladi. Ikki o'yinchi eng kichik 1x1 kvadratida kurashni davom ettirib, g'olibga ikki ball beriladi.

Qoidasi: Bahs paytida qo'pol turtishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Boshqa usullar.

O`yin paytida o`yinchilarga boshdan ushlashga ruhsat beriladi, bu esa o`yinni murakkablashtirib qizg`in tus olishiga yo`l ochadi.

CHIZIQ UZRA KURASH

O`yin haqida tushuncha: O`yinchilar ikki jamoaga bo`linib, bir chiziq chetida saf tortadilar. Har bir jamoa o`yinchisi raqib jamoa vakilini o`z tarafiga kuch bilan tortib, chiziqni bosib o`tishga majbur qiladi. Chiziqdan o`tib ketishga majbur qilgan har bir o`yinchi qo`lning ko`taradi, buni rahbar ochko hisobida sanab turadi. Ochkolar jamg`armasi ko`paygan jamoa g`olib sanaladi.

Qoidasi: Bunday tortishuv paytida o`yinchilardan birining ikki oyog`i chiziqdan o`tib ketsa, hisobga kiradi. Bahs paytida raqibning kiyimidan tortish mumkin emas.

Boshqa usullar.

Jamoa yoki juft bo`lib o`ynash; o`yinni qo`l (o`ng yoki chap) bilan o`tkazishga ham ruhsat bor.

2.4. TA'LIMNING INTERAKTIV USLUBLARI

Tashkiliy fikrlashni o`stirishga xizmat qiladigan uslublar “Demokratik ta'lim uchun” konsortsiumi tomonidan amalga oshiriladigan “Tanqidiy fikrlash uchun o`qish va yozish” loyixasi doirasida ishlab chiqilgan. Konsortsiumning a'zolari: xalqaro o`qish assotsiatsiyasi, Xobart va Ulyam Slims kollejlari va shimoliy Ayvova shtat universiteti. Bu loyixani Nyu-York ochiq jamiyat instituti va Markaziy Osiyo to`g`risidagi Markaziy va Sharqiy Evropadagi Soros fondi mablag` bilan ta'minlaydi.

Bu paragrafda uslublar mazmuni mazkur loyixa materiallariga muvofiq ravishda yoritiladi.

Tanqidiy fikrlashning faol uslublarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar: Tanqidiy fikrlash nima?

Fikrlash – o`qish, yozish, so`zlash va eshitishga o`xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o`zida biror haqiqat to`g`risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko`nikma emas.

Tanqidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik hayotining umumiy kontekstdan yiroqlashgan sharoitda o`rganilishi lozim bo`lgan xodisa ham emas.

Braun (1089) ta'kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o`quv ko`nikmalari ta'lim oluvchilarga ob'ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko`nikmalarni yangi vaziyatlarda qo`llay olmaydilar.

Rixer ta'biri bo`yicha o`rganish va fikrlashning ta'rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta'limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

Fikrlarni muayyan g`oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o`z g`oyalarini to`la va aniq ifodalay olish.

Izn. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo`lishi uchun talabalar ma'qul va noma'qul narsalarni aytishi ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruhsat olishlari lozim. Talabalar yo`l qo`yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar.

Tanqidiy tahlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo`lgan do`stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. Talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g`oyalar paydo bo`ladi.

Rang-barang fikr va g`oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog`dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo`yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo`lgan taqdirda xilma-

xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

Faollik. Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bogʻlangan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar boʻlishadi, chunki ularda oʻqituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari oʻqituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. Oʻquv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va oʻqishlariga oʻzlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, oʻz gʻoyalari va fikrlari bilan oʻzaro oʻrtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini oʻstiradi.

Mixali Chikjentmixaliy (1975) ta'kidlaydiki, talabalar oʻsha murakkab darajadagi oʻquv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va oʻzlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar.

Tavakkalchilik. Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qoʻrqmay insonlarni ragʻbatlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida "ahmoqona gʻoyalar" aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham boʻlishi mumkin. Oʻqituvchi buni oʻquv jarayonining tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim.

Talabalarni tavakkaldan holi boʻlgan, ya'ni gʻoyalar qadrlangan, talabalarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkoni boʻlgan muhitda oʻylash lozimligiga ishonch hosil qilish zarur.

Qadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashdir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar oʻz gʻoyalari, tasavvurlarining oʻqituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan holda chuqur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar.

Talabalar oʻz fikrlash jarayonini qadrlashni qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda boʻla boshlaydilar.

Tanqidiy tekshirib koʻrish.

Tanqidiy tekshirib koʻrish

Koʻchirish, izohlash
Axborotlarni yangi shaklga koʻchirish gʻoyalar, fat va qadriyatlar orasidagi aloqalarni aniqlash.
Xotira (formal sath), axborotni bilish va chorlash.
Tadbiq. Savollarni tartibga keltirish, muammoni echish.
Tanqidiy tekshirib koʻrish.
Baho. Tushuncha va boshqalarga baholarning ta'siri.
Tahlil. Yalpi tushunish va anglashni hal qilish ma'nosida boʻlinmalarni qarab chiqish.
Sintez. Nodir yoki betakror shakllarda tizib chiqish, yangi stsenariylar, shartlar natijalar yaratish.

Formal sath savollari faktologik axborot olish maqsadida beriladi. Ular faqat mexanik eslashni va talabalarda yaxshi javob berish uchun qisqa muddatda ma'lum predmetlar boʻyicha bilim qismlari (fragment)ni talab qiladi.

Axborotlarni bir shakldan ikkinchi shaklga koʻchirish talabalardan uni koʻchim (transformatsiya) qilishni talab qiladi, savollar talabalarga oʻrganayotgan, tavsiflangan va koʻrgan vaziyatlari, sahnalari va voqealarini oʻzlari namoyish eta olishlari uchun beriladi. Koʻchirish savollari talabalarni axborotlarni qayta ishlash yoki boshqa shakllarga koʻchim qilishga ilhomlantiradi. Talabalarga sezish, koʻrish (sensor) tajribasini yaratish, shundan soʻng boshqalarga oʻz koʻrganlarini etkazish uchun e'lon qilish zarur. Bu fikrlashga tortishning faol ijodiy jarayonidir.

Talabalarga g'oyalar, faktlar, qaydlar va qadriyatlar orasidagi bog'lanishlarni ochish uchun izohlashga qaratilgan savollar beriladi. Sendrs izohlashga qaratilgan savollarga nisbatan yuqori darajadagi fikrlashni talab qiladigan tayanch savollar deb qaraydi, boshqalari esa (Vogi va Estes) tushunishning o'zigina izohlashdir deb hisoblaydilar.

O'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab sifatida xizmat qiladi.

Talabalarning tanqidiy jalb qilinishiga bir qator umidlar bildiriladi.

Kubiklar.

Kubiklar (kovan va kovan 1980) – bu dars o'qitish uslubiyati bo'lib, u o'zgaruvchan perspektivalar mavzuni o'rganishni osonlashtiradi. Har tomonidan to'rt talablar berilgan kubiklardan foydalaniladi, kubikni biror quticha olib yoniga qog'ozlar yopishtirish bilan yasash mumkin, tomonlari 15-20 santimetr bo'lgani yaxshi, kubikning oltita tomoniga quyidagi ko'rsatmalarni yozadilar: buni tasvirlab bering, buni tushuntirib bering, o'qituvchilar o'quvchilarni kubik tuzish joriyligidan boshlab borib belgilangan mavzu bo'yicha yozma ishga (2-4 minut) ularga qisqa vaqt beriladilar, bu jarayon shunday olib boriladi. Birinchidan, mavzu beriladi, shundan keyin o'quvchilarga mavzu haqida o'ylab ko'rish, chiqib uni qanday ko'rayotgan bo'lsalar shunday tasvirlash so'raladi, rangi, shakli, belgilari va shu kabilar. Shunday ko'rsatmalar bilan yo'naltirilgan talabalar belgilangan vaqt davomida, ma'lum mavzu bo'yicha erkin fikrlab, yozib boradilar.

Bu jarayon kubikning oltita tomonida ko'rsatilganidek davom etadi: Kubikning oltita tomoni uchun ko'rsatkichlari quyidagicha: tasvirlang, predmetga diqqat bilan qarang (faqat o'z xatingizda bo'lishi mumkin) va nimani ko'rsatayotganini chizmani tasvirlab bering. Rangi, shakli, hajmi.

Buni taqqoslang, bu nimaga o'xshaydi?

U nima bilan farqlanadi.

Sabablarini tushuntirib bering, u sizni nimalar haqida o'ylashga majbur etmoqda? Bular o'xshash yoki turli narsalar bo'lishi mumkin: buyumlar, odamlar, joylar.

Siz faqatgina o'z hayotingizga erkinlik bering va bu predmet sizga nimani aytishini tasavvur eting.

Buni tahlil qiling. Aytingchi, uni qanday yasadingiz (sizga buni bilish shart emas, buni o'ylab toping).

Buni qo'llang: Aytingchi, siz u bilan nima qila olasiz? Undan qanday foydalanish mumkin?

Buning uchun sabablarini asoslab bering.

Ishonchli dalillar topishga harakat qiling har qanday asos kubikning uch tomonini tiklaydilar va ular bo'yicha o'z fikrlarini aytadi, o'z sherigiga nima yozganini o'qib beradi.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlash berilgandan rivojlangan g'oyani ishlab chiqish sifatida qaraladi. Bular mavzuda g'oyalar orasidagi farqlarni topishdan iborat. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga amalda savollar yordamida erishish mumkin:

- tahmin qilishga savol;
- sintez qilishga;
- sharhlashga savol;
- qo'llashga savol.

2.5. KADRLAR RAQOBATBARDOSHLIGI VA MALAKA SIFATI

Blokni o'qitish. Bu moslashuvchan programma asosida o'qituvchilarning turli-tuman intellektual tadbirlar va egallagan bilimlaridan o'quv vazifalarini echishda foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Quyidagi izchil bloklar farqlanadi:

axborot bloki;

test-axborot (o'zlashtirishni tekshirish);

korreksion-axborot (noto'g'ri javob qaytarilganda qo'shimcha o'qitish);

muammoli blok: olingan bilimlar asosida vazifalarni echish; tekshirish va korreksiya bloki.

Modulli o`qitish. U modullar bo`yicha tuzilgan o`quv programmalarini asosida o`qitishni tashkil etishdir. Modul kurs mazmunini uch sathda qamrab oladi; to`la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan. Programma materiallari bir vaqtning o`zida barcha ehtimol ko`rilgan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so`z bilan berilishi mumkin.

O`qitish moduli o`quv materialining avtonom (mustaqil) qismi bo`lib, quyidagilardan tashkil topadi:

- aniq ifodaga ega bo`lgan o`quv maqsadi (maqsadli programma);
- axborotlar banki: o`qitish programmasi shaklidagi ayni o`quv materiali;
- maqsadlarga erishish bo`yicha qo`llanma;
- zaruriy malakalarni shakllantirish bo`yicha amaliy mashg`ulotlar;
- qo`yilgan modul maqsadiga qat`iy muvofiq keluvchi nazorat ishi.
- Qo`yilgan modul maqsadiga qat`iy muvofiq keluvchi nazorat ishi.

Bilimlarni to`la o`zlashtirish texnologiyasi. O`quv materiallari bir necha bo`laklarga bo`linadi: o`zlashtirilishi tegishli bo`lgan o`quv unsurlari, undan so`ng bo`limlar bo`yicha tekshirish uchun materiallar ishlab chiqiladi, undan so`ng o`qitish, tekshirish – joriy nazorat, korrektirovka va qayta o`zgartirilgan tarzda ishlab chiqish – o`qitish.

Chiziqli dasturlar

1- odim	2- odim
1-kadr 2-kadr 3-kadr	1-kadr 2-kadr 3-kadr
Axborot mashq nazorat	

Ravon programmada ta'lim oluvchi to`g`ri javob berishi shart, ba'zan ehtimol deb topilgan javoblardan birini shunchaki tanlaydi. To`g`ri topilgan javobga u yangi o`quv axborotiga ega bo`ladi, agar javob to`g`ri chiqmasa, axborotni qaytadan o`rganishga tavsiya etiladi.

Tarmoqlanuvchi programma. Ta'lim oluvchi noto`g`ri javob berganda, unga qo`shimcha o`quv axboroti beriladi va u ta'lim oluvchiga nazorat topshiriqlarini bajarish, to`g`ri javob qaytarish va o`quv axborotlarining yangi bo`laklarini olish imkoniyatini beradi.

Tarmoqli dasturlar

1- asosiy odim	2- asosiy odim
1-kadr 2-kadr 3-kadr	1-kadr 2-kadr 3-kadr

1-tarmoqlanish (javoblarga)	A variant	2-tarmoqlanish
	1-kadr 2-kadr 3-kadr	
	B variant	
	1-kadr 2-kadr 3-kadr	

Soddalashtirilgan programma. U ta'lim oluvchiga yangi o`quv materialini murakkablik darajasiga qarab tanlab olish, uni o`zlashtirish jarayonida u yoki bu tarzda o`zgartirish, oddiy ma'lumotnoma, lug`at va qo`llanmalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Aralash programma. U ravon, tarmoqlanuvchi, soddalashtirilgan programma bo`laklarini o`zida qamrab oladi.

Algoritm. U aqliy va amaliy tadbirlar izchilligini belgilovchi tafsilotdir. U o`qitishning mustaqil vositasi hamda ta'limiy programmalarining qismi bo`lishi mumkin.

III-qism. INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Shu bilan bir qatorda o`qitish jarayonini oldindan loyixalashtirish zarur, bu jarayonda o`qituvchi o`quv predmetining o`ziga xos tomonini, sharoitni, TSONi, eng asosiysi, talabaniing imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, talaba-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O`qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko`ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo`lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o`qituvchini u tomonidan bo`lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o`qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talaba-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o`qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy uslubiyat, pedagogika va axborot texnologiyalardan xabardor bo`lishi, shuningdek, juda ko`p usullarni bilishi kerak bo`ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo`lishi avvaldan puxta o`ylab tuzilgan darsning loyixalashtirilgan texnologik xaritasiga bog`liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko`rinishda yoki shaklda tuzish, bu o`qituvchining tajribasi, qo`ygan maqsadi va ixtiyoriga bog`liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo`lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo`lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to`liq o`z ifodasini topgan bo`lishi kerak. Texnologik xaritani tuzilishi o`qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayoning barcha qirralari o`z aksini topadi.

O`zDJTI “Kasbiy ta'lim” yo`nalishidagi bakalavrlar (5140900) yo`nalish bo`yicha o`quv rejasi 5 ta blokga bo`lingan:

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo`yicha darslar: O`zbekiston tarixi va demokratik jamiyat qurilish asoslari, falsafa va chet tillari kafedralarida o`tkaziladi;

Matematika va tibbiy-ilmiy fanlar bo`yicha: Biomexanika va anatomiya, fiziologiya, sport tibbiyoti va davolash jismoniy tarbiyasi, Bioximiya va sport bioximiyasi kafedralarida o`tkaziladi.

Umumiy kasbiy fanlar bloki bo`yicha: Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati, Pedagogika va psixologiya, Jismoniy tarbiyatarixi va sportni boshqarish hamda sport pedagogik kafedralarida ta'lim olishadi.

Ixtisoslik fanlari, Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati kafedrasida olib boriladi.

Amaliyot JTNvaU hamda JTTvaB kafedralarida 5-7 semestrlarda ishlab chiqarish bo`limi orqali tashkil qilinadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati kafedrasida “Kasbiy ta'lim” yo`nalishidagi bakalavrlarga mutaxassisligi uchun 3 blokda “Pedagogik mahorat” va “Pedagogik texnologiyalar” fanlarini, 4-blokda ixtisoslik fanlari bo`yicha “Sport pedagogik mahoratini oshirish nazariyasi va usuliyati” fanlari bo`yicha o`quv darslarini olib boradi.

“Pedagogik mahorat” va “Pedagogik texnologiyalar” fanlari 3 blok bo`lganligi sababli matematika va tibbiy ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o`rtasida ilmiy va nazariy bog`liqlikni ta'minlashi, maxsus fanlarni o`rganish va chuqur bilim egallash uchun zarur bo`lgan fundamental umumiy kasbiy bilimlarni, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

“Sport pedagogik mahoratini oshirish nazariyasi va usuliyati” predmeti esa bakalavriat yo`nalishi bo`yicha muvofiq kasb sohalari erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish, kollejlarda “Jismoniy tarbiya o`qituvchisi” yo`nalishi bo`yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko`nikmalarini

malakalarini shakllantirish, talabning muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi zarur.

Yuqorida ko'rsatilgan predmetlarni ta'lim berish texnologiyasini takomillashtirish uchun pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur.

Pedagogik texnologiya nima?

Pedagogik texnologiya – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini majmua sifatida ko'rib uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida talaba (talaba)larga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab boruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbiridir degan xulosaga keladi (B.Ziyamuxamedov,2003).

Pedagogik texnologiyaning avvalgi uslublardan afzalligi, u ta'lim jarayonini bir butunlikda ko'rib, ta'lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarni kompleksga keltirib, ta'lim bosqichlarini loyixalab, ta'lim jarayonini nazorat qilish va ta'lim natijalarini baholash kabi qismlarini o'zaro uzviy bog'lab kompleksga keltirib turib, uning loyixasini tuzishidadir.

Uning an'anaviy uslublardan keyingi farqi, u talabalarni o'zlariga berilgan bilimlarni yoqlab olib aytib berishiga emas, balki ta'lim va tarbiya jarayonining yakunida amaliy ishlarning bajarilishiga yo'naltirilganligidadir.

Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi belgilanadi: umumiy pedagogik, xususiy, uslubiy, lokal (modul).

Umum pedagogik texnologiya yaxlit ta'lim jarayonini ifoda qiladi.

Xususiy uslubik texnologiya bir fan doirasidagi o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish uslublari va vositalaridan iborat bo'ladi.

Lokal (modul) texnologiya o'quv tarbiya jarayonining maxsus bo'limlariga texnologiyani tadbiiq qilishni ifoda qiladi. Bu texnologiya xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

Kasbiy ta'lim tizimida ta'lim texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlarni o'zlashtirilishini, xarakterlarning reflektivligini aks ettiradi va o'z kasbiy faoliyatini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi. U konseptual asos, ta'lim jarayonini mazmuni, texnologik jarayondan iborat bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning mezonlaridan biri boshqaruvga asoslanganmdadir. U o'quv jarayonini diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyixalash, undagi o'qitish uslublari va vositalarini o'zgartirib turishdan iborat bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning samaradorlik mezoni ta'lim jarayonining aniq sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko'zda tutadi.

Qayta tiklash. Pedagogik texnologiya mezonlaridan biridir. Unda Pedagogik texnologiya boshqa o'quv yurtlarida qo'llash imkoniyati deb tushuniladi.

Shunday qilib, oliy o'quv yurtlarida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi murakkab va doimiy xarakterdagi tizimni tashkil etadi. Bu tizimda bo'lg'usi o'qituvchining texnologik tayyorgarligi alohida o'rin tutadi. U bo'lg'usi pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o'qishi, ijodiy shaxsning rivojlanishi, tafakkurning kasbiy yo'nalganligini idrok qilish, o'quv-bilim faoliyatini tashkil etishda tadqiqiy (ilmiy) tamoyillarni amalga oshirish bilan bog'langan.

Bo'lg'usi pedagogning texnologik tayyorgarligi oliy o'quv yurti ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar: muammoli o'qitish, o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi, kompyuter axborot texnologiyasi, mualliflik texnologiyasidir.

Jismoniy madaniyatning umumiy nazariyasiga kirish, atamalarini aniqlash va ilmiy tadqiqot usullari” mavzu bo'yicha o'tiladigan dars loyixasini tuzishning nazariy asosi.

Pedagogik texnologiya tamoyillarining birinchisi muayyan o`quv fani, modul yoki dars mavzuidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish bo`lganligi tufayli, bu mavzuning umumiy maqsadini quyidagicha belgiladik: “Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati” o`quv fani bilimlarining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy ahamiyati haqida, jismoniy madaniyat va boshqa asosiy tushunchalarning mohiyati, fan va uning bo`limlari hamda ilmiy tekshirish uslublarini tushuntirish yo`li bilan talabalarda bu bilimlarga bo`lgan ehtiyojni shakllantirish.

Pedagogik texnologiyaning ikkinchi tamoyili darsning umumi maqsadidan kelib chiqib, mavzuni “qismlarga”, ya'ni “modullarga” ajratib, har bir modulning maqsadini hamda modullar ichida hal qilinishi lozim bo`lgan masalalar tizimini aniqlab olishdir.

Mazkur darsning birinchi moduli – talabalarda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati o`quv faniga qiziqish uyg`otish, uning bilimlarini egallashga ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy zaruriyat mavjudligini ilmiy asoslab berish uchun 15 daqiqa ajratiladi.

Bu modulda quyidagi savollarga javob berish ko`zda tutilgan:

- jismoni tarbiya nazariyasi faniga kirish;
- jismoniy tarbiya nazariyasi qanday bilimlarni o`z ichiga birlashtiradi.

Ikkinchi modulda ”Jismoniy madaniyat”, ”Jismoniy tarbiya” va “badantarbiya” atamasining mazmuni va mohiyatini ochib berib, uning faoliyat sifatida, predmetlar boyligi; Natija sifatida kerakli natijalarni bir butunligiga ishla-tilishi, jamiyatda predmet boyligi sifatida madaniylashtirilishi bilan xarakterlanadi. Ayrim aralash va qisman bir-biriga qo`shilgan tushunchalar ularning mohiyati ochib beriladi, unga 25 daqiqa vaqt ajratiladi.

Uchinchi modulda: Jismoniy madaniyat nazariyasi fani, jismoniy madaniyat haqidagi ilmiy bilimlar tizimida umumiy nazariyani shakllanish yo`llari; jismoniy madaniyat nazariyasi fani va o`quv predmeti sifatida, jismoniy madaniyatdan foydalanishning tipik yo`nalishlari va shakllarining tavsifi; jismoniy madaniyatdan inson hayotining turli davrlarida foydalanishning ilmiy amaliy asoslari, ilmiy tekshirish uslublari (tajriba va nazariy tadqiqotlar) hajmiga qarab 20 daqiqa ajratiladi.

To`rtinchi modulda darsni xulosalash va savollarga javob berish maqsad qo`yilgan va unga 5 daqiqa vaqt ajratilgan. Darsni xulosalash jarayonida dars boshida qo`yilgan har bir maqsadga qay darajada erishganlik qisqacha tushuntirib beriladi.

Beshinchi modulda talabalar bilimini baholashdan iborat bo`lib, unga 10 daqiqa vaqt ajratilgan. Bu modulda qo`yilgan maqsad o`tilgan dars samarasini aniqlash bo`lganligi uchun mavzu ichidagi savollar yuzasidan tuzilgan test savollarni ifoda etuvchi avvaldan tayyor turgan so`rov varaqasini talabalarga tarqatib, uni 3 daqiqadan so`ng yig`ib olish yo`li bilan, ularning reyting ballarini aniqlash va guruh jurnaliga ularni qayd qilib qo`yishdir.

Oltinchi modulga 5 daqiqa ajratilib, bu vaqtda o`qituvchi talabalarga uyda bajariladigan ishlarini aytib, uni bajarish yo`l-yo`rig`ini ham ko`rsatib beradi. Shuningdek, uyga berilgan vazifa yuzasidan tushgan savollarga ham javob berib uchrashguncha xayr deb, darsni tugatadi.

“Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyatiga kirish va uning atamalarini aniqlash” mavzusi bo`yicha o`tkaziladigan

dars loyixasi

15 daqiqa

modul 1

Maqsad: talabalarda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati o`quv faniga qiziqish uyg`otib, ularda ushbu fandan bilim olish ishti-yoqini paydo qilish

25 daqiqa

modul 2

Maqsad: Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati bilan bog`liq asosiy

atamalar mazmuni va mohiyatini ochib berib, nazariya va uslubiyatning amaliyotda va boshqa sport turlarida qanday qo'llanishini tushuntirib berish

20 daqiqa

modul 3

Maqsad: Jismoniy tarbiya nazariyasi to'g'risidagi fanni tashkil topishi, professional ta'lim beruvchi ekanligi, uni bo'limlari, ilmiy tekshirish uslublarini tushuntirib berish

5 daqiqa

modul 4

Maqsad: Darsni xulosalash va talabalardan tushgan savollarga javob berish

10 daqiqa

modul 5

Maqsad: Talabalar bilimini baholash uchun testli so'rov varaqalarini tarqatib ularni yig'ib olib javoblarini ballarga aylantirib, reytinglarini sinf jurnaliga qayd qilib qo'yish

5 daqiqa

modul 6

Maqsad: Uyga vazifa berish va uni bajarish yo'llarini talabalarga tushuntirish. Uyga vazifa yuzasidan tushgan savollarga javob berish

Dars oldiga qo'yilgan umumiy maqsad:

“Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati” o'quv fani bilimlarining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy ahamiyati haqida “Jismoniy madaniyat va boshqa tushunchalarning mohiyati, fan va uning bo'limlari hamda ilmiy tekshirish uslublarini tushuntirish yo'li bilan talabalarda bu bilimlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi har bir mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik karta unga faqat predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga (bir semestr, bir o'quv yili bo'yicha), yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasiga ko'ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik xaritaning talaba talabaning imkoniyati ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

O'qitish jarayonida talaba-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogika va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida qo'llanma beramiz. Ushbu uslubiy qo'llanmada keltirilgan zamonaviy uslublar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talaba talabalarida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor etuk mutaxassis

bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Ushbu uslubiy qo'llanmadan foydalanuvchilar o'quv jarayonini tashkil etish uchun xavola etilgan texnologik treninglarni xuddi shu tartibda o'tkazishlari shart emas, har qaysi o'qituvchi bu treninglarni umumiy shaklini olgan holda o'zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan treninglarni to'liq yoki ularning ba'zi bir bosqichlari, elementlarini ishlatishlari mumkin.

Biz quyida o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalar)ga tavsifnoma berib, ba'zilarini o'tkazish tartibi to'g'risida uslubiy tavsiyanoma berib o'tamiz.

“TARMOQLAR” uslubi – talaba-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

“3x4” uslubi – talaba-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

“BLITS-O'YIN” uslubi – harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

“INTERVYU” texnikasi – talaba-talabaga savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

“IERARXIYA” texnikasi – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

“BUMERANG” texnikasi – talaba-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha talaba-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

“TALABA” treningi – talaba-talabalar bilan individual holda ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.

“O'QITUVCHI SHAXSI” treningi – o'qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi “O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar” mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozma orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

“MULOQOT” texnikasi o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

“BOSHQARUV” texnikasi o'qituvchilar auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda talaba-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan.

“Tarmoqlar” uslubi (Klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, talabalarining mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu uslub biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval talabalarining fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Quyida biz, namuna sifatida misol keltirdik:

“Bumerang” texnologiyasi

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga

(muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan talaba yoki o'qituvchi rolda bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi.

“Bumerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqli shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivollantiradi.

Ta'lim bilan bir qatorda mazkur uslub tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Jamoa bilan ishlash mahorati:

- muomalalik;
- xushfe'llik;
- ko'nikuvchanlik;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondashish;
- o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish;
- o'zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar – bu savollar muomala, so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar – bu savollar oldindan “ha” yoki “yo'q” tipidagi to'g'ri ochiq javoblarni berishni ko'zda tutadi.

Ko'ndalang so'roq - bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo'lib, bu o'ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponetlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko'ndalang so'roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

“Skarabey” texnologiyasi

“Skarabey” interaktiv texnologiya bo'lib, u talabalarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya talabalarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

“Skarabey” texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi, masalan

boshida – o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida “aqliy xujum qo'llanilsa”;

mavzuni o'rganish jarayonida esa uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash, ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish, shuningdek

oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash bilan tugallanadi.

“Skarabey” texnologiyasi talabalar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U talabalar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni engillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

“Skarabey” alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanishi mumkin.

Ta'limdan tashqari mazkur uslub tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o'zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- "men"ligini ifodalashga imkon beradi;
- o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

Assotsiatsiya – mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Ranjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

“VEER” texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu, interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“VEER” texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEER” texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin: boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

mavzuni o'rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab etish;

yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik – biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat – ijobiy sifat.

Nuqson – nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish.

Ta'limdan tashqari “Elpig'ich” texnologiyasi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;

muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;

murosali qarorlarni topa olish mahorati;

o'zgalar fikriga hurmat;

xushmuomalalik;

ishga ijodiy yondashish;

faollik;

muammoga diqqatni jamlay olish mahorati.

O'qitishning samaradorligini oshirishda o'quv jarayonida “Blits-o'yin”, “Chorraha”, “Muomala texnologiyasi” turli ish o'yinlari texnologiyasi kabilardan ham foydalanish mumkin. Masalan, “Agar mer bo'lsam”, men shunday qilgan bo'lardim” kabilar.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan ushbu zamonaviy uslublar treninglarda qo`llanilgan texnologiyalar talaba-talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

Endi biz yuqorida aytilgan fikrlar va tavsiyalar asosida ba'zi bir pedagogik texnologiyalar qo`llanilgan dars uslubikalaridan namunalar berishga harakat qilamiz.

FSMU texnologiyasi TRENING HAQIDA TUSHUNCHA.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs munozaralar o`tkazishda yoki o`quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o`quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o`quv rejasi asosida biron bo`lim o`rganib bo`lingach qo`llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o`z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o`z fikrini boshqalarga o`tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda talaba talabalarni, o`quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish imkoniyatiga o`rgatadi.

Maqsad.

Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog`ozga o`z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

O`tkazish texnologiyasi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o`tkaziladi:

1-BOSQICH

trener tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo`lgan muammoni, yoki o`rganilgan bo`limni belgilab oladi;

trener o`quv mashg`ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo`lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma'lumot beradi;

mashg`ulot davomida har bir tinglovchi o`z fikrini erkin holda to`liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o`tiladi.

2-BOSQICH

har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 ta bosqichi yozilgan qog`ozlar tarqatiladi;

f – fikringizni bayon eting;

S – fikringizni bayoniga sabab ko`rsating;

M – ko`rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qog`ozdagi FSMUning 4 bosqichini o`z fikrlarini yozma bayon etgan holda to`latadi.

3-BOSQICH

Har bir tinglovchi o`z qog`ozlarini to`latib bo`lgach, trener ularni kichik guruhlariga bo`linishlarini iltimos qiladi yoki o`zi turli guruhlariga bo`lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kiik guruhlariga bo`lib yuboradi.

Trener har bir guruhga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog`ozlarni tarqatadi;

Trener kichik guruhlariga har birlari yozgan qog`ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo`yicha yozishlarini taklif etadi.

4-BOSQICH

kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o`zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o`tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o`rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

Guruh a'zolari FSMU ning 4-bosqichini har biri bo`yicha umumlashtirib, uni ximoya qilishga tayyorgarlik ko`radilar;

Fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o`z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5-BOSQICH

kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini ximoya qiladigan guruh vakili har bir bochqichni alohida o`qiydi (iloji boricha izoh bermagan holda). Ba'zi bo`limlarni isbotlashi, ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o`tishi mumkin.

6-BOSQICH

Trener mashg`ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o`z munosabatini bildiradi;

Quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojaat qiladi.

Ushbu trening yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o`rgandingiz?

Ushbu texnologiya o`quv jarayonida qo`llanilishi qanday samara berdi?

Ushbu texnologiyani qo`llanilishi, talabalarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

Ushbu texnologiyaning o`quv jarayonining qaysi bosqichida qo`llanilgani ma'qul va nima uchun?

Ushbu texnologiyani dars jarayonida qo`llanilishi talaba talabalarga nima beradi va nimaga o`rgatadi?

Ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o`tkazish mumkin?

Ushbu treningda trenerning asosiy vazifasi nimadan iborat?

IZOH: yuqorida keltirilgan savollar har bir treningning mazmuni, maqsadidan kelib chiqib trener tomonidan tinglovchilarga yoki talaba-talabalarga berilishi mumkin.

Tarqatma materialning tahminiy nusxasi?

FSMU TEXNOLOGIYASI

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko`rsating.

M – ko`rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

“BLITS-O`YIN” texnologiyasi

TRENING HAQIDA TUSHUNCHA.

Ushbu texnologiya talaba-talabalarni harakatlar ketma-ketligini to`g`ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o`rganayotgan predmeti asosida ko`p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o`rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida talaba-talabalar o`zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o`tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to`liq sharoit yaratib beradi.

Maqsad.

Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo'la olishga yordam beradi.

O'tkazish texnologiyasi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-BOSQICH

Trener ushbu trening bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida tinglovchilarga (talabatalabalarga) tushuncha beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi.

Trener hamma tinglovchilarga alohida-alohida tarqatma material beradi va tinglovchilardan ushbu materialni sinchiklab o'rganishlarini so'raydi.

Trener tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya'ni tarqatma materialda berilgan 13 ta harakatni ketma-ketligini to'g'ri belgilash kerakligi, belgini esa qog'ozdagi alohida ajratilgan bo'limga raqamlar bilan belgilash kerakligini tushuntiradi.

Qo'yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini aytadi.

2-BOSQICH

Trener birinchi berilgan vazifani har bir tinglovchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi. Qiynalغانlarga yordam beradi, yoki qaytadan tushuntiradi.

Har bir tinglovchi tarqatma materialdagi "YAKKA BAHO" bo'limiga shu erda berilgan harakatlardan o'zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi, ya'ni berilgan 13 ta harakatdan, uning fikricha qaysi biri birinchi bo'lishi, qaysi biri esa ikkinchi bo'lishini va xakozo. Bu vazifani bajarish uchun trener tinglovchilarga 10 daqiqa vaqt beradi.

3-BOSQICH

Trener tinglovchilardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so'raydi. 3 kishilik guruhlar tinglovchilarning xohishlariga qarab yoki raqamlar bo'yicha tashkil etilishi mumkin:

Kichik guruhlardagi tinglovchilarning har biri o'z ??? yakka baho bo'limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin 3 kishida uch xil bo'lgan ketma-ketlikni birgalashib, bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonitirib kelishgan holda bir muqimga kelib ularga tarqatilgan qozog'dagi "GURUH BAHOSI" bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar.

Trener kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi. Faqat kichik guruhlar va har bir tinglovchi faoliyatini kuzatadi. Bu vazifani bajarish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

4-BOSQICH.

Barcha kiik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, trener harakatlar ketma-ketligi bo'yicha to'g'ri javobni beradi, ya'ni tinglovchilardan ularga tarqatilgan qog'ozlardan "TO'G'RI JAVOB" bo'limini topishni va unga trener tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligining raqamlarini yozishni so'raydi.

5-BOSQICH.

Trener "TO'G'RI JAVOB" bo'limida berilgan raqamlardan "YAKKA BAHO" bo'limida berilgan raqamlarni (yoki aksincha), ya'ni kattadan-kichikni ayirgan holda "YAKKA HATO" bo'limiga chiqqan farqni yozishni so'raydi. "YAKKA BAHO" bo'limidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqib umumiyisini hisoblashlari kerakligini uqtiradi.

6-BOSQICH.

Xuddi shu tartibda “TO`G`RI JAVOB” va “GURUH BAHOSI” o`rtasidagi farq kattadan-kichikni ayirish orqali bajariladi. Chiqarilgan farqlar soni “GURUH HATOSI” bo`limiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qo`shiladi va umumiy son keltirib chiqariladi.

7-BOSQICH

Trener yakka va guruh hatolarining umumiy soni bo`yicha tushuncha beradi, ularni alohida-alohida sharhlab beradi.

“YAKKA HATO” bo`limidagi umumiy sonlarning sharhi.

Agar yakka hatolar soni 30 gacha bo`lsa, bundan tinglovchilarda tashkilotchilik, konstruktivlik qobiliyati etarli, ular mustaqil ravishda har bir ishni tashkil eta oladilar turli sharoitlardagi harakatlar vaqtida mantiqan ularning ketma-ketligini tashkil eta oladilar.

Agar yakka hatolar soni 30 dan 40 gacha bo`lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik qobiliyati etarli emas, biron bir ishni yoki faoliyatni tashkil etishlarida qiynaladilar yoki palapartishlikka yo`l qo`yadilar. Shuning uchun ular alohida kurslarda o`qishlari yoki mantiqan fikrlashga o`rganishlari kerak bo`ladi.

Agar hatolar soni 40 dan yuqori bo`lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik, mantiqiy fikrlash qobiliyati etarli emas, ular o`z ustlarida ishlashlari kerak bo`ladi yoki maxsus treninglar, kurslarda o`qishlariga to`g`ri keladi.

“GURUH HATOSI” bo`limidagi umumiy sonlarning sharhi:

Agar hatolar soni 30 gacha bo`lsa, bu guruhlardagi tinglovchilar bir-birlarini tushunishga harakat qilganlar, bir-birlarini isholntira olganlar va natijada bir xil natijaga erishganlar. Demak, guruhda samimiy munosabat o`rnatilgan, fikrlar bir joydan chiqqan.

Agar guruhning hatolar soni 30 dan 40 gacha bo`lsa, bu guruhda tinglovchilarning bir muqimga kelishlari qiyin bo`lgan, tortishuvlar yuzaki yoki ishonarsiz bo`lgan yoki guruh a'zolari bir-birlarini tushunishga sust holda intilganlar, yoki vazifaga beparvaroq bo`lganlar, yoki bir-birlarini xafa qilib qo`yishdan cho`chiganlar, yoki guruhning barcha a'zolari yuzaki holda kelishishgan-u, aslida esa har kim o`z fikrida qolgan bo`lishi mumkin. Samimiy munosabat bu guruhda o`z aksini topmagan.

Agar guruh hatosining soni 40 dan ortiq bo`lsa, bu guruh a'zolari umuman bir-birlari bilan kelisha olmaganlar, o`zaro ishontirish bo`lmagan. Har kim o`z fikrida qolgan. Samimiy munosabat o`rnatilmagan.

IZOH: Bajarilgan vazifani baholashning yana bir turi, quyidagicha: tinglovchilarning javoblari trener tomonidan berilgan “TO`G`RI JAVOB”ning yarmidan ko`piga to`g`ri kelgan bo`lsa, demak, “qoniqarli”, 75% to`g`ri kelgan bo`lsa “yaxshi”, 100% to`g`ri kelgan bo`lsa “a'lo” deb belgilash mumkin.

8-BOSQICH.

Misol tariqasida “Men “Kollektiv ijodiy ish” (KTD) – tashkilotchisi mavzusidagi blits-o`yinning chizmasini keltirishimiz mumkin (har bir o`qituvchi o`z predmeti, yoki o`tayotgan, yoki o`tgan mavzusi asosida blits-o`yin shaklidan foydalanib o`yin mazmunini tuzishi mumkin);

Trener mashg`ulotni yakunlaydi. Guruhlarning ba'zilariga, ularning faoliyatlariga o`z fikrini bildiradi. Ushbu trener ularni niimalarga o`rgatganini, ular shu trening orqali nimalarni bilib olishganlari bilan qiziqadi va kerakli savollarni beradi. Ushbu trening 1 soatga mo`ljallangan.

Blits-o`yin “Men – tashkilotchi”)

Guruh bahosi	Guruh hatosi	To`g`ri javob	Yakka hato	Yakka baho	Guruh ishidan chetlashish	Harakatlar mazmuni
		5				Tadbirning rejasini tuzish
		2				Tadbirning maqsadini belgilash
		3				Tadbirning mazmunini tanlash
		8				Tadbirni boshlash yo`llarini tanlash va uning stsenariysini yozish
		12				Tadbirni repetitsiya qilish
		7				Oldindan bo`lajak tadbirga tomoshabinlarning munosabatlarini ko`ra bilish
		9				Tadbirni vaqtlarga bo`lish
		1				Tayyorlanadigan tadbirni boshqa tadbirlar o`rtasida dolzarbligini baholash
		4				Tadbir mavzusini tuzish
		6				Bo`lajak tadbirning qiziqarli, ta'sirli nuqtalarini tanlash
		13				O`tkaziladigan tadbirning yakuniy tahlili va keyingi tadbirga tayyorgarlik
		10				Tadbirda ishlatiladigan turli texnikalarni tayyorlash masalalarini hal etish
		12				Tadbir o`tkaziladigan joyni jihozlash hamda kerakli texnikani tayyorlash

**“BUMERANG” TEXNOLOGIYASI
TRENING HAQIDA TUSHUNCHA.**

Ushbu texnologiya talaba-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o`rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so`zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha talaba-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

Maqsad.

Trening davomida tinglovchilarga tarqatilgan materiallarni ular tomonidan yakka va guruh holatida o`zlashtirib olishlari hamda o`zaro suhbat-munozara orqali, turli savollar orqali tarqatma materiallar, undagi matnlar qay darajada o`zlashtirilganini nazorat qilish. Trening davomida talaba-talabalar tomonidan baho ballarini egallashga imkoniyat yaratish.

O`tkazish texnologiyasi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o`tkaziladi:

1-BOSQICH.

Trening to'g'ridan-to'g'ri tinglovchilarni 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'lishdan boshlanadi.

Trener har bir guruh va uning har bir a'zosiga mustaqil o'rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun alohida-alohida aniq yozma tarqatma material beradi (tarqatma materialda) trener tomonidan tanlangan umumiy mavzu bo'yicha biron bir hajmdagi matn berilgan, ularning soni guruhlar va tinglovchilar soniga bog'liq. Agar 4 ta kichik guruh bo'lsa, u holda umumiy mavzu 4 ta kichik matnlarga bo'linib, har bir guruhga beriladi.

Faoliyat samarali bo'lishi uchun har bir guruhga berilgan tekstdan har bir tinglovchiga beriladi. Shunday qilib, 4 ta guruh umumiy mavzu asosida 4 xil matnga ega, har bir tinglovchi esa o'z guruhiga tushgan matnga ega bo'ladi.

2-BOSQICH.

Guruhlarga berilgan matnni guruh a'zolari, yakka tartibda alohida o'rganishlari, tekstni eslab qolishlari, keyin esa kerak bo'lsa boshqalarga yoki trenerga gapirib berishlari, iloji boricha tekstni o'zlashtirib olishlari kerakligini trener uqtiradi va tayyorgarlik uchun matnni katta kichikligiga qarab 10-15 daqiqa vaqt berishi, o'zi esa guruh va tinglovchilarni ish faoliyatini kuzatadi.

3-BOSQICH

Trener oldindan tayyorlab qo'yilgan raqamlar yozilgan kichik qog'ozlar bilan har bir guruh yoniga kelib guruh a'zolaridan ushbu qog'ozlardan bittadan raqam tortib olishlarini so'raydi (qog'ozlar soni guruhdagi tinglovchilar soniga bog'liq, masalan guruhda 5 kishi bo'lsa, qog'ozdagi raqamlar 1, 2, 3, 4, 5 etib tayyorlanadi, agar 4 ta bo'lsa, 1 dan 4 gacha va x.). Guruhdagi barcha tinglovchilar raqamlar yozilgan qog'ozdan olishlari kerak. Nechta guruh bo'lsa, shuncha guruh a'zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog'ozlar tayyorlanadi.

Trener raqamlar bo'yicha tinglovchilardan yangi guruhlar tuzishlarini so'raydi. Masalan, hamma 1 raqamini olganlar bitta yangi guruh, 2 raqamlilar ikkinchi guruhni 3 raqamlilar uchinchi guruhni, 4 raqamlilar to'rtinchi guruhni, 5 raqamlilar beshinchi guruhni tashkil etishlarini so'raydi. Guruh a'zolari yangi guruhga o'tishlarida o'zlari bilan o'rgangan matnlarini oladilar.

4-BOSQICH

Raqamlar bo'yicha yangi guruhlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar o'z-o'zidan to'planib qoladi, ya'ni 4 ta guruhda 4 xil matn o'rganilgan bo'lsa, bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil to'planadi, umumiy mavzu bo'yicha 4 tinglovchi va 4 xil matn to'planadi.

5-BOSQICH

Yangi tuzilgan guruhning har bir a'zosi endi o'ziga 2 ta vazifa, ya'ni o'qituvchi va talaba vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko'rsatadi:

O'qituvchi (o'rgatuvchi) sifatida, o'zi avval o'rgangan materialni gapirib beradi, tushuntiradi, o'zi mustaqil o'rgangan materialning asosiy joylariga barchani diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a'zolarining tushunish va o'zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi.

Talaba sifatida, guruh a'zolarini navbatma-navbat so'zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini etishadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

Trener esa ularga o'z tekstlarini faqat so'zlab berishlari kerakligini uqtiradi va bunga 20 daqiqa vaqt beradi (matn hajmiga va umumi mavzuning qiyin, osonligiga qarab vaqt ajratiladi).

Bu bosqichda trening boshlanishida tarqatilgan barcha material tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilgan hisoblanadi.

6-BOSQICH

Guruhdagilar bir-birlariga o'z matnlarini gapirib berib barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, trener o'rganilgan material guruh a'zolari tomonidan qanchalik o'zlashtirib olinganini tekshirib ko'rish uchun har bir guruh a'zosi bir-birlariga o'z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkinligini tushuntiradi. Shunday qilib, guruh ichidan ichki nazorat savol-javob orqali o'tkaziladi. Bu esa guruhdagi tinglovchilarni bir-birlariga so'zlab bergan materiallarini boshqalar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga, mustahkamlashga yordam beradi.

7-BOSQICH

Trener barcha tinglovchilarni yana qaytadan avvalgi joylariga qaytishlarini so'raydi, ya'ni yana hamma mashg'ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

8-BOSQICH

Trener auditoriyadagi tinglovchilarning barchasi hammaga tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lganliklarini hisobga olgan holda auditoriyadagi har bir talaba-talabadan xohlagan materialni so'rashi mumkinligini aytadi.

9-BOSQICH

Tinglovchilarga tarqatilgan barcha materialni ular tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligi darajasini aniqlash maqsadida trener o'qituvchi, yoki maxsus guruh, yoki opponet guruhi tomonidan berilgan nazorat savollariga javoblarni reyting ballari orqali baholanishi tushuntiriladi. Masalan, savollarga berilgan javoblar – agar to'liq javob bo'lsa – 3 ball, qo'shimcha qilinsa – 2 ball, o'tilgan joydan luqma tashlansa – 1 ball, javob berilmasa – 0 ball qo'yilishi belgilanadi.

Baho sistemasida – to'liq javob uchun – 5 baho, qo'shimcha uchun – 4 baho, luqma tashlansa – 3 baho, javob bermasa – 2 baho, umuman ishtirok etmasa – 1 baho qo'yishni belgilash mumkin.

Guruh a'zolarining javoblarini yuqorida ko'rsatilgan tartibda baholash, ballarni qo'yib borish, umumlashtirish uchun har bir guruh o'ziga guruh qatnashchilaridan birini “hisobchi” etib tayinlashi mumkin (“hisobchi” ham davrada bo'layotgan savol-javoblar muloqotida ishtirok etadi).

10-BOSQICH

Ushbu bosqichda trener tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5-6 ta) bilan talaba-talabalarga murojaat qiladi (savollar iloji boricha hamma matnlarga tegishli bo'lgani ma'qul, shuningdek, trener auditoriyadagi barcha talaba-talabalarni javob berish uchun qamrab olishga harakat qiladi).

Belgilangan savollarga javob berish tugagach, trener doskaga guruhlar tomonidan to'plangan ballarni yozadi va mashg'ulotning keyingi bosqichida o'tadi.

11-BOSQICH

Trener-o'qituvchi har bir guruhni o'z yozma materiallarining mazmunidan kelib chiqqan holda bittadan savol tayyorlashlari kerakligini aytadi va guruhlarga savol tuzishlari uchun 5-7 daqiqa vaqt ajratadi.

12-BOSQICH

Bu bosqichda guruhlar bir-birlariga savollar beradilar, guruhlardagi “hisobchilar” esa guruh a'zolarining javoblarini yuqorida belgilangan tartibda baho beradilar. Javoblar to`g`ri bo`lsa, savol bergan guruh javobni to`ldirmaydi.

13-BOSQICH

Trener-o`qituvchi guruh a'zolari to`plangan ballarni yana bir marotaba doskaga yozadi va to`plangan ballar (baholar) ning umumiy sonini aniqlaydi. To`plangan ballar (baholar)ni umumiy sonini guruh a'zolariga teppa-teng bo`ladi (yuqorida kelishilganlik asosida).

IZOH: agar to`plangan ballarni guruh a'zolariga teppa-teng bo`lishda talaba-talabalar tomonidan norozilik bo`lsa, ya'ni ba'zi guruh a'zolari guruhning faoliyatida faol ishtirok etib, umumiy jamoaviy faoliyatda passiv bo`lgan bo`lishsa, yoki umuman ishtirok etmagan, qiziqmagan bo`lishsa, bunday holatda vaziyatni echishni guruh a'zolariga yuklatiladi. Guruhning echimi to`g`ri hisoblanadi, yoki trener-o`qituvchi o`z fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars jarayonida talaba-talabalarning javoblari, faol yoki passivliklarini kuzatib boradi.

Umuman olganda, agar talaba-talaba faollik ko`rsatmagan, yoki savol-javoblarda ishtirok etmagan bo`lsa ham uning shu dars jarayonida biron narsani bilib olgani, eslab qolib o`zlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik ball berilishi mumkin. Bu talaba-talabani keyinalik shu shakldagi darslarda faolroq bo`lishga undaydi. Yuqoridagi kabi vaziyat vujudga kelsa, uni echimini har bir o`qituvchi sharoitga, faoliyatga qarab o`zi hal etishi yoki guruh, jamoaga tashlashi mumkin.

Ba'zida guruhning “hisobchilari” ballarni qo`yishda noaniqlik yoki qo`shib yozishlari mumkin, natijada ba'zi guruhlarning umumiy to`plangan ballari boshqa guruhlaridan juda farq qilishi mumkin. Talaba talabalarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlagan “hisobchi”lariga bog`liq ekanligini trener-o`qituvchi eslatib o`tadi. Agar umumiy to`plangan ballarni guruh a'zolariga taqsimlanganda shu mashg`ulot uchun belgilangan maksimal ballardan ortib ketgan bo`lsa, u holda shu mashg`ulot uchun kerakli ballni olib qolib, ortiqchasini keyingi mashg`ulotlarga yoki yakuniy nazoratga o`tkazish mumkin.

14-BOSQICH

Har bir talabaga ballar qo`yilgach (har bir talaba baholangach), trener mashg`ulotga yakun yasaydi. Talaba-talabalarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o`z fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga murojaat qiladi:

- Bugungi mashg`ulotdan nimalarni bilib oldingiz?
- Nimalarga o`rgandingiz?
- Nimalar sizlar uchun yangilik bo`ldi?
- Yana nimalarni bilishni istar edingiz?

15-BOSQICH

Trener-o`qituvchi talaba-talabalarning javoblarini diqqat bilan tinglab ularga minnatdorchilik bildiradi va darsni yakunlaydi.

TRENING “MULOQOT”

TRENING HAQIDA TUSHUNCHA.

Ushbu trening talaba-talabalarda dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o`z fikrlarini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo`lib, odatda bunday mashg`ulot tinglovchilarni kichik guruhlarga bo`lgan holda o`tkaziladi.

Maqsad.

Tanlangan mavzu, muammo asosida tinglovchilarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga boʻlgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va toʻgʻri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish.

Oʻtkazilish tartibi.

Trener mashgʻulotni boshlashdan avval tinglovchilarni muloqot, bahs-munozarani oʻtkazishga qoʻyilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiradi, soʻngra ushbu trening bosqichma-bosqich oʻtkazilishini tushuntiradi.

1-BOSQICH

Trener mashgʻulotni oʻtkaziladigan muloqotning mavzusini aniqlashdan boshlaydi, masalan, “Siz qaysi madaniyat tarafdorisiz: Sharq yoki Evropa?”. Shu mavzuni oʻrtaga tashlab tinglovchilardan Sharq madaniyati va Evropa madaniyati tarafdorlarini aniqlab oladi. Ularni shu tartibda guruhlariga boʻladi.

2-BOSQICH

Har bir guruhdagi tinglovchilar oʻz mavzulari asosida kerakli materiallar: dalillar, misollar, aniq fikrlar, oʻz fikrlarini tasdiqlovchi koʻrgazmali materiallar, imkoni boʻlsa videofilm, maqolalar, mutafakkir va olimlarning soʻzlari va boshqalarni tayyorlaydilar. Guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qolganlar esa oʻz fikrlarini qoʻshimcha qilishlari mumkin. Trener guruhlarini tayyorgarlik koʻrishlari uchun sharoit va imkoniyatga qarab vaqt beradi.

3-BOSQICH

Guruhlar himoyaga tayyor boʻlgach, trener guruhlarining biriga himoya uchun soʻz beradi (himoyaga chiqish ixtiyoriy ravishda boʻlishi mumkin). Guruh vakili guruh nomidan soʻzga chiqib, ularga berilgan mavzuni tayyorlangan materiallar, dalillar asosida himoya qilishga kirishadi. Guruh vakili soʻzini tugatgach, guruhning qolgan aʼzolari oʻz fikrlari bilan qoʻshimcha fikrlar bildirishlari mumkin.

4-BOSQICH

Mashgʻulotning 3-bosqichidagi kabi bu bosqichda ham trener navbatdagi guruh vakiliga himoya uchun soʻz beradi. Ikkinchi guruh ham birinchi guruh kabi oʻz mavzusi boʻyicha himoya qiladi. Himoya tugagach, trener mashgʻulotning keyingi bosqichiga oʻtadi. Har ikkala guruhning himoyasi vaqtida trener iloji boricha ularga halaqit bermaslikka, oʻz fikr va mulohazasini bildirmaslikka, savol bermaslikka harakat qiladi, hech qaysi guruhga yon bosmagan holda muloqotni boshqaradi, guruhlar himoyasi vaqtida tartib saqlanishiga va muloqotni oʻtkazishga qoʻyilgan talab, qoidalarni toʻliq bajarilishiga erishishga harakat qiladi. Bu bosqichda, asosan, ikki guruh erkin, mustaqil faoliyat koʻrsatishlari kerak boʻladi.

5-BOSQICH

Guruhlar bir-birlariga savol berishni boshlaydilar. Guruhlar tomonidan beriladigan savollar ular himoyasi vaqtida aytilgan dalillar, misollar, fikrlarni yanada oydinlashtirish maqsadida, shuningdek, oʻz guruhlarining fikrlarini yanada taʼkidlab, isbotlab, qolganlari ham shu fikrga qoʻshilishlariga daʼvat qilish uchun berilishi mumkin. Tinglovchilar erkin holda oʻzlarining chiqishlari bilan barchaga taʼsir koʻrsatishga, oʻz fikrlarini maʼqullashga harakat qiladilar. Trener bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratadi, yaʼni u bahs-munozarani samimiylilik bilan boshqaradi.

6-BOSQICH

Trener har ikki tomonning bir-birlariga savollari, aytadigan fikrlari, ma'qullaydigan so'zlari tugagach, har ikki guruh tomonidan aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va o'zining bu masala haqidagi fikr va mulohazasini bayon etadi va guruh tinglovchilari tomonidan tushgan savollarga kerakli javobni berishga harakat qiladi.

Mashg'ulot oxirida trener har ikkala guruhning mashg'ulot jarayonidagi faoliyatlarini tahlil etib, ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Ushbu treningning davomiyligi sharoitga qarab belgilanadi.

“Qora quti” uslubi

Ta'lim jarayonida mazkur uslubni qo'llashdan maqsad – talabalar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Uslubdan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

O'quvchilar juftlikka birlashtiriladilar; juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar va h.o) ni kartochkalrga qayd etish vazifasi yuklanadi;

O'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;

Topshiriqni to'g'ri bajargan guruhning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va topshirishning echimini yozuv taxtasiga yozadi;

Sinf o'qituvchilari yozuv taxtasida qayd etilgan fikrini sharhlaydilar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar qanday ma'noni anglatishini aytadilar)

To'g'ri javob bergan o'quvchi o'qituvchi rolini bajarib juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o'qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

“Beshinchisi (oltinchisi, ettinchisi,..) ortiqcha” uslubi

Talabalarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu uslub alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

Hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita.....) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;

O'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

O'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undan (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim)


Mavzu mohiyati yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va asoslay olish talabalarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay olish, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI FANI BO`YICHA LOYIXALASH TIRISH

Pedagogik texnologiyaning muvaffaqiyatli loyihalaniishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o`qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab etish darajasi va darsda ularni to`g`ri baholay olishiga bog`liqdir.

Har bir darsda ta'limning aniq maqsadi belgilanishi o`qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi. Bunda fan mavzulari bo`yicha o`qitishning tashxislanuvchi maqsadi aniqlanadi. Darhaqiqat, har qanday fan o`zining paydo bo`lgan vaqtidan boshlab katta bilimlar hajmini to`plagan va u yuqori tezlikda boyitib borayapti. O`qitish faqat zaruriy axborotlarigina tanlab olish va talabning o`zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ular hajmini miqdoriy o`lchamga keltirish zarur.

Har qanday fan bosqichma-bosqich o`rgangan holda rivojlanib boradi. Rivojlanishning uzluksiz jarayoni turli fanlarda turlicha, hatto bir fan bo`limlari o`rtasida ham notekis kechadi. Shu bois o`quv mavzulari bo`yicha maqsadni aniq belgilash uchun abstraktsiya pog`onalari va unga mos o`quv unsurini bayon qilish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.



O`quv predmetining ilmiylik darajasi va bu parametrlar yordamida talabalar bilim sifatini baholash uchun koeffitsient kiritiladi. Talabalar tomonidan o`quv unsurini qay darajada o`zlashtirish ularning faoliyatiga bog`liq. Faoliyat ko`rsatma vositasida yoki ko`rsatmasiz mustaqil ravishda bajariladi. Mahsuldor faoliyat ma'lum pedagogik ko`rsatmalar asosida tashkil etiladi, biroq bu erda harakatlar ketma-ketligi, tartib qoidalari ayni vaziyatda yangilangan yoki hech kimga ma'lum bo`lmagan usullar vositasida amalga oshadi.

Yuqorida tilga olingan o`zlashtirish darajasini aniqlash uchun munosib testlar ishlanishi kerak. Test – bu biror bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga

qaratilgan topshiriqlardir. Testning to'g'ri bajarilganligini o'lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert uslubi yordamida etalon ishlab chiqiladi.

Etalon yordamida test echimiga olib keladigan jiddiy amallar sonini aniqlash qiyin emas. Talabani javobi etalon bilan solishtirilgach, testning sifatli bajarilganligi to'g'risida tegishli xulosaga kelinadi va to'g'ri echilgan amallar soni yordamida o'zlashtirish koeffitsienti aniqlanadi.

O'zlashtirish koeffitsienti. Etalon yordamida test echimiga olib keladigan jiddiy amallar sonini (R) aniqlash qiyin emas.

Talabani javobi etalon bilan solishtirilgach, testning sifatli bajarilganligi to'g'risida tegishli xulosaga kelinadi va to'g'ri echilgan amallar soni (a) yordamida o'zlashtirish koeffitsienti aniqlandi:

$$K = \frac{a}{R}$$

K ni aniqlash o'zlashtirish sifatini o'lchash amali hisoblanadi. O'zlashtirish koeffitsienti me'yorlanadi ($0 < K < 1$) va u baholash mezoni bilan taqqoslanishi mumkin. Bu ko'rsatkich yordamida o'qitish jarayonining tugallanganligi to'g'risida hukm chiqariladi. Agar $K > 0,7$ miqdorda bo'lsa, o'qitish jarayonini tugallangan (yakunlangan) deyish mumkin, chunki talabalarning keyingi faoliyati o'z bilimlarini mustaqil takomillashtirishga qodir bo'ladi. Agar talabalarning o'zlashtirish koeffitsienti $K < 0,7$ bo'lsa, keyingi faoliyatlarida hatoliklarga yo'l qo'yadilar va ularni tuzatishga qurbi va qobiliyatlari etishmaydi.

Shunday qilib, pedagogik aylanmaga talabalarning tajribani o'zlashtirish darajasi sifatini o'lashtirish koeffitsienti K yordamida aniq hisoblash uslubikasini kiritish Ptning muhim printsiplaridan birini ifodalashga imkon beradi – bu ta'limni tugallanganlik prinipidir. Shu printsiptufayligina maktabda o'qitish jarayoni sifatsizligini keltirib chiqaruvchi muammolar echimi va yo'nalishlarini izlab topish sohasidagi didaktikaning davriy hatolaridan biri ochiladi.

Shunday qilib, pedagogik aylanmaga talabalarning tajribani o'zlashtirish darajasi sifatini o'zlashtirish koeffitsienti yordamida aniq hisoblash uslubikasini kiritish pedagogik texnologiyani muhim tamoyillaridan birini ifodalashga imkon beradi. Bu ta'limning tugallanganlik tamoyilidir. Mazkur tamoyil maktabda o'qitish jarayoni samarasiz kechishi borasidagi muammolarning echimi va yo'nalishlarini izlab topish imkonini beradi.

Didaktik masalalarning uchinchi – “ta'lim mazmuni” yoki axborotlarning muayyan majmuasi bo'lib, ular yordamida yosh avlodga umuminsoniy va milliy tajribalar uzatiladi.

O'quv yurtlarida o'rganilayotgan fanlarning o'zlashtirish unsuri nihoyatda ko'p, biroq har bir o'quv yurti turiga qarab o'zlashtirish unsurining soni cheklanadi. Misol tariqasida Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fanini olaylik. Bu fan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish unsuri oliy o'quv yurtlari uchun alohida aniqlanadi. Buning uchun esa o'quv dasturlari ishlab chiqiladi.

Ma'lumki, bilimlarning talabalar tomonidan egallanishi ularning xususiy o'quv faoliyati natijasi tufayli ro'y beradi. Har qanday o'quv faoliyati umumiy loyiha bo'yicha quriladi va tuzatuvchi harakatlarni mujassamlashtiradi. Bu harakatlarni talabalar bevosita o'qituvchi va darslik yordamida bajarishlari mumkin. O'zlashtirish unsuri o'quv harakatlarining alohida, o'zlashtirishning ma'lum bosqichida namoyon bo'ladi. Chunonchi, mo'ljalli harakatning bajarilishi va o'quv topshiriqlarining o'zlashtirilishi quyidagicha ta'minlanadi:

A. talabalarning o'qituvchi tomonidan berilgan tayyor topshiriqlarning mohiyatini tushunib etishlari;

B. ularning topshiriqlarni faol qabul qilishlari;

V. talabalarning mustaqil ravishda o'quv topshiriqlarini bajarishlari;

G. ular tomonidan muayyan o'quv topshiriqlarining mustaqil ravishda bajarilishi.

O`quv faoliyatining muhim tavsifnomalaridan biri – uning natijasidir. Echimning ob'ektiv to`g`riligi, natijani olgunga qadar sodir etilgan harakat va qadamlar soni, vaqt sarfi, sub'ekt uchun faoliyatning muhimligi, uning yakunidan talabning qanoatlanishi, sarflangan aqliy va jismoniy kuch hajmi va boshqalar o`quv faoliyatining samarali yakunini ko`rsatuvchi omillar hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va usulbiyati fanni o`qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga oid dars ishlanmalarini keltiramiz.

Demak, yuqorida bayon etilgan fikrlardan anglanganidek, xususiy fanlarni o`qitish jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbqiq etishda o`quv fanlarining o`ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

Ko`p yillik sport mashg`ulotini oqilona qurish bir qator omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Mazkur omillarni sanab bering.

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.

Sportchining yillik mashg`ulotlari jarayoni va musobaqalari uchun asos bo`ladigan usuliy qoidalarni sanab bering.

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.

Yosh sportchilarda jismoniy sifatlar rivojlanadigan sensitiv (ta'sirchan) davrlarni jadvalda (Q) belgisi bilan ko`rsating.

Jismoniy sifatlar	Yoshi, yil																
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
Kuch (maksimal)																	
Tezlik																	
Tezlik-kuch sifatleri																	
Chidamlilik (aerob imkoniyat)																	
Egiluvchanlik																	
Muvozanat qobiliyatlari																	

1. "Sportchilarning kuchi yillik tayyorgarligi bosqichlari va ularning vazifalari" jadvalini to`ldiring.

Ko`p yillik tayyorgarlik bosqichlari (nomi)	Alohida bosqichlarning asosiy vazifalari (yo`nalishi)

Tushunchalarning ta'rifini bo'sh qoldirilgan joylarga yozing.

Mikrotsikl – bu

Mezotsikl – bu

Makrotsikl – bu

“Sport mashg'ulotida mikrotsikllar turlari va ularga tavsif berish” jadvalini to'ldiring.

DARS LOYIHALARI

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiti fani bo'yicha darsning mavzusi: Tezkorlikni tarbiyalash.

Darsning maqsadi: Tezkorlik to'g'risida talabalarga ma'lumotlar berish asosida ularda sportga qiziqish uyg'otish, hayotda va mehnatda tezkorlik mashqlarini qo'llay bilish.

Dars jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

Talabalarga tezkorlikni to'g'risida tushuncha berish va uchta formalari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar berish.

Tezkorlikning fiziologik va biologik asoslari.

Harakatlantiruvchi reaksiya tezkorligini tarbiyalash uslubiyati.

Harakat tezkorligini tarbiyalash uslubiyati.

Tezkorlikni tarbiyalash munosabati bilan kuchni oshirish va texnik tayyorgarlik.

Dars jihozlari: izohli lug'at, jadvallar, adabiyotlar, tezkorlikni chizmasi.

Dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol uslublar: suhbat, savol-javob, test; “5x5x5”, Klaster, “Qora quti” uslublari.

Darsning rejasi:

Tushunchaning ta'rifi. Tezkorlikning namoyon bo'lish shakllari.

Tezkorlikni namoyon bo'lishining uchta asosiy shakli.

Oddiy va murakkab harakat reaksiyasi ayrim xarakteristikasi

Kuchni oshirish tayyorgarligi.

Darsning borishi:

5x5x5 uslubi yordamida bilimlarni o'zlashtirish.

Guruh talabalarini 5 nafardan bo'lib, 5 ta guruhga bo'linadilar. Mavzuning umumiy matni 5 qismga bo'linib, har bir qism har bir guruhga beriladi va guruhlarga matnni o'rganib chiqish vazifasi topshiriladi. Matn guruhlar tomonidan o'rganilgandan so'ng, guruhlar qayta tashkil etiladi. (ushbu o'rinda har bir guruhda avvalgi beshta guruhning bir nafar a'zosi bo'lishi shart). Guruhlar qayta tashkil etilgandan so'ng har bir talaba o'zi o'zlashtirgan ma'lumotlarni qolgan talabalarga hikoya qilib beradi. Shu tarzda mavzu matn talabalar tomonidan o'zlashtiriladi.

II. Savol-javob asosida suhbat tashkil etish. Talabalarga quyidagi savollar beriladi:

Tezkorlikni ta'rifi.

Tezkorlikning namoyon bo'lishining uchta asosiy shakllari nimalar?

Tezkorlikning fiziologik va bioximik asoslarini nima tashkil qiladi?

Oddiy reaksiya vaqti sportchilarda va shug'ullanuvchilarda qancha va ularning farqi, uslubikasi?

Murakkab reaksiya (harakatdagi ob'ektga bo'ladigan reaksiya va tanlash reaksiyalari.

Harakat tezkorligini tarbiyalash uslubik asoslari.

Harakatli tezligining sport bellashuvi va unga qarshi kurash yo'llari.

Tezkorlikni tarbiyalashda kuch va texnik tayyorgarlik.

III. “Qora quti” uslubi yordamida o'zlashtirilgan tushunchalarni mustahkamlash.

Ushbu uslub vositasida quyidagi harakatlar tashkil etadi:

Talabalar juftlikka birikadilar va ularga oddiy va murakkab reaksiya tezkorligini, tarbiyalashni reaksiya vaqtlarini va tarbiyalash uslubiyatini kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi.

O`qituvchi topshiriqning guruhlar tomonidan qanday bajarilganligini tekshiradi, uni to`g`ri bajargan juftlikning bir a'zosi o`qituvchi rolini bajaradi va yozuv taxtasiga reaksiya vaqtlarini:

Oddiy reaksiya: 0,15-0,20 sek.ba'zilar esa 0,10-0,12 sek.ga tengligini;

Murakkab reaksiyada: Harakatdagi ob'ekt to`satdan paydo bo`lganda ob'ektga reaksiya ko`rsatish 0,26 sek. – 1 sek.ketishini yozadi.

So`ngra talabalardan ushbu sanalar qanday ma'noni anglatishini so`raydi, to`g`ri javob beraolgan talaba o`qituvchi rolini ijro etadi va talabalardan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi 5 ta tushunchani kartochkalarga yozishni so`raydi.

Ushbu talaba o`qituvchi yordamida topshiriqni juftliklar talabalarini qanday bajarganlarini tekshiradilar va yozuv taxtasiga quyidagi atamalarni yozadilar: Sport tezlanishi, analitik yondashish, sengamotor, harakat ob'ektiga bo`ladigan reaksiya, tanlash reaksiyasi, dam olish intervallari. O`qituvchi rolini bajarayotgan talaba tengdoshlaridan ushbu so`zlar nimalarni anglatishini so`raydi.

IY. “Beshinchisi ortiqcha” uslubi yordamida o`zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.


Talabalarga quyidagi vazifalarni bajarish topshiriladi: berilgan tushunchalar ro`yxatidan mavzuga taaluqli bo`lmagan tushunchalarni aniqlang va ularni ro`yxatdan chiqaring, harakatlaringiz mohiyatini izohlang: tezkorlik, harakat reaksiyasining latent vaqti; ayrim harakatlar tezligi; harakatlar chastotasi, oddiy reaksiya, analitik yondashish; sensor, murakkab reaksiya, harakatdagi ob'ektga bo`lgan reaksiya, tanlash reaksiyasi, stabillashuv, kuchni oshirish.

Y. “Klaster” uslubi yordamida o`zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.

Talabalar guruhlariga bo`linadilar va ularga belgilangan vaqt ichida mavzu bo`yicha qanday tushunchalarni o`zlashtirgan bo`lsa, ularni qog`ozga yozish vazifasi topshiriladi. Fikrlar tugagandan so`ng guruh a'zolari tushunchalarni mantiqiy jihatdan bir-biriga bog`lab chiqadilar.

Vazifani bajarish jarayonida fikrlarning to`g`ri yoki noto`g`riligiga ahamiyat bermaslik, nimaiki o`ylagan bo`lsa, shuni yozib borish talab etiladi. Yozuvning texnik (orfografik, mantiqiy va x.) jihatlariga e'tibor bermaslik aytib o`tiladi.

Tezkorlikni tarbiyalash



OLIV PEDAGOGIK TA'LIMDA INTEGRAL TEXNOLOGIYALAR

Respublikamizda oliy ta'lim tizimi yangi rivojlanish pog'onasiga ko'tarildi: ikki bosqichli ta'lim – bakalavriat va magistratura faoliyat ko'rsata boshladi; davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi; talabalarning mustaqil bilim olishini yakka tartibda amalga oshirish joriy etilayapti, ta'lim mazmunida fan va ishlab chiqarish integratsiyasi o'z aksini tobora ko'proq topmoqda; professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga e'tibor kuchaytirilganligi alohida tahsinga loyiq.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni rivojlangan davlatlar tajribalari asosida takomillashtirish, uning ishtirokchilari – o'qituvchi va talaba (magistr) faoliyatini “sub'ekt-sub'ekt” qonuniyatlari asosida tashkil etish zarurati bugun barcha oliy o'quv yurtlarida pedagogika va psixologiya fanlarini o'quv rejasiga kiritish lozimligini hayotning o'zi isbotladi. Galdagi vazifa – bu fanlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish, innovatsion pedagogik faoliyatning siru-sinoatlarini tadqiq qilish asosida amaliy xulosalarni qo'lga kiritishdir. Zero, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi jamiyatni to'liq pedagoglashtirish muammosini kun tartibiga qo'yayotgani nazardan chetda qolmasligi kerak.

O'zbekistonda shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi e'tirof etilgan bir davrda pedagogika fani erkin Shaxsni shakllantirish qonuniyatlari, yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va uslublari, mazmuni va printsiplarini o'rganadi. Endilikda pedagogika o'z predmeti, fanlar bilan aloqasi, pedagogik bilimlar tizimi va ularning mantiqiy tuzilmasi, nazariy pedagogik bilimlarni tarbiyaga. Ta'lim amaliyotiga qo'llash masalalariga doir muammolarni qaytadan yangicha talqinda qo'ymoqda. Demak, pedagogikada tadqiqotlarning dolzarbligi, bir tomondan, jamiyat ehtiyoji – o'quv-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish bilan, boshqa tomondan, pedagogik bilimlarning yangilanish va rivojlanish darajasi bilan belgilanar ekan.

Bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish texnologik yondashuv asosida olib borilishi lozim. Pedagogika mutloq texnologik fandır va u ta'lim doirasining barcha qatlamlarini qamrab oladi.

Pedagogika fani predmeti jamiyat ehtiyoji va rivojlanayotgan shaxs qiziqishiga hamohang tarzda sun'iy tarbiyaviy jarayonni qurish qonuniyatlarini o'rganadi va uni izchil amalga oshiradi. Ana shu sun'iy tizim “Pedagogik tizim”, unda kechadigan jarayonlar esa “Pedagogik texnologiya” deb ataladi. Pedagogik tizim tashqarisida hech qanday maqsadli ta'lim-tarbiya jarayoni kechmaydi yoki pedagogik texnologiya – bu amaliyotga joriy etiladigan pedagogik tizim loyihasidir. Bu tizimni takomillashtirish, asosan, quyidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- didaktik birliklarni yiriklashtirish;
- o'qitish natijalarni oldindan belgilash, rejalashtirish;
- ta'lim jarayonini psixologiyalashtirish;
- kompyuterlashtirish.

Bugungi kunga kelib, shubhasiz, bu yo'nalishlar bo'yicha ma'lum yutuqlarga erishildi. Agar bu yo'nalishlar aniq ta'lim-tarbiya maqsadini echishga qaratilgan holda yaxlitlashtirilsa yoki integral holatga keltirilsa, bu amal natijasida kuchli texnologiya vujudga keladi. Bu texnologiya integral texnologiya deb ataladi va yunoncha so'z bo'lib, “bir butunlik”, “uzluksizlik” ma'nolarini anglatadi. Integral texnologiyalar uchun yangi mashg'ulot shakli – seminar-praktikum yaratiladi. Uning mazmuni: mashg'ulotni o'tkazish uchun talabalar kichik guruhlarga birlashadi va har bir guruh chegaralangan vaqt davomida bajara oladigan topshiriq oladi. Ana shu topshiriqni olgandan bajarishga kirishadilar va bunda ta'lim-tarbiya jarayoni ob'ektini to'g'ri tanlash jiddiy ahamiyat kasb etadi. Ob'ekt obdon tadqiq qilingach, natijalari bo'yicha kichik guruhlar “hisob” beradilar, ya'ni mashg'ulot “publik himoya” ko'rinishida tashkil etiladi. Qarabsizki, talabalar o'z-o'zini o'qitish, bahs, munozara, mavqeiini mustahkamlash orqali o'quv mavzularini chuqur o'rganadilar va shu tarzda yakuniy natija ta'minlanadi.

“Muammoli vaziyat”

“Muammoli vaziyat” turi	“Muammoli vaziyat” sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Intizomning yo`qligi.	1. Darsga qiziqmaslik. 2. Darsga kech kelish 3. Tarbiyasizlik 4. Darsga tayyormaslik 5. Larsni buzish 6. O`qituvchining auditoriyani boshqara olmasligi. yoki	O`qituvchining professional darajali shaxsi, tashqi ko`rinishi, nutqi. Tushuntira bilishi.
Tabiatning ifloslanishi Avtomobilni buzilishi Muloqotni yo`qligi Ximiyaviy hodisalar va boshqalar		

Akademik litsey va kasb-xunar kollejlarda ko`pincha boshqarma vakillari, rahbar xodimlar, uslubistlar, o`qituvchilar o`qituvchilarning darslariga kirish, darsni tahlil qilishda nimalarga e`tibor berish kerakligi haqida ko`pincha bosh qotirishadi. Shu sababdan biz bu to`plamga shu masala yuzasidan ba`zi bir tavsiyalarni kiritdik. Aslida o`qituvchining darsiga kirish va uni tahlil qilish, birinchi navbatda, darsga kirayotgan shaxsning qo`ygan maqsadiga bog`liq. Masalan: “Men yangi mavzuni bayon qilishdagi tajribangizni (yoki baholashingizni, mavzuni mustahkamlagingizni, to`liq dars jarayonini tashkil etishingizni, talaba-talabalar bilan muloqotingizni va boshqalarni o`rganmoqchi (kuzatmoqchi, ommalashirmoqchi) edim”. Shunga qarab dars tahlili o`tkaziladi. Quyida berilgan tavsiyalar ko`p yillik tajribalar va kuzatishlar natijasida hamda hozirgi kun talabi asosida tuzilgan.

DARSGA KIRISH VA TAHLIL ETISH TEXNIKASI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim mazmuniga qo`yiladigan talablar yanada kuchaydi. O`tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko`rsatmoqdaki, bugungi talabalarning aksariyati o`qishga qiziqmay qo`yishdi. Buning sabablaridan biri dars mobaynida o`qituvchi bilan talaba o`rtasida umuman muloqotning yo`qligidadir. Shuningdek, maktabda, o`rta maxsus o`quv yurtlarida hamkorlik pedagogikasi, xalq tarbiyashunosligi va pedagogik ruhshunoslik xizmati to`g`ri yo`lga qo`yilmaganligidadir. Umuman olganda muallim o`zining kuchli va zaif tomonlarini har doim anglashi kerak. Ayrim muallimlar o`zlarining zaif tomonlarini, aniqsa bilimsiz ekanliklarini yopish uun talabaga ortiqcha talablar qyadilar. O`qituvchining bo`sh tomonini esa talaba tez angelaydi. Shuning uchun u xadiksirab emas, balki o`qituvchi hurmatini joyiga qo`yib munosabatga kirishishi mumkin. Bunday ruhiy kayfiyatni ba`zan o`qituvchi sezmaydi. Talaba esa muallifni har doim kuzatib boradi. Undan iliq gap, mehr-muruvvat kutadi.

Hozir fanda ta'limning tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish muammosi turibdi. Shunday sharoitda o`qituvchining tashqi qiyofasi ham ba`zan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Lekin bularning ichida eng muhimi – eng zaruri va talaba uchun eng ahamiyatlisi – o`qituvchining bilimdonligi, yangilik va dunyoviy bilimlarga chanqoqligi hamda uning so`zi bilan ishning muvofiq kelishidir hamda talabalarni izlanishga, bilimlarni mustaqil egallashga, har bir

fanning mohiyatini tushunishga, ishga ijodiy yondoshishga undashi va talabaning erkin fikrlashi, mustaqil ishlashi uchun sharoit yaratishidir.

Ko'p yillik ish tajribasi va kuzatishlar shuni taqozo etadiki, o'qituvchi hamisha o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakasini takomillashtirib borishi kerak, uning kundankunga pedagogik mahoratini o'sib borishi, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llay olishi uning faoliyatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining faoliyati, uning mahoratini odatda kuzatish yoki darslarini kuzatish va tahlil qilish orqali bilish mumkin. O'qituvchi faoliyati va uning darslarini kuzatish hamda tahlil etishni ko'pincha boshqarmaning inspektori, o'quv yurti rahbari yoki uslubistlar, o'qituvchi va uslub birlashma boshliqlari amalga oshiradilar. Odatda o'qituvchining darsiga kirish lozim deb topilsa, ayniqsa tashqaridan kelgan shaxslarni darsga kiritishdan burun o'qituvchilik kasbi odobiga ko'ra, qaysi sinfga va qaysi darsga kirish kerakligi ogohlantirilishi lozim. Avvalo, uslub birlashma raisi, imkoniyat bo'lmay qolgan taqdirda ma'muriyat a'zolaridan biri tashqaridan kelgan kuzatuvchini birga olib kirishi darkor. Shunday holda ba'zi bir anglashilmovchiliklar va psixologik tusiqlarning oldi olingan bo'ladi.

O'qituvchi bilan birga darsga kirib kelib, orqa o'rindiklardan biriga o'tirgach, dars boshlanadi. O'qituvchi darsga kirganda qo'lida yoki sinf xonasida – sinf jurnali, o'quv dasturi, kalendar – mavzu rejasini, darsning texnologik kartasi bo'lishi kerak.

Mutaxassis sifatida o'qituvchining darsini kuzatmoqchi, tahlil etmoqchi bo'lsangiz, quyidagilarga e'tibor berishingiz lozim:

DARS TAHLILINING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI:

O'qituvchining darsga qanday tayyorgarlik ko'rganligi.

O'qituvchida darsning o'quv rejasini borligi, mavzu bo'yicha turli ishlanmalarni borligi, shu bilan bir qatorda turli didaktik tarqatma materiallarni, ko'rgazmali qurollarni tayyorlanganligi. Darsni tahlil qiluvchi tomonidan o'qituvchining darsga tayyorgarligi bilan yuzaki tanishib chiqilmaydi, sababi uning darsga bo'lgan tayyorgarligi butur dars davomida kuzatiladi va tahlil etiladi.

Darsga maqsad va vazifalarni qo'yilishi.

O'qituvchi har bir darsga aniq maqsad qo'yadimi? Maqsadni qanchalik to'g'ri qo'yadi?

3. Tashkiliy tahlili, ya'ni dars o'tiladigan xonaning darsga tayyorligi avvalo bolalar kayfiyati sog'ligi va sinf xonasi, doskaning tozaligi, bo'r va namlangan lattaning borligi, sinf xonasining tozaligi, mabodo ularning nomi yozilgan varrakchani o'qituvchi stoliga qo'yilishi kabilardan tashqari o'qituvchining darsga xozirligi, uning tashqi qiyofasiga ham e'tibor beriladi.

4. Didaktik (ta'limiy) tahlili. Tahlilning bu turida mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo'nalishi, ko'rsatmalilik va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyiligi, jonli va ravon tilda yoritib berilishi.

5. Uslubik (uslubiy) tahlil. Bunda o'qituvchi faoliyatining ikki tomoni nazarda tutiladi.

Birinchidan, quyidagi dastur asosida mavzu necha soatga mo'ljallangan bo'lsa uni qanday usul asosida talabaning yoshi va individual-psixologik xususiyatini hisobga olganda etkazib bera olishi, talabalarni o'ylashga, izlanishga majbur etishi va unga sharoit yaratishi.

Ikkinchidan, o'zining o'qituvchi sifatidagi tajribalari qay darajada ekanligi namoyish etish.

Mana shu ikkinchi qismida o'qituvchining ijodkorligi, uslubik mahorati ko'zga tashlanishi lozim. Ilg'or pedagogik va novatorlik tajribalari mana shu erdan boshlanadi.

6. Uslubologik tahlilda. Xalq ta'limi yo'nalishidagi qarorlar, talablar, davlat tili, milliy ruh, madaniyatning go'zal durdonalari, shu soha bo'yicha buyuk olimlar allomalarning qilgan ishlari, fikrlari, o'zgarishlar asos qilib olinishi mumkin.

7. Psixologik tahlilga, avvalo talabaning kayfiyati, uning sog'ligi, jamoadagi sog'lom muhit, talabaning xushyorligi, diqqatning barqarorligi va ko'lami, fanga bo'lgan qiziqish, dars

berayotgan o`qituvchisiga munosabati, talabaning hozirjavobligi, sezgir va topqirligi, idroki, yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashi, obrazli va mantiqiy tafakkuri, talaba fantaziyasi, oldida turgan ma'suliyatga nisbatan talabaning irodali yoki irodasizligi, talabadagi qobiliyat, bilim, ko`nikma va malakalar ko`lami kabi tomonlar kiradi. O`qituvchining favqulodda vujudga kelgan vaziyatdan chiqa olishi, o`zini boshqara olishi.

8. Pedagogik tahlil: Tahlilning bu turi ancha murakkab, mas'uliyatli bo`lib, o`qituvchining tashqi qiyofasi sinf bilan til topa olishi mahorati, uning madaniyati, odobidan tashqari qanday qilib dars jarayonida umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini talabaga bera olishi hamda o`qituvchining nutq madaniyati nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda dolzarb bo`lib turgan milliy tarbiya ekologik, iqtisodiy, ahloqiy, jinsiy, mehnat, nafosat hamda milliy istiqlol g`oyasini singdirish, tarbiya elementlari qanday amalga oshiriladi?

Bu tarbiya turlaridan qay biriga aynan shu darsda e'tibor berildi?

Darsning tarbiyaviy ta'sirining samarasi qanday bo`ldi?

Bu masalalar pedagogik tahlilning asosini tashkil etadi. Yana shuni aytish kerakki, o`qituvchining ma'noli nutqini hech qachon boshqa narsaga qiyoslab yoki almashtirib bo`lmaydi.

9. O`qituvchining hamkorlikdagi vazifasi tahlili:

Talabalarni fikrlashga o`rgatish.

Aniq fikr va materiallarni o`rganib, mulohaza yuritish, fikr bildirish.

Talabalarni izlanishga, qidirib topishga o`rgatish.

Talabani o`zi mustaqil fikrga ega bo`lishi.


10. Talabani tahlil yoki xulosa qismida o`zining mutaxassis sifatidagi taklif va yo`l-yo`riqlarini bayon etasiz.


Dars yakunini tahlil etish jarayonida avvalo dars o`tgan mutaxassis gapirgani ma'qul. So`ng tahlilda ishtirok etuvchilar gapiradi.

IZOH: O`qituvchining darsiga va uning faoliyatiga bir dars tahlili bo`yicha xulosa chiqarib bo`lmaydi, tanqidiy baxs berish uchun o`qituvchining har xil shakldagi bir necha darsini kuzatish kerak bo`ladi.

Darsni kuzatuvchilar an'anaviy, noan'anaviy, rivojlantiruvchi ta'limning maqsadi va mazmuniga qarab darsni tahlil qilishlariga quyidagi qo`shimcha material yordam berishi mumkin.

Darsni tahlil qilish bo`yicha yordamchi material





Yuqorida keltirilgan ko`pgina texnologiyalar Innovatsion texnologiyalar Markazida yaratilgan bo`lib, Markaz o`z ishini Nizomiy nomidagi TDPU da amalga oshiradi. Markaz ishida ko`chma seminarlar ham amalga oshiriladi.

Ko`chma seminarlarni tayyorlashda Markaz har bir o`quv yurtlarining o`quv-tarbiyaviy jarayoni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kerakli dasturlarni tayyorlaydi va amalga oshiradi. Ushbu seminarlarda barcha mashg`ulotlarda o`qituvchilar kerakli texnologiyachlarni mashq qilish orqali o`rganadilar.

Ushbu to`plamga, biz innovatsion texnologiyalar tomonidan yaratilgan "Tarbiyaviy texnologiyalar" dasturi asosida tayyorlangan "Rituallar tizimi va ularning tarbiyaviy ahamiyati" mavzusidagi uslubiy tavsiyani ham kiritdik, chunki akademik litsey va kasb-xunar kollejarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar, tadbirlarda ham hozirgi kun talabi asosida yangi shakllar, uslublar, uslublar qo`llanishi talab etilmoqda. Tarbiyaviy ishlarga yangitdan yondashuv qo`shimcha ma'lumotlarni, tavsiyalarni, texnologik usullarni talab qiladi. Shu sababdan, biz ushbu materialni sizning e'tiboringizga havola etmoqdamiz. Bu tavsiyadan har bir o`qituvchi o`quv-tarbiya jarayonida foydalanishi mumkin.

X O T I M A

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri "Shaxs manfaati va ta'lim ustivorligi"dir.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati fanini o'qitish jarayonini ikki tomonlama o'qituvchining o'rgatuvchanlik faoliyati yig'indisidan iborat ekanligi e'tirof etiladi.

O'quv qo'llanma birinchi navbatda anglay olish, pedagogik faoliyatga nisbatan biroz ijodiy va texnologik yondashish mashg'ulotlarining qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan birga talabalar tomonidan har bir mavzu bo'yicha bilimlarning puxta egallanishi uchun zamin yaratadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya pedagogik tizim loyixasi sifatida fan asoslari bo'yicha talabalarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq holda tashkil etish va amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Texnologik yondashuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega. Shu bois ta'lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish har bir pedagogning shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy mahorati hamda ijodkorlik layoqati darajasiga bog'liq.

Loyixalangan pedagogik texnologiya zamonaviylik, maqbullik, ilmiylik, texnik vositalar bilan ta'minlanganlik, ob'ektiv nazorat kabi sifat ko'rsatkichlar bilan tavsiflansa, u shubhasiz, yangi hisoblanadi va ta'lim standartlari muammolarini chegaralangan vaqt doirasida echa oladi. Loyixa muallifi bo'lgan o'qituvchi esa yangi kasbiy faoliyat – "Pedagog –texnolog" darajasiga ko'tariladi.

O'quv qo'llanmada keltirilgan innovatsion loyixalar, interaktiv uslublar jismoniy tarbiya dars loyixalari jismoniy tarbiya fakultetlarining, jismoniy tarbiya insitutining o'qituvchilari uchun namuna sifatida tavsiya etilmoqda.

Respublikada jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati hamda sport pedagogik fanlarida beriladigan ta'limning demokratik tamoyilini yanada rivojlantirish, yangi pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyotga tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent. Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997.
- Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-t. – Toshkent: O`zbekiston. 2000.
- Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda.-Toshkent: O`zbekiston. 1999.
- Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqbol va taraqqiyot yo`li. – Toshkent: O`zbekiston. 1998.
- Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – Toshkent: O`zbekiston. 1995.
- Sindan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Kontseptsiyasi. Ma`rifat g.-1993 yil. mart.
- O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997.
- O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod –O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent: O`zbekiston. 1997.
- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida”gi qarori (1999 yil, 16 avgust). Xalq ta`limi j. 1999. №5.
- Umumiy o`rta ta`limning Davlat ta`lim standarti. Xalq ta`limi j. 1999. №5.
- Arnautov V.V., Monaxov V.M. Optimizatsiya uchebnogo protsessa. – Moskva: Mixaylovka. MTsOP. 1997.
- Barkamol avlod orzusi. (Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, R.Ahlidinov, H.Saidov) Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1999.
- Bespalko V.P. Pedagogika va progressivno`e texnologii obucheniya.-Moskva: IRPO. 1995.
- Bespalko V.P. Slagaemo`e pedagogicheskoy texnologii. – Moskva: Pedagogika. 1989.
- Bespalko V.P., Tatur Yu.G. Sistemno-uslubicheskoe obespechenie uchebno-vospitatelnogo protsessa podgotovki spetsialistov.-Moskva: Vo`sshaya shkola. 1988.
- Bespalko V.P. Teoreticheskie osnovo` standartizatsii obrazovaniya. Pedagogicheskoe obespechenie gosudarstvennogo standarta obrazovaniya.-Moskva: IRPO. 1994.
- Vertgeymer M. Produktivnoe mo`shlenie.-Moskva: Progress. 1987.
- Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. – Moskva: Znanie. 1989.
- Monaxov V.M. Uslubologiya pedagogicheskoy texnologii akademika V.A.Monaxova.-Moskva: Mixaylovka. MTsOP. 1997.
- Monaxov V.M., Smo`kovskaya T.K. Proektirovanie avtorskoy (sobstvennoy) uslubicheskoy sistema` uchitelya. J.Shkolnaya texnologiya. 2001. №4.
- Monaxov V.M. Texnologicheskaya karta. – passport proektiruemogo uchebnogo protsessa.-Novokuznetsk: IPK. 1996.
- Oliy pedagogika o`quv yurtlarining o`quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etishning ilmiy asoslari. Respublika ilmiy-uslubik konf. Materiallari. –Toshkent: TDPU. 200.
- Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Qarshi. Nasaf. 2000.
- Pedagogika (Akad.S.R.Rajabovning umumiy tahriri ostida.-Toshkent: O`qituvchi.1981.
- Pedagogik va axborot texnologiyalari: yutuqlar va istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konf.mat. Toshkent: O`zPFITI. 2003.
- Podlasiy I.P. Pedagogika. V 2-x tomax. T.1.-Moskva: Gumanitarno`y izdatelskiy sentr Vlados. 1999.
- Psixologiya. Qisqacha izohli lug`at. –Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 1998.
- Saidahmedov N. Yangi pedagogik-texnologiyalar (nazariya va amaliyot).-Toshkent: Moliya nashriyoti. 2003.

- Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. – Toshkent: RT M. 2000.
- Selevko G.K. Vzgl'yad na problemu. J.Pedagogika. 1997. №9.
- Selevko G.K. Sovremenno`e obrazovatelno`e texnologii. –Moskva: Narodnoe obrazovanie. 1998.
- Slastyonin V.A. Dominanta deyatel'nosti. J.Pedagogika. 1997. №9.
- Slastyonin V.A., Mihenko A.I. Selostno`y pedagogicheskiy protsess kak ob'ekt professional'noy deyatel'nosti uchitelya.-Moskva.: URAO. 1997.
- Tolipov O`.Q., Usmanboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: "Fan". 2005.
- Tolipov O`. O`qituvchilar tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalar. Xalq ta'limi. J. 200. №2.
- Tolipov O`. Pedagogik texnologiya va uni loyihalash bosqichlari. DTS'larni ishlab chiqish va tadbiiq etish hamda kasbiy ta'limda uzviylikni ta'minlash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konf.mat.-Toshkent: O`zAFITI. 2000.
- Xayrulin G.T. texnologii i texnika vzaimodeystviya. –Almati. Mektep. 1998.
- Hurkova N.E. Pedagogicheskaya texnologiya. –Moskva: Pedagogicheskoe obhestvo Rossii. 2002.

M U N D A R I J A

Kirish

1-qism. Pedagogik texnologiya kontseptsiyasining rivojlanish tarixi

Zamonaviy texnologiya ta'limini modernizatsiyalash harakatlanuvchi kuch

.....

Ta'lim jarayoniga pedagogik yondashuv tamoyillari,.....

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvlar,.....

II-qism. Pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslub va vositalari.....

2.1. Muammoli o`qitish texnologiyasi,.....

2.2. Dasturli o`qitishning usuliyati,.....

2.3. Ishbilarmonlar va didaktik o`yinlar,.....

2.4. Ta'limning interaktiv uslublari,.....

2.5. Kadrlar raqobatbardoshligi va malaka sifati,.....

III-qism. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari,.....

3.1. "Tarmoqlar" uslubi,.....

3.2. Bumerang texnologiyasi,.....

3.3. Skarobey texnologiyasi,.....

3.4. Veer texnologiyasi,.....

3.5. FSMU texnologiyasi,.....

3.6. "Blits o`yin" texnologiyasi,.....

3.7. Trening "Muloqot"

3.8. Aqliy hujum,.....

3.9. Fikrlar hujumi,.....

3.10. "Qora quti" uslubi,.....

3.11. Beshinchisi (6-7 chisi) ortiqcha uslubi,.....

IY-qism. Jismoniy tarbiya nazariyasi bo`yicha loyixalashtirish,.....

Y-qism. Oliy pedagogik ta'limda interaktiv texnologiyalar,.....

**Р.С.Саломов ва Ф.А.Керимовнинг “ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯДА
ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР” номли ы=ув =ылланмасига**

Т А + Р И З

“Таълим ты\рисида”ги =онун ва 1997 йил 29 августдаги “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да бозор и=тисодиётига ытиш даврида жамиятни ызи олий маълумотли мутахассисларни тайёрлашга ю=ори талаб =ыяди. Чунки мутахассисларни кенг доирадаги дунё=араши ыз касбини ызлаштириш учун талаб =иладиган чу=ур билимга ва уни ыз ы=увчиларига сингдира оладиган =обилиятга эга былиши зарур.

Шу сабабли “Кадрлар тайёрлаш” миллий дастурида ы=ув-тарбиявий жараёнини ил\ор педагогик технологиялар билан таъминлаш ы=тирилади, унинг иккинчи ва учинчи бос=ичларида бажариладиган жиддий вазифалардан бири сифатида белгиланади.

Шунинг учун бугунги кунда педагогик технологиянинг назарий асосини яратиш ва амалиётга тадби= этиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир.

Шунга биноан, муаллифлар Р.С.Саломов ва Ф.А.Керимовларнинг “Жисмоний тарбияда педагогик технологиялар” мавзусидаги ы=ув =ылланмаларида педагогик технологиянинг ривожланиш тарихи; педагогик технологияларни =ыллаш услуб ва воситалари; инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йыллари; жисмоний тарбия назарияси бййича лойихалаштириш; олий педагогик таълимда интерактив технологиялар кырсатилган.

Шунга =арамасдан ушбу ы=ув =ылланмада амалий дарслар учун педагогик технологияни =ыллаш =ис=ача берилган, лекин кенг равишда очиб берилмаган.

Ушбу ы=ув =ылланма жисмоний тарбия институтлари ва факультетлари учун жуда зарур, шу ма=садда уни кып нусхада чоп этишни тавсия =иламан.

**Тошкент шаҳар Республика Олимпия
защиралари коллежи лаборатория
мудири, п.ф.д., профессор**

Т.С.Усмонхыжаев

**Р.С.Саломов ва Ф.А.Керимовнинг “ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯДА
ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР” номли ы=ув =ылланмасига**

Т А + Р И З

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тизимининг таълим тарихини, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъмуриятининг 2005 йил 27 ноябрдаги “2005-2009 йилларда умумтаълим мактаблари ва олий таълим уюмлари учун дарсликлар ва методик қўлланмалар нашр этиш дастури тизимининг таълим тарихининг ижтимоий баҳолаш, шунингдек, Республикада таълим тизимининг мазмунини тубдан янгилаш ва такомиллаштириш, жумладан амалдаги дарслик ва қўлланмаларни, таълим сифати ва самарадорлигини ошириш каби масалалар бугунги кунда долзарб масалалардир.

Шунга биноан, муаллифлар Р.С.Саломов ва Ф.А.Керимовларнинг “Жисмоний тарбияда педагогик технологиялар” мавзусидаги таълим қўлланмада таълим технологияси бўйича ёрдамчи восита ва янги тизимни яратиш олган ҳолда таълим жараёнини ривожлантиришга, унинг ташкилий шакллари, услублари, мазмунини ўзгартирган ҳолда таълимнинг ва талабаларнинг педагогик тафаккурлашига таъсир кўрсатилишига катта аҳамият берилган.

Жисмоний тарбия таълим тизимида педагогик технологияларни қўллаш услуб ва воситалари, инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари, жисмоний тарбия назарияси бўйича лойиҳалаштириш, олий педагогик таълимда интерактив технологиялар қўллаш услуби қўлланмада кенг ўргатиш ёртилган.

Мазкур таълим қўлланма яъни таълимнинг янги техник воситаларини яратиш ва таълим жараёнига қўллаш билан бевосита боғлиқ,

Ушбу таълим қўлланма жисмоний тарбия институтлари ва факультетлари учун жуда зарур, шу маънода уни нашр этишга тавсия берилган.

**ЖТНваУ кафедраси,
катта таълимчи, п.ф.н.**

Ю.Ю.Орипов